

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

O‘ZBEK TILINING SOHADA QO‘LLANISHI

O‘quv qo‘llanma

Bilim sohasi: 700000 - Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari

Ta’lim sohasi: 730000 - Arxitektura va qurilish

Ta’lim yo‘nalishi 60730700-Qurilish materiallari, buyumlari va
konstruktsiyalarini ishlab chiqarish

UDK: 808.5(075.8)
KBK: 81.2У₃-923Я73
Sh 91

Shukurova Bahor Boltayevna, Xudoyorova Nigora Nuriddinovna
O‘ZBEK TILINING SOHADA QO‘LLANISHI: O‘quv qo‘llanma/
Shukurova B. B., Xudoyorova N. N. – Termiz: Termiz publishing center
2025. – 159 b.

Shukurova Bahor Boltayevna- filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Xudoyorova Nigora Nuriddinovna- O‘zbek tili va adabiyoti kaferdasi o‘qituvchis.

“O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fanidan tayyorlangan o‘quv qo‘llanma Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida tomonidan tuzilgan o‘quv dastur asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, aynan 700000 - Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalarida hamda 730000 - Arxitektura va qurilish ta‘lim yo‘nalishlari, xususan, 60730700 - Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish dasturida o‘qiyotgan talabalar uchun mo‘ljallangan. Qo‘llanma o‘quv jarayonining nazariy, amaliy, ijodiy jihatlarini to‘liq aks ettirib, innovatsion texnologiyalar bilan boyitilgan. Bu talabalarning fanni qulay va oson o‘zlashtirishlariga yordam beradi, o‘z ustida ishlashlari uchun sharoit yaratadi.

O‘quv qo‘llanmada har bir ma‘ruza mashg‘uloti uchun ma‘ruza matnlari, adabiyotlar, nazorat savollari, grafikli organayzerlar, amaliy mashg‘ulotlarga topshiriqlar, mashqlar, mustahkamlash uchun savollar, mustaqil ta‘lim topshiriqlarini bajarish yuzasidan uslubiy ko‘rsatmalar berilgan. O‘quv qo‘llanmadan oliy ta‘lim muassasalarining talabalari, o‘qituvchilari “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fanidan o‘quv mashg‘ulotlarida metodik qo‘llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

N. X. Raimnazarova-filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Sh.A. Bazarov-O‘zbek tili va adabiyoti kaferdasi o‘qituvchisi

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025 yil 21-avgustdagi 316 -sonli qarori asosida nashrga tavsiya etilgan. № 686937.

ISBN: 978-9910-594-00-7

© Shukurova B. B.

©“Termiz publishing center” MCHJ nashriyoti, 2025-y

Kirish

Qurilish sohasi jadal rivojlanayotgan sohalardan biri bo'lib, unda samarali muloqot nafaqat mahorat, balki zaruratdir. Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari, xususan, arxitektura va qurilish yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun o'zbek tilini mukammal bilish juda muhim. Ushbu o'quv qo'llanma, O'zbek tilining sohada qo'llanishi, aynan 700000 - Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari hamda 730000 - Arxitektura va qurilish ta'lim yo'nalishlari, xususan, 60730700 - Qurilish materiallari, buyumlari va konstruktsiyalarini ishlab chiqarish dasturida o'qiyotgan talabalar uchun mo'ljallangan. Til professional muloqotda asosiy o'rin tutadi, ayniqsa, qurilish kabi texnik sohada. Murakkab texnik tushunchalarni tushunish, chizmalar va texnik hujjatlarni talqin qilish, turli mutaxassislikdagi jamoalar bilan hamkorlik qilish uchun til muhim ahamiyatga ega. Qurilishda aniqlik va xavfsizlik juda muhim bo'lganligi sababli, o'zbek tilida aniq va ravon muloqot qila olish muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik o'rtasidagi farqni belgilaydi. Ushbu ta'lim yo'nalishlarida o'qiyotgan talabalar ikki tomonlama qiyinchilikka duch kelishadi: chuqur texnik bilimlarni o'zlashtirish va bu bilimlarni real hayotda qo'llash uchun zarur til ko'nikmalarini rivojlantirish.

Ushbu qo'llanma talabalarga o'quv va professional faoliyatlarida muvaffaqiyat qozonishlari uchun zarur bo'lgan til vositalarini taqdim etish orqali yordam berishni maqsad qilgan. Qo'llanma davomida talabalar qurilish sohasida keng qo'llaniladigan lug'at, texnik atamalar va iboralarning to'liq to'plamini topadilar. Bundan tashqari, qo'llanmada hisobot yozish, taqdimot qilish va yig'ilishlarda qatnashish kabi amaliy muloqot strategiyalari, barchasi sohaning o'ziga xos ehtiyojlariga moslashtirilgan holda taqdim etilgan.

Ushbu qo'llanmadan foydalanish orqali talabalar nafaqat til bilish darajasini oshiradilar, balki tanlagan kasblarida samarali muloqot qilish uchun ishonchni ham orttiradilar. Biz barcha talabalarni qurilish sohasida keyingi avlod yetakchilari bo'lishga tayyorlanayotganlarida ushbu manbadan to'liq foydalanishga chorlaymiz.



1-MAVZU. “O‘ZBEK TILINING SOHADA QO‘LLANISHI” FANINI O‘QITISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

✧ Reja:

1. Tilning boshqa fanlar bilan aloqasi.
2. Til va tafakkur.
3. Til va ma'naviyat.
4. O'zbek tili va davlat qonunlari.

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonova M, Fattaxova , Xalmuxammedova U, Inogamova N, Egamberdiyeva N. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2018.
2. Qo‘ng‘urov R, Begmatov E, Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubi. Darslik. – T: “Barkamol fayz media”, 1992. – 424 bet;
3. Muhiddinova X, Salisheva Z, Po‘latova X. O‘zbek tili (oliy ta’lim muassasalari rus guruhlar uchun darslik). – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 288
4. Aminov M, Madvaliyev A, Mahkamov N, Mahmudov N. Ish yuritish (amaliy qo‘llanma). – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.– 456b.

📖 **Mavzuning maqsadi:** O‘zbek tilining turli sohalarda qo‘llanilishining nazariy va amaliy asoslarini o‘rganish, uning boshqa fanlar bilan aloqasini tahlil qilish, tafakkur va ma'naviyat bilan bog'liqligini tushuntirish, shuningdek, davlat qonunlarida o‘zbek tilining rasmiy maqomi va qo‘llanilishi haqida bilim berish.

🔑 **Tayanch iboralar:** o‘zbek tilining fanlararo aloqasi, til va tafakkur evolyutsiyasi, lingvistik va falsafiy yondashuvlar, davlat tili maqomi va qonuniy asoslar, til siyosati va ta’lim tizimi, til madaniyati va kommunikatsiya

📝 **Mavzuning umumiy metodi:** Dialogik yondashuv, Muammoli ta’lim, Aqliy hujum metodi, Venn diagrammasi, T-sxemasi.

 **Mavzuning dolzarbligi:** O‘zbek tilining sohaga yo‘naltirilgan o‘qitilishi jamiyatning ilmiy, iqtisodiy va huquqiy sohalarida samarali muloqot va integratsiyani ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Til va tafakkurning o‘zaro bog‘liqligi, davlat qonunlari bilan mustahkamlangan huquqiy maqomi va ma’naviyat bilan uyg‘unligi ushbu mavzuni o‘rganish zaruriyatini belgilaydi.



Tilning boshqa fanlar bilan aloqasi.

Til – millatning asosiy belgilaridan, davlat mustaqilligining asosiy ramzlaridan biri. Til mavjud ekan, millat mangu yashaydi; tilning tirikligi, aytish mumkinki, millatning, xalqning mavjudligidir. Demakki, o‘zbek tilining tirikligi – o‘zbek millatining mavjudligi, davlat tili esa o‘zbek davlatchiligining borligidan dalolatdir.

O‘zbek tili dunyoning eng qadimiy va boy tillaridan biri hisoblanadi. Bu tilning keng imkoniyatlari qadimgi toshbitiklarda, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarlari, Ahmad Yassaviy hikmatlari, Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy”, “Xamsa”, Boburning “Boburnoma” asarlarida, Boborahim Mashrab, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira kabi mumtoz shoirlarimiz va XX asrdagi adiblarimiz ijodida jilolanib turibdi.

Til – boy tariximiz, hayotbaxsh qadriyatlarimiz, din-u diyonatimiz, xalqimizga xos dunyoqarashni ko‘rsatuvchi ko‘zgu, ajdodlar merosini avlodlarga yetkazuvchi vositadir. Shuning uchun ham o‘z tilini yo‘qotgan millat o‘zligidan mahrum bo‘ladi, ma’naviy inqirozga uchraydi. Mana shunday holat sobiq SSSR davrida ona tilimiz – o‘zbek tili hayotida sodir bo‘ldi. Bu davrda O‘zbekistonda o‘zbek tilining qo‘llanish doirasi juda torayib ketdi, to‘g‘rirog‘i, u taraqqiy etmay, turg‘unlik davrini boshdan kechirdi. O‘zbekistonda o‘zbek tili o‘gay bola bo‘lib qoldi. Ona tilida ariza yozish, majlis olib borish, rasmiy idora vakillari bilan muomala qilish qariyb unutila boshlangan edi. Sevimli adibimiz Erkin Vohidov “Davlat tili haqida”gi qonun muhokamasi jarayonida matbuotda achchiq bo‘lsa-da, quyidagilarni chin dildan, kuyunib ochiq-oydin aytdilar: “Hozirda (80-yillarning oxiri — ta’kid bizniki: S.U) vaziyat shundayki, O‘zbekistonda

o'zbek tilini bilmagan odam bemalol hayot kechirishi mumkin. Uni o'rganishga ehtiyoj yo'q. Lekin rus tilini bilmagan odamga hamma eshiklar berk. Nuroniy onaxon hokim tilni bilmagani uchun nafaqa masalasida ijrokom xodimi bilan muomala qilolmaydi. Uyiga o't tushgan o'zbek o't o'chiruvchiga mahallasi qayerdaligini tushuntiro olmaydi. "Tez yordam"ga qo'ng'iroq qilib, bolasining dardini anglatib gapiro olmaydi". Ha, o'zbek tili dunyoning eng boy tillaridan biri bo'lsa-da, lekin totalitar tuzum davrida baxtsiz bir tilga aylanib ulgurgan edi. Bu holat millatimiz fidoyilarini, ziyoli ahlini, millatparvar xalqimizni qattiq tashvishga soldi.

O'zbekistonda davlat tilini belgilash munosabati bilan tuzilgan maxsus komissiyaga minglab xatlar oqib kela boshladi. Keng jamoatchilik matbuot sahifalarida, yig'ilish va ommaviy axborot vositalarida O'zbekistonda faqat o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishini yoqlab chiqdilar, o'z fikrlarini isbotlash uchun dalillar keltirdilar. Ikki tillilikni yoqlab yuborilgan xatlar ham anchagina bo'ldi, lekin u butun o'zbek xalqining talabi bo'la olmadi.

Til to'g'risidagi qonunni ishlab chiqishga davlat hokimiyati organlari jamoatchilik ishtirokida qat'iy bel bog'ladi. Til to'g'risidagi qonun loyihasi ishlab chiqilib, u ikki marta xalq muhokamasiga qo'yildi. "Davlat tili haqida"gi qonun loyihasi shunday qizg'in va bahsli muhokama etildiki, hech bir qonun loyihasi bunchalik qizg'in va faol muhokama etilmagan edi. Qonun loyihasi bo'yicha ishchi komissiyaga 4,5 mingdan ortiq xatlar tushib, ularga 151 ming kishi imzo chekkan edi. Qonun loyihasi yuzasidan 225 ming taklif ko'rib chiqilib, ko'plari inobatga olindi. Va nihoyat, 1989-yilning 21-oktabrida O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilindi. Xalq sobiq mustabid tuzum hukmronligi davrida, "qizil imperiya" sharoitida, "markaz"ning tazyiqi va ta'siri kuchli bo'lgan bir paytda o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi misli ko'rilmagan jasorat edi. Bu o'sha davrlarda mustaqillik sari qo'yilgan dadil qadamlardan bo'lib, bu borada xalqimizning uzoq yillar orzu qilgan umidlari samarasi bo'ldi. O'zbek tili 120 yillik siyosiy bosqindan ozod bo'lib, o'zining rivojlanish yo'liga tushib oldi.

"Davlat tili haqida"gi qonun o'zbek tilining taraqqiysi, erkin rivojlanishi, davlat va jamoat organlarida asosiy ish yuritish tiliga aylanishi

va tilimiz muhofazasi yo'lida qilingan huquqiy harakat bo'lib, tilimizni davlat tili maqomi bilan mustahkamladi. Bu qonun o'zbek xalqi milliy ongining taraqqiysida, mamlakat mustaqilligi mustahkamlanishida, madaniy merosimizning tiklanishida muhim rol o'ynadi. Mustaqil O'zbekistonning Konstitutsiyasida va Davlat tili to'g'risidagi qonunning yangi tahririda til masalasi bugungi kun talabi darajasida o'z aksini topdi. Konstitutsiyamizning 4-moddasida Davlat tili to'g'risidagi qoidalar: "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi", degan zalvorli jumalarda mustahkamlandi. Mazkur qoida 1995-yil 25-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonunining yangi tahririda mufassal yoritib berildi. Yangi tahrirdagi bu qonun Davlat tilining qo'llanish doirasi, huquq-majburiyatlarini ifoda etdi. Fuqarolarning davlat hokimiyati va boshqaruv idoralariga, jamoat birlashmalariga va mulkchilikning shaklidan qat'iy nazar, korxona hamda muassasalarning rahbarlariga davlat tilida arizalar, takliflar va shikoyatlar bilan murojaat qilish hamda ularga javoblarni o'zbek tilida olish huquqi ta'minlandi (14-modda). Mamlakatimizning barcha boshqaruv organlarida, korxona, muassasa va tashkilotlarda ish yuritish o'zbek tilida olib borilishi mustahkamlandi (9-modda). Mazkur qonunning 24-moddasida "O'zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning o'zaro muomala, tarbiya va ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar", — deb belgilanishi qonunning hayotiyligini ta'minlaydi.

Fuqarolarga davlat tilini o'qitish bepul amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda ham umumiy, hunar-texnika, o'rta maxsus va oliy ma'lumot olishni ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinib, e'lon

qilinmoqda. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e'lon qilinyapti.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari davlat tilida olib borilmoqda. Muayyan millat vakillari zich yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari Respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida ham qabul qilinishi tartibga solindi. O'zbekistonda ishlovchi barcha mansabdor shaxslar, rahbar xodimlar o'z xizmat vazifalarini bajarish uchun davlat tilini yetarli darajada bilishlari shart. O'zbekiston Respublikasida notarial harakatlar, fuqarolik holati bilan bog'liq hujjatlarning davlat tilida yoki zaruriyatga qarab boshqa tilda tarjimasi berilishi nazarda tutilganligi kishini quvontiradi (12, 13-moddalar).

Xullas, o'zbek tilining rivoji va ravnaqi uchun davlatimiz tomonidan barcha imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratilgan. O'zbekiston Respublikasida "Davlat tili haqida"gi qonunning barcha moddalari to'liq amalga kiritildi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov haqli ravishda ta'kidlaganlaridek "*O'zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog'i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasi qatorida turadigan, qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollardan biriga aylandi*". Shunday ekan, mamlakatimizda yashovchi har bir fuqaro, o'z ona tilisidan tashqari, muqaddas qadriyat hisoblangan davlat tilini ham zarur darajada bilishi shart.

Milliy istiqlol hayotimizning hech bir istisnosiz barcha sohalarida bo'lgani kabi ona tilimiz rivoji uchun ham keng yo'l ochdi. Mustaqil davlatimizning Asosiy qonuni - Konstitutsiyamizda, "Davlat tili haqida"gi qonun va boshqa rasmiy hujjatlarda ona tilimiz bo'lmish o'zbek tilining huquqiy maqomi va istiqboli aniq ko'rsatib berilgan. Necha asrlar mobaynida goh yuksak rivoj-u shuhrat topgan, gohida nopisandlik, turtkilash va kamsitishlardan ko'ngli singan, ammo yorug' kunlarga yetmoq umidi so'nmagan tilimiz chinakam munavvar kunlarga salomat yetib keldi.

Yaqin o'tmishimizda milliy tafakkurni, milliy o'zlikni izdan chiqarmoqqa, shu yo'l bilan o'z hukmronligining umrboqiyiligini

ta'minlamoqqa xomtama bo'lgan mustabid tuzum tilimizni izdan chiqarishga qattiq bel bog'lagandi. Bu tuzum tilimizga "yagona umumxalq tili"ning unsurlarini o'rinli-o'rinsiz tiqishtirishdan tashqari, ayni shu "yagona umumxalq tili"ni ikkinchi ona tilim deydiganlarga "xo'rozqand"lar ulashdi, shu yo'l bilan o'z ona tilini bilmaydiganlar safini kengaytirishga urindi. Prezidentimiz Oliy Majlisning birinchi chaqiriq XIV sessiyasidaga (1999- yil 14 -aprel) nutqida mustabid Sho'rolar tuzumining illatlari haqida gapirar ekan, xususan, shunday degan edi: "O'z ona tilini, milliy an'ana va madaniyatini bilmaslik ko'plab odamlarning shaxsiy fojiasiga aylanib qolgan edi." Bu, o'z navbatida, inson ma'naviy dunyosining qashshoqlashuviga, milliy qadriyatlarga bepisandlik bilan qarashdan iborat nomaqbul aqidaning "bolalashi"ga olib kelganligini anglamaslik mumkin emas. Bugun mustaqillik sharofati bilan mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb e'lon qilinib, bu borada ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Ta'kidlash joizki, milliy ma'naviyatni ona tilidan ayri holda tasavvur etib ham bo'lmaydi. Chunki xalqning ruhiyati, tabiati, butun borlig'i uning tilida aks etadi. Shuning uchun ham insonning ma'naviy kamolotida ona tilining o'rni beqiyosdir.

O'zbek tili davlat tili sifatida ijtimoiy turmushimizning barcha sohalarida qonuniy ravishda qo'llanmoqda, milliy ma'naviyatimizning betakror ko'zgusi sifatida, xalqimizning borligi va birligi belgisi sifatida o'rganilmoqda, o'rgatilmoqda. Ana shunday sharoitda, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek "o'z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursisida o'tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin".

Kishi o'z fikrini aniq va ravon ifodalashi uchun tildagi uslublardan ham xabardor bo'lishi, kundalik so'zlashuv tilidan tashqari, rasmiy - ish yuritish tilini ham bilishi kerak. Chunki oddiy ishchimi, dehqonmi, tadbirkormi yoki ziyolimi, baribir, hech bo'lmaganda, ariza, tilxat yoki ishonchnoma yozishiga to'g'ri keladi. U yoki bu darajadagi korxona, muassasa yoki tashkilot rahbarining faoliyatini esa ish yuritish qog'ozlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham "Davlat tili

haqida"gi qonunimizning o‘zak moddolari (8-14-moddalar)da ish yuritishning tilga aloqador jihatlarini qoidalashtirilgan.

O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi kursining maqsadi: talabalarning o‘zbek tilida soha bo‘yicha nutqiy kompetentligini oshirish; mutaxassislikka oid og‘zaki va yozma nutqida sohaviy terminlarni samarali qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish, talabalarga soha bo‘yicha egallagan bilimlarni yozma va og‘zaki ravishda o‘zbek tilida ifoda etish malakalarini takomillashtirish; sohada qo‘llanadigan terminlar, asosiy tushunchalar va soha doirasida qo‘llaniladigan hujjatlarning rasmiylashtirilishini ta‘minlash, nutq uslublari, xususan, sohada ilmiy va rasmiy uslub imkoniyatlaridan foydalanish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qilish. Talabalarning o‘zbek tilidan yozma nutqini takomillashtirish va savodxonlikni oshirish.

O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi kursini o‘qitishda talabalarning tilshunoslik asoslari, hozirgi o‘zbek adabiy tili, falsafa, mantiq, uslubshunoslik, nutq madaniyati kabi fanlardan egallagan bilimlariga tayaniladi.

O‘zbek tili davlat tili sifatida ijtimoiy turmushimizning barcha sohalarida qonuniy ravishda qo‘llanilmoda, milliy ma‘naviyatimizning betakror ko‘zgusi sifatida, xalqimizning borligi va birligi belgisi sifatida o‘rganilmoqda, o‘rgatilmoqda. Kishi o‘z fikrini aniq va ravon ifodalashi uchun tildagi uslublardan ham xabardor bo‘lishi, kundalik so‘zlashuv tilidan tashqari, rasmiy – ish yuritish tilini ham bilishi kerak. «Davlat tili haqida»gi qonunning 8-14-,19-20-moddalarida ish yuritishning tilga aloqador jihatlarini qoidalashtirilgan. Ish yuritishning bevosita asosini hujjatlar tashkil qiladi. Mazmunan, hajman va shaklan xilma-xil bo‘lgan hujjatlar turli mehnat jamoalarining, umuman, kishilik jamiyatining uzluksiz faoliyatini tartibga solib turadi. Shu jihatdan mazkur kursning ahamiyati katta va uni o‘rganish bugungi kundagi dolzarb masalalardandir.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat til haqida”gi Qonuni 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan shu davrdan boshlab har yili bu kunni til bayrami sifatida nishonlaymiz.

Mustaqillik sharofati bilan o‘zbek tili - davlat tiliga e‘tibor kuchaydi, ona tilimizning ijtimoiy mavqeyi kengaydi. O‘zbek tilining

taraqqiyoti va istiqboli to‘grisida g‘amxo‘rlik qilinib, bir qancha qarorlar qabul qilindi.

1993 yil 2-sentabrda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida” Qonun qabul qilinishi Vatanimizning ma’naviy-madaniy hayotida jahonshumul ahamiyat kasb etdi. Yangi alifboga kiritilgan o‘zgarishlar asosida “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidolari” ishlab chiqildi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1995- yil 24-avgustda tasdiqlandi.

Davr taqozosi bilan “Davlat tili haqida”gi qonunga ham ayrim o‘zgartirishlar kiritildi va 1995- yilning 21-dekabrida O‘zbekiston Respublikasining yangi taxririda “Davlat tili haqida ”gi qonuni e’lon qilindi. Bu qonun 24-moddan iborat bo‘lib, uning birinchi moddasida asosiy qonunimiz bo‘lgan Konstitutsyamizning 4-moddasida yozilganidek “O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili o‘zbek tilidir”, deb yozib qo‘yilgan.

O‘zbek tilida to‘g‘ri, ifodali so‘zlash va yozish, ona tilimizning sofliigi va boyligi to‘g‘risida tinmay g‘amxo‘rlik qilish, uning iste’mol doirasini kengaytirib borish davlatimiz fuqarolarining burchi sanaladi. Xususan, har bir yosh o‘quvchi o‘z ona tilidagi so‘z boyligini oshirish hamda til imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanishga doimo harakat qilishi lozim. So‘z fikr qurolidir, kishi qanchalik so‘z bilsa, uning fikrlash doirasi, dunyoqarashi ham shunchalik keng bo‘ladi.

1-ilova

O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi kursining vazifasi – mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida davlat tilining imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishishni ta’minlash; egallanayotgan soha bo‘yicha nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalarni o‘zbek tilining yozma va og‘zaki nutqi me’yor va qoidolari asosida mukammal o‘zlashtirishga va ularga nisbatan shaxsiy munosabatni o‘zbek tili adabiy normalariga muvofiq holda ifodalashga erishishni ta’minlashdan iborat.

O'zbek tilining sohada qo'llanishi kursini o'qitishda talabalarning tilshunoslik asoslari, hozirgi o'zbek adabiy tili, falsafa, mantiq, uslubshunoslik, nutq madaniyati kabi fanlardan egallagan bilimlariga tayaniladi.

tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib-o'rganishda yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o'qib chiqib, "V; +; -; ?" belgilari orqali o'z fikrini ifodalaydi.

Matnni belgilash tizimi

(V) – men bilgan narsani tasdiqlayman.

(+) – yangi ma'lumot.

(-) – men bilgan narsaga zid.

(?) – meni o'ylantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

Nazorat savollari:

1. Kursning maqsadi nima?
2. O'zbek tilining sohada qo'llanishi kursining vazifalari nimalardan iborat?
3. Kursning boshqa fanlar bilan aloqasi.
4. Kursning qanday ahamiyati bor?

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonova M, Fattaxova , Xalmuxammedova U, Inogamova N, Egamberdiyeva N. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). – Toshkent: Mumtoz so'z, 2018.

2. Qo'ng'urov R, Begmatov E, Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat. Darslik. – T: "Barkamol fayz media", 1992. – 424 bet;

3. Muhiddinova X, Salisheva Z, Po'latova X. O'zbek tili (oliy ta'lim muassasalari rus guruhlar uchun darslik). – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 288

Mustaqil ta'lim:

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonunning hayotiy ahamiyati

2-



MAVZU. TIL VA YOZUV MASALALARI.

Reja:

- 1.Yozuv haqida umumiy tushuncha.
2. O‘zbek yozuvlari tarixi.
- 3.O‘zbek yozuvlarining rivojlanish bosqichlari.
4. Grafika. Orfografiya.

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonova M, Fattaxova , Xalmuxammedova U, Inogamova N, Egamberdiyeva N. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2018.
2. Qo‘ng‘urov R, Begmatov E, Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubi. Darslik. – T: “Barkamol fayz media”, 1992. – 424 bet;
3. Muhiddinova X, Salisheva Z, Po‘latova X. O‘zbek tili (oliy ta’lim muassasalari rus guruhlar uchun darslik). – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 288
4. Aminov M, Madvaliyev A, Mahkamov N, Mahmudov N. Ish yuritish (amaliy qo‘llanma). – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.– 456b.

 **Mavzuning maqsadi:** Yozuvning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini ochib berish, o‘zbek yozuvining tarixiy shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish, grafik tizim hamda orfografiyaning ilmiy asoslarini o‘rganish.



Tayanch iboralar:



Yozuv turlari va ularning evolyutsiyasi



Turkiy yozuv yodgorliklari



O‘zbek yozuvining arab, lotin va kirill alifbolari



Grafik tizim va harf tahlili



Orfografiya qoidalari va amaliy qo‘llanilishi



Mavzuning umumiy metodi:



Tarixiy tahlil



Dialogik yondashuv



Muammoli ta’lim

📌 Venn diagrammasi

📌 T-sxemasi

📖 **Mavzuning dolzarbligi:** Tilning yozma shakli inson tafakkurining asosiy ifodalaridan biri bo‘lib, yozuv tarixi va orfografiya qoidalarini o‘rganish ilmiy, madaniy va ijtimoiy taraqqiyot uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek yozuvining turli davrlardagi shakllari va ularning taraqqiyoti bugungi kun til siyosati va ta’lim jarayonlari bilan bevosita bog‘liqdir.



Yozuv haqida umumiy tushuncha.

Arab yozuvlari miloddan o‘rtacha ming yil muqaddam ma’lum bo‘lgan. Miloddan avvalgi birinchi ming yillik boshidan to milodimizning VII asrigacha, ya’ni arablar istilosigacha xalqimiz runik yozuvidan keng foydalangan. Arab istilosigacha va undan keyin ham ancha vaqtgacha O‘rxun-Enasoy, Avesto, Sug‘d, Qadimgi Xorazm, Qadimiy Uyg‘ur yozuvlaridan foydalanilgan.

Jumladan, Avesto yozuvida zardushtiylik dinining 27 jilddan iborat muqaddas kitobi, o‘z davrining haqiqiy ensiklopediyasi hisoblangan “Avesto” bitilgan. 2001-yilda YUNESKO qarori bilan butun dunyo bo‘ylab “Avesto”ning 2700 yilligi nishonlandi. Yuqorida sanab o‘tilgan har bir yozuvda ko‘plab badiiy va falsafiy mazmundagi asarlar yaratilgan bo‘lib, qadimgi rivojlangan davlatlar madaniyati o‘z ifodasini topgan.

Afsuski, bu asarlar va ular saqlangan kutubxonalar arab istilochilari tomonidan shafqatsiz yo‘q qilingan. Shunga qaramay, xalq ongida va amaliy hayotida arab istilosigacha mavjud bo‘lgan yozuvlardan foydalanish odati qisman XVI asrgacha saqlangan.

Xalqimizning arab istilosigacha bo‘lgan yozuvlari tarixini o‘rganish, ularning alifbo tizimi bilan ommani tanishtirish, shu yozuvlarda yaratilgan asarlarni topish va nashr etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda millatimiz dunyoqarashini kengaytirish, tariximizning barcha ma’naviy boyliklaridan xabardor qilish va mustaqillikni mustahkamlashga xizmat qiladi.



O‘zbek tili, o‘zbek alifbosi va imlosi

O‘zbek tili O‘zbekiston Respublikasining Davlat tilidir. Vatanimizdagi 37 millionga yaqin xalq o‘zbek tilini ona tilim deydi. Bundan tashqari, o‘zbek tili Saudiya Arabistonida, Turkiyada, AQShda, Afg‘oniston va Qoshg‘arda hamda bir qancha boshqa davlatlarda yashovchi o‘zbeklarning ham ona tilidir.

O‘zbek (turkiy) tili qadimiy tillardandir. Dastlabki yozma yodnomalar VI-VII asrlarga oid O‘rxun-Enasoy yozuvlarida uchraydi.

X-XI asrlardan boshlab o‘zbek (turkiy) tilida yirik asarlar yaratila boshlandi. Jumladan, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibbatul haqoyiq” asarlari.

Ahmad Yassaviy, Rabg‘uziy, Lutfiy, Sakkokiy, Xorazmiylar turk (o‘zbek) tilining rivojlanishida katta xizmat qildilar. Turk tilining rivojida Alisher Navoiyning o‘rni beqiyosdir. Alisher Navoiy o‘zbek tilini ham nazariy, ham amaliy jihatdan barqaror etdi.

1920-yillardan boshlab maktab-maorif sohasida madaniyat va adabiyotda o‘zgarishlar ro‘y berdi. Adabiyotimizga yangi, yorqin iste‘dodlar kirib keldi. O‘zbek tilining lug‘at tarkibi boyidi, grammatik qurilishi aniqlasha bordi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1989-yil 21-oktabrdagi sessiyasi o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berdi, O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili deb e‘lon qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatida qurultoy, sessiya, konferensiya, majlis va kengashlar Respublika davlat tilida olib boriladi va aynan tarjimasi ta‘minlanadi. Bu o‘zbek xalqining siyosiy va madaniy hayotidagi eng yirik va muhim voqealardan biri bo‘ldi.

1992-yil 2-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n uchinchi sessiyasida “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy qilish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi.

Yozuv har bir xalqning ma‘naviy boyligi, yuksak madaniyatga erishganligining o‘ziga xos ko‘rinishi sanaladi.

Soʻzlarning yozilishidagi barqarorlik, qatʼiylilik millatni yakdillikka, maʼnaviy jipslikka yetaklaydi. Shu maʼnoda, har bir xalq oʻz tilining imlo qoidalarini ishlab chiqadi, uni amaliyotga tatbiq etadi. Kirill yozuviga asoslangan imlo qoidalarimiz 1956-yilda tasdiqlangan edi. Davr oʻtishi bilan u eskirdi, amaliy ehtiyojlarimizga javob bermay qoldi. Shu bois, 80-yillarning boshlaridayoq uni yangilashga urinishlar boshlandi.

Oʻzbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, mustaqillikning qoʻlga kiritilishi yangi imlo qoidalarini ishlab chiqish uchun qulay imkoniyat yaratdi. Lotin yozuviga asoslangan yangi alifboning joriy etilishi esa bu jarayonni yanada tezlashtirib yubordi. Shu maqsadda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995-yilning 24-avgustida 339-sonli «Oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida» qaror qabul qildi. U 82 banddan iborat boʻlib, quyidagi boʻlimlarni oʻz ichiga oladi:

1. Harflar imlosi:

a) unlilar imlosi (1-7-bandlar);

b) undoshlar imlosi (8-32-bandlar).

2. Asos va qoʻshimchalar imlosi (33-37-bandlar).

3. Qoʻshib yozish (38-50-bandlar).

4. Chiziqcha bilan yozish (51-56-bandlar).

5. Ajratib yozish (57-65-bandlar).

6. Bosh harflar imlosi (66-74-bandlar).

7. Koʻchirish qoidolari (75-82-bandlar).

Nutqning xarakteriga koʻra, adabiy talaffuzni 2 guruhga ajratish mumkin: toʻliq talaffuz; qisqargan talaffuz; maʼruzachilar, aktyorlar, diktorlar nutqi toʻliq talaffuzni aks ettiradi, chunki bunda har bir soʻz, uning morfemalari adabiy til qoidasiga mos ravishda toʻla, aniq, dona- dona talaffuz qilinadi.

Soʻzlovchi oʻz nutqiga beparvo qarashi orqasida, oʻz shevasi taʼsirida ayrim fonemalar turli oʻzgarishlarga duch keladi, soʻzning baʼzi birliklari qisqaradi. Masalan, olib keldi — obkeldi; olib bordi — obbordi. Bu qisqargan talaffuzdir.

Oʻzbek adabiy tilining asosiy orfoepik qoidalari unli va undosh fonemalarning talaffuzi, morfologik birliklarning aytilishi, soʻz birikmalarining talaffuz qilinishi kabilarni oʻz ichiga oladi. Shunga koʻra,

umumiy orfoepik me'yorlar belgilanadi. Orfoepik me'yorlar, odatda, transkripsion belgilar vositasi bilan ifodalanadi.

Orfoepiya orfografiya bilan zich bog'langan. Biroq so'zning yoki so'z shakllarining jonli talaffuzi hamma vaqt ham ularning yozuvdagi ifodasiga teng bo'lavermaydi. Jumladan, yozuvda bor ba'zi tovushlar talaffuzda sezilmaydi: biroq, bilan, tuhmachchi, adabiyotchi kabi; yozuvda berilgan tovushlar talaffuzda tushib qoladi: badbax, ayolman, abstrak, Samarqan kabi; yozuvda ifodalangan tovush talaffuzda boshqasi bilan almashtiriladi: obod-obot, kitob-kitop, peshvoz-peshvos kabi. Talaffuzdagi ana shu murakkab tomonlarni hisobga olgan holda yagona orfoepik qoidalar yaratish lozim bo'ladi.

Eslab qoling!

O'zbek tilida gapning odatdagi tartibida avval ega, gap oxirida kesim, ular bilan bog'langan ikkinchi darajali bo'laklar ularning orasida keladi.

Bu turfa olam

Alisher Navoiy o'z davrida tilshunoslik fanining rivojlanishida juda katta xizmat qildi.

Navoiyning fikricha, til inson ruhiy faoliyatining natijasidir. Har bir jonivor ovoz chiqara oladi, lekin inson nutqining asosiy maqsadi - biror ma'noni ifodalashdan iborat. Inson aql-u zakovatigina so'z orqali muloqot qilishga qodirdir.

Navoiy xorijiy tilni bilish inson uchun juda foydali ekanligini tashviqot qilgan, o'zi fors va arab tillarini mukammal bilgan. Xalqparvar bobomiz turkiy tilning jamiyatdagi mavqeyini tiklash, mamlakatda tillar teng huquqligini amalga oshirish uchun g'amxo'rlik qildi.

Eslatma. Ma'lumki, o'zbek va tojik xalqlari asrlar davomida bir hududda yashab, bir xil tarixiy sharoitda turmush kechirganlar. Buning natijasida tojik va o'zbek tillari bir-birini boyitgan: o'zbek tili lug'atiga ***barg, korxona, chamadon*** kabi ko'pgina tojikcha so'zlar o'tgan; ***qaymoq, qayroq, qanor, yurt*** kabi ko'pgina o'zbekcha so'zlar tojik tili lug'atiga qo'shilgan. Shunday bo'lishiga qaramay, o'zbek va tojik tillarining fonetikasi va grammatik qurilishi bir-biriga o'xshamaydi. Buning sababi bu ikki tilning ikki xil til oilasiga mansubligidir; o'zbek tili oltoy tillar

oilasining turkiy turkumiga, tojik tili esa hind-yevropa tillari oilasining eron turkumiga kiradi.

1-Topshiriq

“Har bir so‘z - sehr” o‘yini. Berilgan so‘zlardan so‘z birikmalari tuzing, shu birikmalarni hamda ularning sinonimlarini qo‘llab matn tuzing (ustoz, o‘qituvchi, muallim; vatan, yurt, makon, diyor...).

Masalan:

Ota	Ona
O - ila boshlig'i	O - ila bekasi
T - arbiyachi	N - amuna ko'rsatuvchi
A - qlli maslahatchi	A - ziz inson
Aka	Uka
A - dolatpesha, adolatli	U - mid chirog'i
K - o'makchi do'st	K - elajak tayanchi
A - ql ko'zgusi	A - hillik namunasi
Do'st	Yor
D - ardkash birodar	Yo' - ldosh,
O' - rnak ko'rsatuvchi	O - qibatli do'st
S - irdosh inson	R - ahmdil inson
T - ayanch bo'luvchi	
Ustoz	Muallim
U -	M -
S -	U -
T -	A -
O -	L -
Z -	L -
	I -
	M -
Vatan	Yurt
V -	Y -
A -	U -
T -	R -
A -	T -
N -	

2-topshiriq. Quyidagi hikoyani o‘qing. O‘z fikringizni bayon qiling. Ibrat oling.

Qiyomatli qarz

O'tgan zamonlarda Hasan degan bir kishi bo'lgan ekan. Har kuni daladan tergan o'tinini sotib, uning puliga to'qqiz dona non sotib olar ekan. Bir kuni novvoyning shogirdlari: "Shu kishi kuniga to'qqiz dona non sotib oladi, bitta yoki ikkita ortiq ham, kam ham emas, sababini bilib bersangiz?" - deyishibdi. Novvoy rozi bo'lib, Hasandan nima uchun har kuni to'qqiz dona non olishining sababini so'rabdi. Hasan javob bermabdi. U ertasiga kelganda novvoy: "Hamma nonlarni talab ketishdi. Senga zo'rg'a beshta non olib qoldim", - debdi. Hasan: "Bular menga yetmaydi", - deb nonni olmabdi.

Hasan indiniga kelganda novvoy unga o'n bitta non beribdi. Shunda Hasan: "Bular ortiq, isrof bo'ladi", - deb nondan ikkitasini qaytaribdi. Hasan yanagi gal kelganda esa novvoy: "Nonlarni sotib tugatdim, senga olib qolmadim", - debdi. Keyin: "Agar sen har safar nima uchun to'qqizta non olishing sababini aytib bersang, shogirdlarimdan bittadan olib, o'zimga olib qo'yganimdan uchtasini qo'shib senga roppa-rosa to'qqizta non beraman", - debdi. Hasan shunda novvoyga qarab: "Olgan nonlarimning ikkitasini qarzimga beraman, beshtasini esa qarzga beraman. Qolganini o'zimiz, ya'ni er-xotin yeymiz", - debdi. Novvoy bilan shogirdlari bu gapning ma'nosini chaqolmay, rosa bosh qotirishibdi. Shunda Hasan: "Ikkisini qarzimga berishimning boisi shuki, ota-onam menga bolaligimdan non-tuz berib katta qilishgan. Ulardan qarzdorman. Har kuni ularga ikkitadan non berib, qarzimni uzaman. O'zimning esa beshta bolam bor, ularga beshta non ulashaman, vaqti kelib keksayganimda ular ham ishlab, mana shu qarzlarini uzadilar. Qolgan gaplar endi o'zlaringga ayon", - debdi.


Hasanning dono so'ziga qoyil qolgan novvoy har kuni to'qqiz dona sara nonni unga beradigan bo'libdi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. O'zbeklar yana qaysi davlatlarda yashaydilar?
2. Turkiy tilda ijod qilgan qanday buyuk ijodkorlarni bilasiz?
3. "O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida"gi qonun qachon qabul qilingan?

4. Davlat tili haqidagi qonun nechta moddadan iborat?
5. “Lotin alifbosiga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonun qachon qabul qilindi?
6. O‘zbek tili qanday tillar oilasiga kiradi?
7. Eski o‘zbek adabiy tilining asoschisi kim?
8. Xalqimiz qanday yozuvlardan foydalangan?
9. Qadimiy turkiy yozuv yodgorligi qanday nomlanadi?
10. O‘zbek- kirill alifbosiga qachon va nima sababdan o‘tilgan?

Topshiriq. Xalqimizning yozuvlari matni yuzasidan klaster tuzing va shu asosda so‘zlab bering



Mustaqil ta'lim

Dunyo tillari va unda o‘zbek tilining tutgan o‘rni. Umumxalq tili va adabiy til.

3-MAVZU. O‘ZBEK TILINING LEKSIK QATLAMLARI.



Reja:

1. So‘z – leksikologiyaning o‘rganish obyekti sifatida.
2. So‘zlardagi bir ma’nodlilik va ko‘p ma’nodlilik.
3. Ijtimoiy leksika.
4. Sohaviy leksika.

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonova M, Fattaxova , Xalmuxammedova U, Inogamova N, Egamberdiyeva N. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2018.
2. Qo‘ng‘urov R, Begmatov E, Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubi. Darslik. – T: “Barkamol fayz media”, 1992. – 424 bet;
3. Muhiddinova X, Salisheva Z, Po‘latova X. O‘zbek tili (oliy ta’lim muassasalari rus guruhlar uchun darslik). – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 288
4. Aminov M, Madvaliyev A, Mahkamov N, Mahmudov N. Ish yuritish (amaliy qo‘llanma). – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.– 456b.

✂ **Mavzuning maqsadi:** O‘zbek tilining leksik qatlamlarini tahlil qilish, ularning shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini o‘rganish, til qatlamlarining ijtimoiy va lingvistik xususiyatlarini aniqlash.



Tayanch iboralar:



O‘zbek tilining lug‘aviy tarkibi



Asli o‘zbekcha so‘zlar



Qarindosh tillardan kirib kelgan so‘zlar



Xorijiy so‘zlar va ularning o‘zlashuvi



Terminlar, neologizmlar va arxaizmlar



Mavzuning umumiy metodi:



Tarixiy tahlil



Dialogik yondashuv



Muammoli ta’lim

📌 Venn diagrammasi

📌 T-sxemasi

📖 **Mavzuning dolzarbligi:** O'zbek tilining leksik qatlamlarini o'rganish til taraqqiyotini tushunish, madaniy va tarixiy merosni saqlash hamda zamonaviy til siyosati uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Leksik qatlamlarning o'zaro aloqasi, ularning rivojlanishi va zamonaviy tilga ta'siri lingvistika va ta'lim jarayonlari uchun dolzarb mavzulardan biridir.



So'z – leksikologiyaning o'rganish obyekti sifatida.

Har qanday tilni o'rganayotgan paytingizda, eng avvalo, sizni qurshab turgan narsa va hodisalarning amaliy hayotingiz bilan bog'liq bo'lgan turli xil harakati, holatlari, belgi va xususiyatlarining shu tilda qanday ifodalanishini, nomlanishini bilishdan boshlaymiz.

Ma'lum bir tildagi ana shunday so'zlar yig'indisi shu tilning lug'at tarkibini tashkil qiladi.

Leksika atamasi ikki ma'noda qo'llaniladi:

a) tilning lug'at tarkibi, so'zlar yig'indisi;

b) lug'at tarkibini o'rganuvchi tilshunoslikning alohida bo'limi.

Leksika atamasining ikkinchi ma'nosi uchun leksikologiya atamasi ham qo'llaniladi.

Leksikologiya yunoncha *lexikos* - so'z, so'zga doir va *logos* - ta'limot so'zlarining birikuvidan olingan bo'lib, leksika (so'z) haqidagi ta'limot demakdir. Demak, so'z va uning ma'nolarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limiga leksikologiya (ba'zan leksika) deyiladi.

Nutqimiz so'zlarning qo'shiluvidan hosil bo'ladi. So'zni talaffuz qilganimizda va qulog'imiz bilan eshitganimizda go'yo u faqat tovushlar ketma-ketligidan tashkil topgan butunlikdek tuyuladi. So'zni bunday tasavvur qilish bir yoqlamadir, chunki har qanday tovushlar birikmasi so'zni hosil qilavermaydi. Masalan, *so'*, ***ko's*** singari tovush birikmalarini so'z deb bo'ladimi? Yo'q. So'z bo'lish uchun tovushlar birikmasining o'zigina kifoya qilmaydi. Ma'lum tovush va tovushlar birikmasi ma'no bilan bog'langandagina so'zga aylanadi. Yuqoridagi tovush birikmalarining tartibini o'zgartirsak, ular ma'lum ma'no bilan bog'lanadi. Masalan, *o's*, ***so'k*** kabi.

Demak, soʻzning ikki tomoni: moddiy tomoni (tovush yoki harflar ketma-ketligi) va maʼno tomoni mavjud.

Maʼlum maʼno bilan bogʻlangan va morfologik shakllangan tovush yoki tovushlar birikmasi soʻz sanaladi.

Soʻz ikki xil maʼno bildiradi. Bu ikki xil maʼnoni *opa* soʻzi misolida koʻrib chiqaylik.

Opa soʻzi *aka*, *uka*, *singil* singari soʻzlar bilan qarindoshlik maʼnosi bilan bir guruhga birlashadi. Ayni paytda, bir guruhga mansub boʻlgan yuqoridagi soʻzlar bir-biriga zidlanganda, maʼlum maʼnolari bilan oʻzaro farqlanadi.

Xususan, *opa* soʻzi *oʻgay opaga* zidlanganda, qon-qorindoshlik (oʻgay emaslik) maʼnosini bildirishi bilan; *opa* soʻziga zidlanganda, men bilan bir boʻgʻinga mansublik maʼnosini bildirishi bilan; *aka*, *uka* soʻzlariga zidlanganda, ayol jinsiga mansublik maʼnosi bilan; *singil* soʻziga zidlanganda esa *opaiing* mendan kattalik, singilning esa kichiklik maʼnosiga egaligi bilan farq qiladi.

Opa soʻzining boshqa qarindoshlik bildiruvchi soʻzlar bilan birlashtirib turadigan va ayni paytda, ularni bir-biridan farqlaydigan maʼnolarining jami uning atash maʼnosi yoki leksik maʼnosi deyiladi.

Opa soʻzi yuqoridagi maʼnodan tashqari predmetlik, bosh kelishik, birlik maʼnolariga ham ega. Bu maʼnolar uning grammatik maʼnosi sanaladi. Koʻrinadiki, nutq jarayonida har bir soʻz leksik va grammatik maʼnolar uygʻunligidan tashkil topadi. Odatda, leksik va grammatik maʼnolarning muayyan tovush yoki tovushlar birikmasi bilan barqaror munosabatidan tashkil topgan butunlikka nisbatan **soʻz** atamasi qoʻllaniladi.

Grammatik maʼnosiz, faqat leksik maʼno bildiruvchi til birligi uchun **leksema** atamasi qoʻllaniladi. Bunday vaqtda **soʻz** morfologiya birligi sifatida, **leksema** esa leksikologiya birligi sifatida bir-biridan farqlanadi.

Demak, tahlil jarayonida gap tarkibidan soʻzlarni ajratamiz. Soʻzlar esa leksema va grammatik qoʻshimchalarga boʻlinadi. **Tilning lugʻaviy (leksik) maʼno bildiruvchi birligi leksema sanaladi.** Lugʻatlarda bosh soʻz sifatida leksemalar beriladi.

Nutq jarayonida ikki va undan ortiq ma'noda qo'llaniluvchi so'zlarga ko'p ma'noli so'zlar yoki **polisemiya** deyiladi. Polisemiya yunoncha *poli* - **ko'p**, *semia* - **ma'no** so'zlaridan olingan bo'lib, ko'p ma'noli demakdir. Polisemiya monosemiya (yunoncha *mono* - **bir**, *semia* - **ma'no**)ga zidlanadi.

Ko'p ma'noli so'zlarda ma'no qanchalik ko'p bo'lsa ham, lekin u bir so'z hisoblanaveradi. Shuning uchun ham ko'p ma'noli so'zlarda ma'nolardan biri to'g'ri ma'no (yoki o'z ma'no), qolganlari esa ko'chma ma'no bo'ladi. Ko'chma ma'nolar nutq tarkibida boshqa so'zlar bilan bog'langanda namoyon bo'ladi, nutq tarkibidan ajratilganda esa to'g'ri ma'nosi asosiy ma'no bo'lib qoladi. Masalan, *tosh* so'zi nutq qurshovidan ajratib olinsa, «qattiq jism» ma'nosini anglatadi.

Bir ma'noli so'zlar tilimizda kam sonni tashkil qiladi va ilmiy, kasb-hunarga doir atamalarni, shuningdek, yangi paydo bo'lgan so'zlarni o'z ichiga oladi. Yangi so'zlar (neologizmlar) ham davrlar o'tishi bilan qo'shimcha ma'nolarni anglatadi.

Ko'p ma'noli so'zlarning ma'nosini bilish va undan nutq jarayonida o'rinli foydalanish nutqning ta'sirchan, ifodali bo'lishiga yordam beradi.

1. Ko'p ma'noli so'zlar va ma'nolarning to'g'ri va ko'chma ma'nolarga bo'linishini yuqorida ko'rib o'tdik.

2. Borliqdagi narsa - hodisa, belgi - xususiyat, harakat - holat nomlari ma'lum bir asosga ko'ra boshqa narsa - hodisa, belgi - xususiyat, harakat-holat nomi sifatida ham qo'llaniladi. Bunday vaqtda bitta nom bitta narsa "" hodisa, belgi - xususiyat, harakat - holatlarning nomiga xizmat qiladi. Masalan, *burun* so'zi «tirik organizmning yuz qismidan bo'rtib chiqqan nafas olish organi» ma'nosini ifodalashi bilan birgalikda «yerning suvlikka tomon bo'rtib chiqqan qismi» ma'nosi ham ifodalaydi. Predmetlar o'rtasidagi tashqi o'xshashlik (yuz qismidan bo'rtib chiqqan burun bilan yer qirg'og'ining dengiz yoki okean qa'ridan bo'rtib chiqishi o'rtasidagi o'xshashlik) birining nomini ikkinchisi o'rnida qo'llashga asos bo'lgan.

Ma'no ko'chishining nima asosda ro'yobga chiqishiga ko'ra metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik singari turlari ma'lum.



Tilning leksik qatlamlari

Hozirgi o'zbek tilining lug'at tarkibi (so'z boyligi) o'zbek tilining butun tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan hodisadir. Undagi so'zlarning paydo bo'lish davri va kelib chiqish manbai ham har xildir. Umuman, har qanday til o'z lug'at tarkibi va grammatik qurilishiga ega bo'ladi. Lekin xalqlar o'rtasidagi uzoq tarixiy davrlar mobaynida davom etadigan iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar bu xalqlarning tillariga ham shubhasiz, o'z ta'sirini ko'rsatadi. Natijada bir tilga xos fonetik, leksik va boshqa elementlar ikkinchi bir tilga o'tib o'zlashib ketadi. Bunday o'zaro ta'sir etish, ayniqsa, leksikada bo'ladi.

O'zbek xalqi ham o'z tarixining turli davrlarida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqada bo'lgan va bu xalqlarning tili o'zbek tiliga ma'lum darajada o'z ta'sirini qoldirgan. Xususan, boshqa tillardan o'zbek tiliga ko'plab so'zlar o'zlashganini shu ta'sir bilan izohlash mumkin. Natijada o'zbek tili lug'at tarkibida shu tilning o'ziga xos leksik qatlam bilan birga o'zlashgan qatlam ham yuzaga kelgan.

O'z qatlamga o'zbek tilining o'ziniki bo'lgan, shuningdek, turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'zlar kiradi. O'zbek tili lug'at tarkibida turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'zlar anchagina qismni tashkil etadi. Bunday so'zlar barcha so'z turkumida bor. Masalan: *tosh, tog', yer, bosh, suv, til, kishi, bola, men, sen, biz, siz, bu, shu, qora, qizil, sariq, yaxshi, yomon, erta, indin, ilgari* va boshqalar.

O'zbek tilining bevosita o'ziniki bo'lgan asosiy leksik qismini shu tilning taraqqiyoti jarayonida uning ichki imkoniyatlari, o'ziga xos qonun-qoidalari asosida hosil etilgan yasama so'zlar tashkil etadi. Bunda uch holat kuzatiladi:

1) asli o'zbekcha so'zlardan shu tilga oid affikslar yordamida yasalgan so'zlar:

qatnashchi, terimchi, qotishma, qo'llanma, turg'un, bolalarcha kabi; o'zlashma so'zlardan o'zbek tili vositalari yordamida hosil qilingan so'zlar;

tojikcha so'zlardan yasalgan so'zlar: *jangchi, mardlik, sabzavotchilk, do'stlik, pulsiz, xastalanmoq*; b) arabcha so'zlardan yasalgan so'zlar:

rahbarlik, qimmatli, ovqatlanmoq; v) ruscha-baynalmilal soʻzlardan yasalgan soʻzlar: *sportchi, betonlamoq;*

boshqa tillardan oʻtgan yasovchi vositalar yordamida oʻz va oʻzlashma soʻzlardan hosil qilingan soʻzlar: *tilshunos, mehnatkash, kitobxon, vagonsoz, ilmiy.*

Oʻzlashgan qatlam.

Forscha-tojikcha soʻzlar. Fors-tojik tilidan soʻzlar tovush oʻzgarishlarisiz olingan. Soʻz oʻrtasi va oxirida qoʻsh undoshlar keladi, tarkibida **no-**, **ba-**, **be-**, **ham-** kabi old qoʻshimchalari boʻladi. Masalan: *andisha, barg, bahor, daraxt, farzand, daromad, buromad, ozoda, nomaʼlum, bedarvoza, hamkasb.* **Arabcha soʻzlar.** Arab tilidan oʻzlashgan soʻzlarning koʻpchiligi fan va dinga oid boʻlib, asosiy qismi fors tili orqali kirgan. Masalan: *adabiyot, kitob, oila, davlat, mehnat, muqaddas, sanʼat, aʼlo, mutolaa, doim, inshoot* kabi.

Ruscha-baynalmilal soʻzlar. Rus tili va u orqali gʻarb tillaridan oʻzlashgan soʻzlar fan-texnika, siyosiy-iqtisodiy sohalarga oid. Bu soʻzlar ikki usulda: aynan va kalkalab olish bilan oʻzlashgan. Bunday soʻzlar oʻrtasida undoshlar yonma-yon keladi, soʻz oxirida qoʻsh undoshlar, qorishiq tovushlar, old qoʻshimchalar ishlatiladi. Masalan: *benzin, vokzal, stol, deputat, dialekt, diagramma, budjet, sentabr, metall, interaktiv* kabi.

Ijtimoiy-siyosiy leksika.

Oʻzbek tiliga davlat tili maqomining berilishi hamda mustaqillikka erishganligimiz munosabati bilan tilimizda qoʻllanilib kelayotgan ruscha va rus tili orqali kirib kelgan terminlarning anchasi har ikkala tildagi mos muqobillari bilan almashtirila boshlandi. Masalan, oʻzbek tilida qoʻllanib kelgan terminlar quyidagicha almashtiriladi: Abstrakt – mavhum, avtograf – dastxat, adaptatsiya – moslashish, administratsiya – maʼmuriyat, direktiva – koʻrsatma, krizis – tanglik va b.

Ijtimoiy-siyosiy terminlarning paydo boʻlish tarixini qadimdan boshlashimiz zarur. Umumturkiy meros boʻlmish Oʻrxun-Enasoy va boshqa yodnomalarda oʻz ifodasini topgan qagʻan, budun, balliq (“shahar” maʼnosida), sab (“kengash” maʼnosida), bitikchi (“kotib” maʼnosida), alp (“qahramon” maʼnosida) kabi terminlar buning yaqqol misolidir. Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi oʻzgarishlar, tabiiyki, oʻzining leksik qatlamlarida ham

o‘z ifodasini topadi. Bu fikrimizni M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridagi quyidagi ijtimoiy-siyosiy terminlar misolida ham ko‘rish mumkin : and, buzun, baæ, boæun (“jamoat” ma’nosida), bachèg’ (“ahd” ma’nosida), beg, æarlèg’, boæ (“qabila” ma’nosida), æag’è, bulg‘aq (“fitna” ma’nosida), æer (“mamalakati” ma’nosida) va hokazo 1. O‘sha davr ijtimoiy-siyosiy terminologiyasining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, ularning ba’zilari hozirgi kunda ham o‘zbek va qoraqalpoq hamda boshqa turkiy tillarda faol qo‘llanib kelinmoqda (el-el, boy-bay, ont-ant). H.Dadaboyevning dissertatsiya ishiga obyekt qilib olingan XI-XIV asrlar yozma yodgorliklari tilidagi qiyoslash uchun olingan ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlardan bugungi kunda uyg‘ur tilida-348, qozoq tilida-220, qirg‘iz tilida-244, turk tilida-370, o‘zbek tilida esa-390 tasi ishlatilar ekan. 2. O‘zbek tilining ijtimoiy-siyosiy terminologiyasi, ayniqsa, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rus tilidan va Yevropa tillaridan kirgan o‘zlashmalar hisobiga boyiy boshladi. Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi har qanday o‘zgarish uning terminologiyasida ham o‘z izini qoldiradi. Ijtimoiy-siyosiy terminologiya deganda siyosiy tuzum, ijtimoiy va siyosiy guruhlar, partiyalar, oqimlar va ularning vakillari, hukumat yig‘ilishlari va muassasalari, davlatni boshqarish va uning organlari, dunyoqarashlar, mulkiy munosabatlar, ichki va tashqi siyosat, ijtimoiy-siyosiy hujjatlar, axloq masalalari, xullas, ijtimoiy-siyosiy hayot bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklar majmui tushuniladi. O‘zbek tilining ijtimoiy-siyosiy terminologik lug‘ati 1976-yildayoq nashr etilgan edi.

Sohaviy terminlar va ularning qo‘llanishi. Iqtisodiyot terminologiyasini, umuman, boshqa soha terminologiyalarini ham boyitishda ona tili imkoniyatlaridan foydalanish haqida gap ketganda quyidagi uch holatga e’tibor berish zarur bo‘ladi:

1. Muayyan bir tilda, shuningdek, o‘zbek tilida ham iqtisodga oid tushunchalarni aniq ifodalovchi qator leksemalar qadim-qadimdan qo‘llab kelinmoqda. O‘zbek adabiy tili boyligining bir qismi o‘laroq, bunday so‘zlar keyinroq, konkret terminologik tizim vujudga kela boshlashi bilan iqtisod fanining maxsus tushunchalarini ifodalash uchun jalb qilina boshlangan edi. Masalan, *haq, bitim, pay, garov, dallol, pul, so‘m,*

sug'urta, savdo, omonat, g'amlama va boshqalar.

2. Iqtisodiyot bilan aloqasi bo'lmagan, boshqa-boshqa sohalarda qo'llanadigan terminlar ham maxsuslashtiriladi, ya'ni iqtisodiy terminlar sifatida ishlatiladi. Masalan, *taklif, sohibkor, o'sim, qoldiq, daraja, palata, qadrli, yetakchi, yig'im, qonun, qaydnoma, baho, xo'jalik* kabi yuzlab leksemalar iqtisodiy terminologik tizimda yakka holida ham, so'z birikmalarining tarkibiy qismlari sifatida ham ushbu soha terminlari sifatida amal qilinaveradi.

3. Iqtisodiyot terminologiyasining boyishidagi yana bir manba, bu iqtisodiy tushunchalarni ifodalash uchun xilma-xil affiksalar ishtirokida hosil qilingan yasama

lug'aviy birliklar hisoblanadi: *jamg'arma, ijarachi, ishsizlik, uyushma, tejamkor, iqtisodiyot, tadbirkor, bojxona, qarzdor, boylik* kabilar shular jumlasidandir. Bunday terminlarning bir qismi tegishli ruscha-baynalmilal muqobillarining o'zbek tilidagi kalkasi sifatida yuzaga kelgan.

Hozirgi o'zbek tili lug'at tarkibida, uning iqtisodiy terminlar tizimida yuqoridagidek umumturkiy, o'zbek terminlari bilan bir qatorda fors-tojikcha, arabcha, shuningdek, ruscha-baynalmilal leksemalar ham qo'llanib kelinayotir. Masalan, *sarmoya, savdogar, tojir, sarkor, daromad, dastmoya* kabi fors-tojikcha so'zlar asosiy iqtisodiy terminlar bo'lib qo'llanmoqda. O'zbek tili iqtisodiyot terminologiyasining ruscha-baynalmilal terminlar hisobiga to'ldirilishi haqida gap ketganda shuni aytish kerakki, rus tili leksikasi imperiya davrida mahalliy tillarga, xususan, o'zbek tiliga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Masalan, *veksel, preyskurant, kredit, tovar, buxgalter, bank, kassir, avans, makler* va boshqalar.

Savol va topshiriqlar

1. Leksika nima?
2. Leksikologiya nimani o'rganadi?
3. So'zning leksik ma'nosi deganda nimani tushimasiz?
4. So'zning grammatik ma'nosi nima?
5. Leksema va so'z nimasi bilan bir-biridan farq qiladi?
6. Ko'p ma'noli so'zlar nima?
7. Ko'chma ma'no qanday aniqlanadi?

B/B/B JADVALI

B/B/B JADVALI - Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim. Mavzu, matn, bo'lim bo'yicha izlanuvchanlikni olib borish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Talabalar:

1. Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida, kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar.
2. “Mavzu bo'yicha nimalarni bilasiz” va “Nimani bilishni xohlaysiz” degan savollarga javob beradilar. Jadvalning 1 va 2 bo'limlarini to'ldiradilar.
3. Topshiriqni tinglaydilar, mustaqil o'qiydilar.
4. Mustaqil, kichik guruhlarda jadvalning 3 bo'limni to'ldiradilar.

O'ZBEKISTON MUZEYLARI

<i>Bilaman</i>	<i>Bilishni xohlayman</i>	<i>Bilib oldim</i>
+	?	-

Mustaqil ta'lim: O'zbek tilining imlo qoidalari va soha egalarining savodxonligi. “XXI asr texnikasi” mavzusida ijodiy matn yaratish.

4-



MAVZU. TIL VA TERMINOLOGIYA.

Reja:

1. O'zbek terminologiyasining taraqqiyot bosqichlari.
2. Tilning lug'at tarkibi.
3. Terminlar va ularning vujudga kelishi

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonova M, Fattaxova , Xalmuxammedova U, Inogamova N, Egamberdiyeva N. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). – Toshkent: Mumtoz so'z, 2018.
2. Qo'ng'urov R, Begmatov E, Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat. Darslik. – T: "Barkamol fayz media", 1992. – 424 bet;
3. Muhiddinova X, Salisheva Z, Po'latova X. O'zbek tili (oliy ta'lim muassasalari rus guruhlar uchun darslik). – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 288
4. Aminov M, Madvaliyev A, Mahkamov N, Mahmudov N. Ish yuritish (amaliy qo'llanma). – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.– 456b.

 **Mavzuning maqsadi:** Til va terminologiyaning shakllanishi hamda rivojlanish jarayonlarini tahlil qilish, ularning lingvistik asoslarini o'rganish va ilmiy hamda amaliy jihatdan ahamiyatini aniqlash.

Tayanch iboralar:

 Til va uning ijtimoiy funksiyalari

 Terminlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi

 Xalqaro va milliy terminlar

 Terminologiyaning tizimliliigi va normativligi

 Neologizmlar, arxaizmlar va terminlarning standartlanishi

 **Mavzuning umumiy metodi:**

 Tarixiy tahlil

 Dialogik yondashuv

 Muammoli ta'lim

✂ Venn diagrammasi

✂ T-sxemasi

📖 **Mavzuning dolzarbligi:** Til taraqqiyoti va terminologiyaning o‘zgarishi ilmiy, texnik va ijtimoiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularni o‘rganish lingvistika, ta’lim va madaniyat sohalari uchun muhim ahamiyatga ega. Terminlarning standartlanishi va rivojlanishi ilm-fan, texnologiya va xalqaro aloqalar uchun dolzarb masalalardan biridir.

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy hamda ilmiy-texnik tub o‘zgarishlar davrida yangi- yangi fanlar va tushunchalar yuzaga kelmoqda. Jumladan, o‘zbek tilida ham yangi terminlar paydo bo‘lmoqda, ilgari ishlatib kelingan qator leksemalar yangi ma’nolar kasb etmoqda. Shu boisdan leksikologiya, xususan, terminologiya oldida qator muhim masalalarni yechish vazifasi turibdi.

Bugungi kunda terminologiyaning amaliy va nazariy masalalarini yanada chuqurroq o‘rganish, terminlar yaratish va ularni qo‘llashni til qonuniyatlari asosida tartibga solish davlat ahamiyatiga molik muammoga aylandi. Shuning uchun ona tilimizning turli terminologik tizimlarini yanada teranroq tadqiq etish, ularni terminologiyaning xilma-xil masalalari bo‘yicha atroflicha tadqiq qilish, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Respublikamiz mustaqil deb e’lon qilingandan keyin, bu sohadagi ahvol butunlay o‘zgardi. Tashqi iqtisodiy aloqalar yanada rivojlanib ketdi. Dunyoning juda ko‘p mamlakatlari bilan xilma-xil aloqalarga keng yo‘l ochildi. Bu omillar o‘zbek tilida yangi-yangi terminlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Bu yangi terminlar sirasida iqtisodiy terminologik tizim ham o‘ziga xos o‘rinni egallab kelmoqda. Shu boisdan fan va texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida iqtisodiy terminlarni ham tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

“Termin” tushunchasiga yuklangan mazmun quyidagicha belgilarga asoslanadiki, bular terminlarni umumiste’modagi so‘zdan farqlash uchun yetarli deb o‘ylaymiz:

1) termin – umumadabiy tilning maxsus vazifa bajaruvchi bir turi bo‘lmish ishlab chiqarish, fan va texnika tiliga mansub lisoniy birlik, bir so‘z yoki birikmadir;

2) termin – konkret narsa-predmet, ashyo, mavhum tushunchalarning maxsuslashtirilgan nomidir;

3) termin uchun muayyan ta'rif (definitsiya) zaruriydirki, uning yordamida tegishli tushuncha mazmunini aniqroq ifodalash, tushunchaning birini ikkinchisidan chegaralab ajratish imkonini beruvchi, ayni mahalda ma'lum tushunchani muayyan tasnifiy qatorga joylashtirishga yo'l qo'yuvchi, farqlovchi belgilarni ravshanroq ko'rsatish mumkin.

Demak, terminologiya muayyan fanning tushunchalar tizimi bilan o'zaro munosabatda bo'lgan terminlar jami sifatida ta'riflanadi. Har qanday tushunchalar tizimiga muayyan terminlar tizimi to'g'ri keladi. Terminologik tizimlar fan taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanib boradi. Terminlar umumiste'moldagi so'zlardan farqli ravishda joriy qilinib, ularning qo'llanishi ma'lum darajada nazorat ostida bo'ladi. "Terminlar paydo bo'lib qolmaydi", aksincha, ularning zaruriyati anglangan holda "o'ylab topiladi", "ijod qilinadi". Masalan, bo'lajak iqtisodchilarning yozma yoki og'zaki nutqida *kartel, kliring, tovar oboroti, mayda mulkchilik, mablag' ajratish, renta* kabi tor doiradagina qo'llaniladigan terminlar ishlatilishi tabiiy bir holdir. O'z-o'zidan ayonki, bu xildagi terminlar iqtisodiyotdan uzoqroq biror kasb egasining nutqida ishlatilmaydi. Shu bilan birga, iqtisodiyot sohasining qator terminlari ham borki, ular muayyan til egalarining deyarli barchasi nutqida bab-baravar ishlatilaveradi: *Bozor, mol, savdo, savdo-sotiq, pul, haridor, bozorchi, olibsotar, chayqovchi* kabilar shular jumlasidandir.

Ta'kidlash lozimki, nafaqat iqtisodiyot, balki fan-texnika, ishlab chiqarishning xilma-xil soha va terminlar majmui, ya'ni yig'indisi terminologiya deb ataladi. Masalan, matematika terminologiyasi, tibbiyot terminologiyasi, iqtisodiyot terminologiyasi va boshqalar.



Terminlar va ularning vujudga kelishi

Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, ma'lum fan, ishlab chiqarish sohasidagina qo'llaniladigan va asosan o'sha soha kishilari tushunadigan maxsus so'zlar terminlar – atamalar sifatida qaraladi.

Terminlarning shakllanishi ham xalqning tarixi qadar qadimiydir. To'nyuquq, Kultegin, Bilga hoqon singari bitiktoshlarda xalqimiz mashg'ul bo'lgan hunarlarga oid atamalarni uchratamiz. Ular xalq

tomonidan yaratilgan afsonalarda, qahramonlik qo'shiqlarida ham mavjud bo'lgan. Ularni mujassam qilgan Mahmud Qoshg'ariyning "Devonulug'otit-turk" asari ularning bizgacha yetib kelishida katta tarixiy vazifani bajargan.

Terminlarning dastlab ikki katta guruhga ajratish to'g'ri bo'ladi:

1. Umumiylik xususiyatiga ega bo'lgan atamalar.
2. Xususiylik xususiyatiga ega bo'lgan atamalar.

Umumiy atamalar sirasiga bir terminologik tizimning barcha yo'nalishlari uchun tushunarli bo'lgan atamalar kiradi. Masalan, sportdagi *musobaqa, sovrin, sovrindor, yutuq, g'alaba, birinchilik, chempionat, ko'rik, trener, hakam* atamalarini sportning barcha turlarida bimalol qo'llash mumkin. Fizikaga oid *issiqlik, temperatura, jism, elektr, magnit, gaz, harakat, energiya, maydon* singari atamalar haqida ham shu gaplarni aytish mumkin.

E'tirof etish kerakki, o'zbek tilida chetdan qabul qilingan ilmiy-texnikaviy terminlarning salmog'i katta. An'anaga ko'ra ularni quyidagi yo'nalishlarda o'rganamiz:

1. Arabcha: *amaliyot, asar, asos, izoh, ilm, in'ikos, ilova, isloh, istiloh, islohot, maqola, misol, masala, maxraj, manfiy, musbat, mavzu, mazmun, mantiq, ma'naviy, ma'rifiy, muqaddima, mushohada, tajriba, taqriz, tahlil, uslub, fan, falsafa* va hokazo.

2. Forscha-tojikcha: *bastakor, duradgor, zabtkor, navosoz, navoxon, shogird, peshqadam, sovrin, sozanda, ustoz, chavandoz, yakkaxon, havaskor, hamshira* kabi.

3. Ruscha-baynalmilal: *abzas, agronomiya, agrotexnika, arxeologiya, gazeta, kodeks, lingvistika, matematika, nekrolog, plenum, realism, romantiam, sessiya, syezd, fizika, fonetika, fonologiya* va hokazolar. Ularning ma'lum qismlari:

1. Lotincha: *abbreviatsiya, abstrakt ot, agglyutinatsiya, adverbializatsiya, adyektivatsiya, aktualizatsiya, aksentologiya, alliteratsiya, areal, artikulyatsiya, assimilyatsiya, affiks, affiksoid, affrikata* kabi.

2. Yunoncha: *allegoriya, allomorph, allofon, alfavit, amorf tillar, analitik tillar, analogiya, anomaliya, antiteza, antonym, antroponim,*

apokopa, arxaizm, aforizm singari.

Bizni qurshab turgan olamdagi hamma narsa va hodisalar uzluksiz o'sishda-rivojlanishdadir. Masalan, hovlingizga ko'chat ekdingiz. U ko'karib, asta-sekin rivojlana boshlaydi, lekin uning rivojlanish jarayonini oddiy ko'z bilan kuzata olmaysiz. Ko'chat ekilgan holat bilan uning bir necha oy yoki yil o'tgandan keyingi holatini solishtirsangiz, undagi ro'y bergan o'zgarishlarni payqaysiz.

Xuddi shuningdek, siz bilan biz gaplashib turgan til ham muttasil rivojlanishda, o'zgarishdadir. Bu o'zgarishlarni shu tilning ikki davr oralig'idagi holatiga qarab bilib olamiz. Masalan, Navoiy tili bilan hozirgi davrdagi o'zbek tili yoki Fitrat, Cho'lponlar davri bilan bugungi o'zbek tilini solishtirsak, bu ikki davr oralig'ida ro'y bergan o'zgarishlar leksikada ko'proq aks etganini sezishimiz mumkin.

Ko'rinadiki, bunday o'zgarishlar tilning lug'at jamg'armasida ko'proq namoyon bo'ladi, chunki xalqimiz tarixida ro'y bergan iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy o'zgarishlar tufayli yangi so'zlar kirib keladi, ayrim so'zlar iste'moldan chiqib keta'di. Masalan, eski o'zbek tiliga xos *cherik* (askar), *o'kush* (ko'p), *talim* (bir qancha) singari so'zlar bugungi kunda qo'llanilmaydi.

Ular o'zbek tili leksikasining eskirgan qatlamini tashkil qiladi. Ularga nisbatan eskirgan so'zlar yoki arxaizmlar va istorizmlar atamasi ishlatiladi. Bunga zid o'laroq, *konsalting, audit, sammit* singari so'zlar esa tilimizga endigina kirib kelyapti. Ular yangi paydo bo'lgan so'zlar, ya'ni neologizmlar sanaladi. Sobiq sho'rolar davrida *siyosiy byuro, pioner, komsomol, oktabrat* singari so'z va birikmalari faol qo'llanilgan bo'lsa, mustaqillik sharoitida bunday so'zlarni ifodalaydigan tushunchalarga hayotda o'rin qolmadi. Shuning uchun ular iste'moldan chiqib ketdi. Hozirgi kunda yangicha

davlat va xo'jalik boshqaruviga, bozor iqtisodiyotiga doir bir qator yangi so'zlar paydo bo'ldi. Ayrim eski o'zbek tilida qollanilgan so'zlar yangitdan olib kirildi. Masalan, *hokimiyat, hokimlik, vazir, vazirlik, devonxona* va boshqalar.

Shunday qilib, o'zbek tili leksikasi turmushimiz uchun keraksiz bo'lib qolgan tushunchalarni bildiruvchi so'zlarning iste'moldan chiqib

ketishi, yangi paydo bo'lgan tushunchalarni ifodalovchi so'zlarning esa kirib kelishi hisobiga doimo o'zgarib, rivojlanib, boyib boradi.

O'zbek tili leksikasi bir qancha manbalar asosida boyib, rivojlanib boradi. Ularni, eng avvalo, ikki katta guruhga ajratish mumkin:

1) o'z ichki imkoniyatlari asosida;

2) boshqa tillardan so'z olish asosida. Ularning birinchisi ichki manbalar, ikkinchisi esa tashqi manbalar sanaladi.

1. O'zbek tili leksikasining birinchi yo'l bilan boyib borish imkoniyatlari juda kengdir. Masalan, a) ilgari qo'llanilib, keyin iste'moldan chiqib ketgan so'zlardan yangi tushunchalarni ifodalash uchun foydalanish: *vazir, hokim, viloyat, shirkat, noib, tuman* kabi; b) yasovchi qo'shimchalar yordamida yangi so'z yasash: *uyali telefon, omonatchi, pudratchi, bojxona, auditchi (auditor), dizaynchi (dizayner)* vaboshqalar; d) dialektal so'zlarni faollashtirish: *mengzamoq* (Xorazm) «o'xshatmoq», «*tenglashtirirnoq*», «*qiyoslamoq*» ma'nosida.

2. O'zbek tili leksikasi tashqi manbalar asosida ham boyib bormoqda. Dunyoda boshqa tillardan so'z olmasdan faqat o'z ichki imkoniyatlari asosidagina rivojlanadigan birorta ham til yo'q. Bundan o'zbek tili ham mustasno emas. Faqat ma'lum zarurat tufayli yangi tushunchani ifodalovchi o'z tilimizning ichki imkoniyatlari asosida ifodalab bo'lmagandagina tashqi manbalarga murojaat qilish foydalidir. Bobolarimiz Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiylar ham shunga da'vat qilganlar.

Keyingi davrlarda tilimizga Yevropa tillaridan bir qancha so'zlar yangi tushunchalar bilan birgalikda kirib keldi. Masalan, *monitoring, diler, skayner* kabi. Bularning hammasi o'zbek tili leksik imkoniyatlarini kengaytirib, boyitmoqda

Nazorat savollari

1. O'zbek terminologiyasining taraqqiyot bosqichlarini ayting.
2. Tilning lug'at tarkibi haqida tushuncha bering.
3. Terminlar va ularning vujudga kelish usullarini ayting.

Mustaqil ta'lim

Imlo xatolar yo'l qo'yilgan matnlarni ko'zdan kechirib, ulardagi xatolarni muhokama qilish - 2 soat

5-



MAVZU: O‘ZBEK LEKSIKOGRAFIYASI

Reja:

1. O‘zbek leksikografiyasi
2. Umumiy va maxsus lug‘atlar
3. Akademik, ommabop va o‘quv lug‘atlari

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonova M, Fattaxova , Xalmuxammedova U, Inogamova N, Egamberdiyeva N. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2018.
2. Qo‘ng‘urov R, Begmatov E, Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubi. Darslik. – T: “Barkamol fayz media”, 1992. – 424 bet;
3. Muhiddinova X, Salisheva Z, Po‘latova X. O‘zbek tili (oliy ta’lim muassasalari rus guruhlar uchun darslik). – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 288
4. Aminov M, Madvaliyev A, Mahkamov N, Mahmudov N. Ish yuritish (amaliy qo‘llanma). – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.– 456b.



Mavzuning maqsadi: O‘zbek leksikografiyasining shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini tahlil qilish, lug‘at tuzish tamoyillarini o‘rganish hamda leksikografiyaning ilmiy va amaliy ahamiyatini aniqlash.



Tayanch iboralar:



O‘zbek leksikografiyasining tarixi



Lug‘at turlari va ularning xususiyatlari



Izohli, tarjima va terminologik lug‘atlar



Lug‘at tuzish tamoyillari va metodlari



Elektron leksikografiya va zamonaviy texnologiyalar



Mavzuning umumiy metodi:



Tarixiy tahlil



Dialogik yondashuv



Muammoli ta’lim

✂ Venn diagrammasi

✂ T-sxemasi

📖 **Mavzuning dolzarbligi:** O‘zbek leksikografiyasining rivojlanishi tilni o‘rganish va saqlash jarayonida muhim o‘rin tutadi. Lug‘at tuzish tamoyillarini o‘rganish lingvistika, tarjimashunoslik va ta‘lim sohalari uchun dolzarb bo‘lib, zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan elektron leksikografiya bugungi kunning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Leksikografiya lot. *lexikos* - so‘z, *grapho* - chizmoq, yozmoq so‘zlaridan olingan bo‘lib, lug‘at tuzish amaliyoti va nazariyasi bilan shug‘ullanuvchi tilshunoslikning bo‘limidir.

Leksikografiya nazariyasining predmeti lug‘at tuzish tamoyillari va usullaridir.

Leksikografiya amaliyoti esa lug‘at tuzuvchilarning ishini tashkil etish, so‘zlarni kartochkalarga tushirish, sistemaga solish va saqlash singarilarni o‘z ichiga oladi.

Leksikografiya nazariyasida lug‘at turlari, so‘zlik tarkibi va so‘z maqolasining tuzilishi asosiy o‘rinni egallaydi.

O‘zbek leksikografiyasi deyilganda, o‘zbek tilining lug‘at boyligi, undagi lug‘at turlari va tiplari tushuniladi.

Lug‘at tuzish turli xalqlarda yozuv taraqqiyotining ilk bosqichlarida u yoki bu tushunarsiz so‘zning qanday ma‘no anglatishini bilish ehtiyoji natijasida paydo bo‘lgan.

O‘zbek leksikografiyasini Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari boshlab berdi. Dastlabki lug‘atlarning aksariyati umumlashgan, universal xususiyatlarga ega bo‘lgan. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari ham ayni shu xarakterda yozilgan. Asarda muallif faqat so‘zlar va ularning ma‘nolarini tavsiflamasdan ,xalq og‘zaki ijodi namunalari, urf-odatlar, geografik va etnografik kabi keng qamrovli ma‘lumotlar keltirilgan. “Devonu lug‘atit turk” asari o‘zbek xalqi tarixidagi ilk qomusiy asar hisoblanadi va xalqimiz tarixiga oid eng qimmatli manbadir.

O‘zbek lug‘atchilik tarixi, aslida, eski turkiy til lug‘atchiligi va arab tili lug‘atchiligi tarixi bilan uzviy bog‘liqdir. “Devonu lug‘atit turk”(1073-1071-y), “Muqaddimatul adab” (1137-y), “Kitob ul-idrok li lisonul atrak”

(1312-y), “At-tuhfatuz zikayatu fit lug‘atit turkiya” (XIII asr) kabi asarlar arab tilida va arab tilshunosligi an‘analarida yozilgan bo‘lsada, ularning barchasida qadimgi turkiy til va eski turkiy til lug‘ati o‘z ifodasini topgan.

O‘zbek lug‘atchiligi tarixida chig‘atoy tili deb nomlangan eski o‘zbek adabiy tili davri (XIV-XIX asrlar) alohida o‘rin tutadi. XV-XVI asrlardan boshlab Alisher Navoiy ijodiga qiziqishning ortib borishi qator lug‘atlarning yaratilishiga olib keladi. Quyidagilar shular jumlasidandir : “Badoyeul lug‘at” – o‘zbekcha-forscha lug‘at xarakterida (Tole Hivariy), “Abushqa” – chig‘atoycha-turkcha lug‘at (muallifi noma‘lum), “Lug‘ati turk” –chig‘atoycha-forscha lug‘at (Pazlullaxon), “Kelurnoma” – chig‘atoycha-forscha lug‘at (Muhammad Yoqub Changiy), “ Sanglah” – chig‘atoycha-forscha lug‘at (Mahdixon Muhammad Nizomiddin Muhammad Hodiy al-Husayniy). Uning “Xuloasai Abbosiy” deb nomlangan qisqartirilgan varianti ham bor. “Lug‘ati chig‘atoy va turki usmoniy” (Shayx Sulaymon Buxoriy) kabi asarlar ayni davrda yaratilgan.²

O‘zbek lug‘atchiligini tilshunos olim Hasanxon Jamolxonov yuqoridagi ikki davrdan tashqari yana quyidagi uchta guruhda davrlashtirgan :

1. XIX asr ikkinchi yarmida O‘zbekistonda lug‘atchilik ;
2. XX asrning birinchi yarmida lug‘atchilik;
3. XX asrning ikkinchi yarmida lug‘atchilik.

Hozirgi davrda ma‘lumot- axborot to‘plash va uni o‘quvchiga yetkazishda

muayyan ahamiyatga ega. So‘zni tavsiflashdagi bir qancha farqli xususiyatlariga ko‘ra, lug‘atlarni asosan 2 turga: ensiklopedik va lingvistik (filologik), lug‘atlarga ajratish mumkin. Ensiklopedik lug‘at so‘zlarning o‘zini emas, balki ular orqali bildiriladigan predmet va tushunchalarni izohlaydi, tushuntiradi. Lingvistik lug‘atlarning asosiy maqsadi esa til birligi hisoblangan so‘zning ma‘nolarini, turli lisoniy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Lingvistik lug‘atlar leksikografik tavsif mazmuni, vazifasi va usullari nuqtayi nazaridan bir qancha turlarga bo‘linadi:

Avvalo, lug‘atlar ikki turli boiadi: **1) ensiklopedik (qomusiy) lug‘atlar; 2) filologik (lingvistik) lug‘atlar.** Bu ikki turdagi lug‘atlar

lug'at birliklarining nimaga qaratilgani bilan farqlanadi. Lug'atga kiritilayotgan birliklar barcha tushunchalarni o'z ichiga olsa, ensiklopedik (qomusiy) lug'at; ma'lum bir tildagi so'zlarni o'z ichiga olsa, filologik (lingvistik) lug'at hisoblanadi.

Filologik lug'atlar ma'lum bir tildagi so'zlarni o'z ichiga oladi. So'zlar muayyan bir tartibda (yo alifbo asosida, yo mazmuniy guruhlar asosida) joylashtiriladi.

Filologik lug'atlarning o'zi, eng avvalo, izohli va tarjima lug'atlariga

Tildagi so'zlarni izohlashga qaratilgan lug'atlar izohli lug'at, muayyan tildagi so'zlarning ikkinchi tilga tarjimasini berishga qaratilgan lug'atlar esa **tarjima lug'at** sanaladi. Bir tilga oid lug'aviy birliklarni boshqa tilga o'girib izohlab beruvchi tarjima lug'atlari — o'zbek leksikografiyasida keng tarqalgan. Qadimdan ma'lum lug'at turi, 19-asrgacha arab-o'zbek, fors-o'zbek, turk-o'zbek ikki tilliligi asoslanib yoki aksincha tartibda tuzilgan tarjima lug'atari mavjud bo'lgan bo'lsa, XX asrda ular qatoriga mazkur tillar bilan birga ingliz, nemis, ispan, hind, yapon tillari ishtirokida tuzilgan ikki tilli lug'atlar ham qo'shildi [Nemischa-o'zbekcha lug'at, 1964; O'zbekcha-nemischa lug'at, 1967; Fransuzcha-o'zbekcha lug'at, 1973; Inglizcha-o'zbekcha lug'at, 1968; O'zbekcha-inglizcha lug'at, 1969; Arabcha-o'zbekcha lug'at 1986; O'zbekcha-forscha lug'at, 1984; Ruscha-o'zbekcha mukammal lug'at va b.

1981-yili Moskvadagi «Русский язык» nashriyotida nashr qilingan 2 jildli «O'zbek tilining izohli lug'ati», 2006-2008-yillarda O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti tomonidan nashr qilingan va 80 ming so'z hamda so'z birikmasini o'z ichiga olgan 5 jildli «O'zbek tilining izohli lug'ati», 2001-yili Toshkentdagi «Sharq» nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati tomonidan nashr etilgan «O'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati» yoki o'zbekcha-ruscha, inglizcha-ruscha-o'zbekcha lug'atlar bunga misol bo'la oladi.

Izohli lug'atlar so'zlikning tanlanishiga ko'ra **umumiy va tarmoq** lug'atlarga bo'linadi. Tilning barcha so'zlarini izohlashga qaratilgan lug'atlar umumiy izohli lug'atlar, ma'lum bir tarmoqqa doir so'zlarnigina tanlab, ularni bir tartibda joylashtirib izohlashni maqsad qilgan lug'atlar

tarmoq lug'ati hisoblanadi. (Masalan, kasb-hunarga doir lug'atlar, ma'lum fan sohasi bo'yicha atamalar lug'ati va boshqalar.)

Har qanday lug'at shu lug'atning egasi bo'lgan xalqning katta madaniy va ma'naviy boyligi sanaladi.


Savol va topshiriqlar

1. Tilning rivojlanishi deganda nimani tushunasiz?
2. O'zbek tili leksikasidagi o'zgarishlar haqida gapiring.
3. Mustaqillik sharoitida yangi paydo bo'lgan so'zlarni ayting.
4. O'zbek tili leksikasi qaysi yo'llar bilan boyib, rivojlanib bormoqda?
5. Leksikaning ichki manbalar asosida rivojlanishi deganda nimani tushunasiz

va ularning usullari qanday?

6. Tashqi manbalarga qanday holatlarda murojaat etiladi?
7. Leksikografiya nima va u nimalar haqida bahs yuritadi?
8. Lug'at deganda nimani tushunasiz va u qanday turlarga bo'linadi?
9. Ensiklopedik lug'at bilan filologik lug'atlar bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?

1-topshiriq. Leksikografiya haqidagi nazariy bilimlarni o'zlashtirib lug'at bo'yicha klaster tuzing.



Mustaqil ta'lim

O'zbek tili leksikasining boyish manbalari. Texnikaga xos o'z va o'zlashgan so'zlar tasnifi.

.



6-MAVZU. ADABIY NUTQ VA UNING USLUBLARI

Reja:

1. Adabiy nutq .

2. Ilmiy, badiiy, so‘zlashuv, rasmiy-idoraviy, publitsistik uslublar va ularning uslubiy xususiyatlari.

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonova M, Fattaxova , Xalmuxammedova U, Inogamova N, Egamberdiyeva N. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2018.

2. Qo‘ng‘urov R, Begmatov E, Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat. Darslik. – T: “Barkamol fayz media”, 1992. – 424 bet;

3. Muhiddinova X, Salisheva Z, Po‘latova X. O‘zbek tili (oliy ta‘lim muassasalari rus guruhlar uchun darslik). – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 288

4. Aminov M, Madvaliyev A, Mahkamov N, Mahmudov N. Ish yuritish (amaliy qo‘llanma). – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.– 456b.

✂ **Mavzuning maqsadi:** Adabiy nutq va uning uslublarini tahlil qilish, ularning shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini o‘rganish, adabiy til me‘yorlari hamda uslubiy xususiyatlarini aniqlash.



Tayanch iboralar:



Adabiy nutq va uning o‘ziga xosligi



Og‘zaki va yozma nutq



Ilmiy, rasmiy, publitsistik, badiiy va so‘zlashuv uslublari



Nutq madaniyati va me‘yorlari



Uslublarning lingvistik xususiyatlari



Mavzuning umumiy metodi:



Tarixiy tahlil



Dialogik yondashuv



Muammoli ta‘lim

 Venn diagrammasi

 T-sxemasi

 **Mavzuning dolzarbligi:** Adabiy nutq va uning uslublarini o'rganish til madaniyati, muloqot samaradorligi va milliy merosni saqlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Uslublarning farqlanishi va rivojlanishi lingvistika, ta'lim va ijtimoiy hayotda dolzarb mavzulardan biri bo'lib, u til siyosati va kommunikativ kompetensiyani shakllantirish jarayonida muhim o'rin tutadi.

Tarixan tarkib topgan, qat'iy me'yorlarga bo'ysunuvchi, so'zlashuvchilarning qaysi hududda yashashidan qat'iy nazar barchasi uchun umumiy bo'lgan til **adabiy til** sanaladi.

Adabiy til har qanday tilning oliy shakli sanaladi va lug' at tarkibining boyligi, grammatik qurilishining tartibga solinganligi, qat'iy me'yorlarga amal qilishi, uslubning rivojlanganligi bilan xarakterlanadi.

Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum soha doirasiga, ma'lum nutqiy vaziyatga xoslangan ko'rinishi nutq uslubi hisoblanadi. So'zlar ma'lum nutq uslubiga xoslanish-xoslanmaslik belgisiga ko'ra *uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlarga* bo'linadi. Ayrim nutq uslubidagina qo'llaniladigan so'zlar uslubiy xoslangan so'zlar, bunday xususiyatga ega bo'lmagan so'zlar esa uslubiy betaraf so'zlardir.



Ilmiy uslub va uning xususiyatlari.

Fan va texnikaning turli tarmoqlariga doir ilmiy asarlar, darsliklar ilmiy uslubda yoziladi. Ilmiy matn ilmiy va ilmiy-ommabop matnlarga ajratiladi. Ilmiy matnda gap bo'laklari tartibi adabiy til qoidasiga qat'iy amal qilgan holda qo'llanadi. Ilmiy matnda har bir fan sohasiga oid atamalarning qo'llanilishi xarakterli xususiyat hisoblanadi. *Masalan, iqtisodiyotda kredit, moliya, pul, sug'urta, narx, tannarx, hisob, taftish, aylanma* kabi terminlar ishlatiladi. Ilmiy- ommabop matnlarda atamalar tizmasidan, ilmiy bayonchilikdan qochiladi. Bayon etilayotgan fikrning barchaga baravar tushunilishini ta'minlash maqsadida tushunilishi qiyin bo'lgan atamalar murakkab tushunchalar o'rniga aniq va batafsil tasvirlardan foydalaniladi.

Ilmiy uslubning janrlari – monografiya, maqola, annotatsiya, dissertatsiya, darslik, ma'ruza, ma'lumotnoma.

Ilmiy uslub ham o'z ichida ikki guruhga bo'linadi:

- 1) Sof ilmiy uslub;
- 2) ilmiy-ommabop uslub.

Ilmiy uslubda fan va texnikaning turli tarmoqlariga oid ilmiy asarlar, darslik va o'quv qo'llanmalari yoziladi. Bu uslub aniq, daliliy ma'lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalar (qoidalar, ta'riflar)ga boy bo'lishi bilan boshqa uslublardan farqlanadi. Ilmiy uslub ham adabiy tilning ko'rinishi bo'lib, bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ham ega: monologik belgilari bilan boshqa uslublardan ajralib turadi; obrazli tasvirlar bilan emas, balki aniq ma'lumotlarning *xolis, umumlashgan* xususiyatlarini ta'riflash, tushunchalarga muvofiq keladigan terminlar bilan ish ko'radi. Kitobxonning his-tuyg'usiga emas, ongiga ta'sir etadi.

Badiiy uslub va uning xususiyatlari.

Badiiy uslub (tilning ta'sir qilish, targ'ibot, tashviqot vazifasi) - inson hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Bu uslub barchaga barobarligi,

o'quvchiga va tinglovchiga emotsional ta'sir etishi bilan boshqa uslublardan farq qilib turadi. Bu uslubda muallif tilning barcha leksik, grammatik vositalaridan foydalanishi, turli ifodaviy vositalarni qo'llashi mumkin. Boshqa uslublarning materiallaridan badiiy uslubda bimalol foydalanish mumkin. Shunga ko'ra, badiiy uslub keng imkoniyatga ega uslub turi hisoblanadi. Badiiy uslub badiiy adabiyot, ya'ni badiiy asarlarga xos bo'lib, unda badiiylik, ifodaviylik, ta'sirchanlik kuchlidir. Badiiy uslubning o'ziga xos xususiyati shundaki, adabiy tilning barcha imkoniyatlarini o'z ichiga olish bilan birga, unda o'zbek shevalariga, kasb-hunarga doir leksik birliklar, bugungi kunda iste'moldan chiqib ketgan tarixiy so'zlar ham personajlar nutqi orqali ishlatila beradi. Badiiy uslub o'quvchida estetik zavq uyg'otadi. Demak, badiiy uslub orqali ro'yobga chiqqan nutq ma'lum voqea- hodisa haqida axborot berish (kommunikativ vazifani bajarish)dan tashqari, o'quvchiga ta'sir qilish (ekspressiv) vazifasini ham bajaradi. *Obrazlilik va estetik ta'sir* etish badiiy uslubning muhim belgisidir. Badiiy uslub so'z sa'natiga, timsoliy fikrlash sohasiga oid va funksional juhatdan biqiq – chegaralangan emas. Uning mazmun doirasining nihoyatda keng va u timsollar, badiiy to'qima, yozuvchi

fantaziyasi natijasida yuzaga keladi. Badiiy uslubda proza, poeziya va dramaturgiya asarlar yaratiladi. Badiiy uslub timsol, ijod va shaxs munosabatida yuzaga keladi. Badiiy uslubda umumxalq tili va adabiy tilning barcha qatlamiga mansub soʻz va iboralar keng va faol ishlatiladi hamda estetik taʼsir etish vazifasini bajaradi.

Badiiy adabiyot tili yoki badiiy uslub adabiy tilda alohida oʻrin tutadi. Badiiy uslubda xalq tilidagi hamma vositalardan erkin foydalaniladi. Badiiy uslubning asosiy belgilari:

1. Turli tasviriy vositalar, chunonchi, sifatlash, qiyoslash, mubolagʻa, kinoya, oʻxshatish va hokazolar qoʻllanadi:

Bulutning orasidan

Quyosh kulib qaraydi,

Majnuntolning yuvilgan

Sochlarini taraydi (E. Vohidov).

Shoir bu misralarda badiiy tasvirning jonlantirish usulidan foydalanib, insonga xos *kulish (kulib qaraydi)*, *tarash (sochlarini taraydi)* harakatlarini quyoshga nisbatan ishlatadi.

2. Til vositalaridan erkin foydalaniladi. Badiiy asarlarda adabiy tilga xos til birliklari, shuningdek, adabiy tildan tashqarida boʻlgan sheva, oddiy nutq, jargon kabilarga xos soʻzlar boʻlishi ham mumkin. Bu uslubda muallifning oʻz bayoni adabiy til meʼyorlarida boʻladi. Ammo asarda ishtirok etuvchilarning nutqida ularning xususiyatlarini ifodalash uchun adabiy tilda boʻlmagan til birliklaridan ham foydalaniladi. Masalan, yozuvchi Abdulla Qahhor “Bemor” hikoyasida fargʻonalik yosh goʻdak nutqini shunday ifodalagan: *Xudoyo, ayamdi daydiga davo beygin.*

3. Badiiy asarda tasvirlanayotgan davrning ruhni aks ettirish uchun eskirgan va yangi paydo boʻlgan soʻz va iboralardan ham foydalaniladi.

4. Sonlar raqam bilan emas, soʻz bilan yoziladi.

Xullas, badiiy asarlar badiiy uslubda yoziladi. Unda soʻzlashuv uslubiga, kitobiy uslublarga, shuningdek, xalq tiliga xos til birliklari ham boʻladi. Bir fikrning oʻzini adabiy tilda turli uslublarda ifodalash mumkin, chunonchi: quyidagi gaplarni qiyoslab oʻqing.

So‘zlashuv uslubi. Oilada, ko‘cha-ko‘yda kishilarning fikr almashish jarayonida qo‘llanadigan nutq uslubi *so‘zlashuv uslubi* sanaladi. So‘zlashuv uslubi adabiy va oddiy so‘zlashuv uslublarini o‘z ichiga oladi.

Adabiy til me‘yorlariga qat’iy amal qilingan so‘zlashuv uslubi **adabiy so‘zlalashuv uslubi**, bunday xusuiyatga ega bo‘lmagan so‘zlashuv uslubi esa **oddiy so‘zlashuv uslubidir**.

So‘zlalashuv uslubining o‘ziga xos xususiyati uning erkinligidir. So‘zlar tartibi erkin, asosiy maqsadni ifodalovchi gap bo‘lagi ajratib ko‘rsatiladi, fikr so‘zga mantiqiy urg‘u berish bilan ifodalanadi. Jumlar qisqa va ta’sirli bo‘ladi.

So‘zlashuv uslubining har ikki turi ko‘pincha dialog shaklida ro‘yobga chiqadi. Ikki shaxsning o‘zaro so‘zlashuvi dialogik nutq sanaladi. So‘zlashuv uslubida so‘zlar ko‘pincha kinoya, piching, qochirmalarga boy bo‘ladi.

So‘zlashuv nutqida ona tilidagi bor imkoniyatlardan foydalanilsa ham, har bir toifaning nutqida o‘ziga xoslik seziladi: olimlarning suhbat bilan ishchi, xizmatchi, dehqonning so‘zlashuvida farq bo‘ladi. Hatto erkag-u xotinlar so‘zlashuvi o‘rtasida ham ba’zi farqlar bo‘ladi.

Og‘zaki so‘zlashuv uslubi grammatik qurilishi sodda, qisqa, mazmunan ta’sirchan bo‘ladi. Bunda xalq maqollari va masallar, rivoyat va ertaklar, latifa va qo‘shiqlar, so‘z o‘yinlari-pichinglar, hazil – mutoyibalar, askiya va qochirmalar muhim manba sanaladi.

Jonli nutq jarayonida uslubiy bo‘yoq iboralaridan (*Onaginang o‘rgilsin! Qoqindig‘ing bo‘lay!*) keng foydalaniladi. Jonli so‘zlashuv nutqida «xom» ibora va gaplar, behayo so‘zlar ham uchraydi.

Ba’zan bunday qatlamlar badiiy asarlardan ham o‘rin oladi: *Hoy xotin, tavba qildim, endi ichsam, birovdan pul olsam, go‘rimda to‘ng‘iz qo‘pay.* Har holda hamma toifa kishilarning suhbat, so‘z va gaplari tushunarli bo‘ladi.

Chunki umumiste’moldagi so‘z, ibora va jumladan foydalaniladi.

Shevaga xos so‘zlar

Ma’lum hududda yashovchi kishilar nutqiga xos bo‘lgan, adabiy til leksikasiga kirmaydigan so‘zlar shevaga xos so‘zlarni tashkil etadi.

Quyidagi jadvalda keltirilgan adabiy til va shevaga xos soʻzlarga eʼtibor bering.

№	Toshkent shevasida	Fargʻona shevasida	Buxoro shevasida	Samarqand shevasida	Xorazm shevasida	Adabiy tilda
1.	doʻppi	doʻppi	kalpoʻsh kallapoʻsh	qalpoq	tahya	doʻppi
2.	garmdori	qalampir	qalampir qalamfur	qalampir	murch aji	qalampir
3.	chumoli	chumalik	moʻrcha	moʻrcha	qarinja	chumoli
4.	narvon	shoti	narvon narbon	narvon	zangi	narvon
5.	mushuk	mishiq	pishak	pishak	pishiq	Mushuk

Yozuvchilar badiiy asarlarda qahramonlarning qayerlik ekanini, tilidagi xususiyatlarni koʻrsatish uchun ularning nutqida baʼzan shevaga xos qoʻshimcha va soʻzlarni ishlatadilar.

- *Osilgan kim?*
- *Qiyotlik bir **goʻch** yigit. Nishatamiz, oʻglim, taqdir, - dedi xoʻrsinib ona. (J.Sh.)* Xorazm shevasiga xos *gʻoʻch* soʻzi “mard, botir” degan maʼnoni, *nishatamiz* soʻzi
- **Rasmiy-diplomatik uslub va uning xususiyatlari.**
- Huquqiy qonunchilik va ish yuritish munosabatlari doirasida qoʻllaniluvchi nutq uslubi rasmiy uslub hisoblanadi. Sof qonunchilik uslubi (qonun, farmon, fuqarolik va jinoiy aktlar, nizomlar uslubi). 2. Idoraviy — devonxona uslubi (buyruq, ariza, talabnoma, bildirgi, tavsifnoma, tarjimayi hol, ishonchnoma, dalolatnoma); diplomatik uslub (nota, bayonotnoma, bitim, konvensiya va boshqalar).
- Rasmiy uslub deyarli yozma shaklda roʻyobga chiqadi. U har qanday tasviriy vositalardan, obrazlilikdan xoli boʻladi. Bunday uslubda tilning ikki vazifasi — axborot uzatish va daʼvat etish, buyurish vazifasi amalga oshadi. Masalan, maʼlumotnomada axborot berilsa, buyruqda daʼvat etish, axborot oʻz aksini topgan boʻladi.
- Rasmiy uslubga mansub har qaysi turning oʻziga xos leksik, grammatik xususiyatlari mavjud. Masalan, qaror, farmonlarning oʻziga xos

tomoni shundaki, bunday matnlardagi gaplarning kesimi III shaxs majhul nisbatidagi fe'llar orqali ifodalanadi (ogohlantirilsin, topshirilsin kabi). Ma'lumotnomada esa birinchi gapning kesimi gap boshida keladi.

- Rasmiy ish qog'ozlarining sintaktik tuzilishi qat'iy qoliplarga bo'ysunadi. Masalan, «Ushbu ma'lumotnomani ko'rsatuvchi G'. Mo'minov haqiqatan ham O'zbekiston Milliy universitetining matematika fakultetida dekan o'rinbosari lavozimida ishlaydi...»

Publitsistik uslub va uning xususiyatlari.

Publitsistika (lot. «xalq, omma») davrning eng muhim, dolzarb masalalarini o'quvchilarga, tinglovchilarga, tomoshabinlarga gazeta-jurnal, radio, televideniye orqali yetkazish, ommani jonlantirish, kishilarning ongiga atrofda sodir bo'layotgan voqealarni singdirish, ularning ijtimoiy qarashlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Ommaviy axborot vositalarida (gazeta-jurnal, radio, televideniye), Oliy Majlis yig'inlarida, turli xil anjumanlarda qo'llaniladigan nutq uslubi *publitsistik uslub* sanaladi. Publitsistik uslub ikki xil shaklda namoyon bo'ladi: 1) yozma shakl;

2) og'zaki shakl; Ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan bosh *maqolalar, felyeton va pamfletlar, murojaatnomalar, chaqiriqlar, deklaratsiyalar* publitsistik uslubning yozma shakliga mansubdir. Radio va televideniyeda chiqayotgan siyosiy sharhlovchilar, notiqarning nutqlari esa publitsistik uslubning og'zaki shaklidir.

Publitsistik uslubning o'ziga xos xususiyati shundaki, u muayyan ijtimoiy masalalarga faol munosabatda bo'lish, hozirjavoblik, ta'sirchanlik belgilariga ega. Bunday nutq uslubida ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar ko'proq qo'llaniladi. M., *isyon, irqchilik, qo'poruvchilar, siyosiy tanglik, bitim* va boshqalar.

Publitsistik uslub - matbuot, radio, teleko'rsatuvga xos bo'lgan tildir. Bu uslub rasmiy va dolzarb xabarlar, axborotlar, e'lonlar, reportaj, bosh maqolalardan iborat bo'ladi. Ularda fikr kichik hajmdagi ommabop jumlar orqali ifodalanadi. Zarur o'rinda asoslar keltiriladi. Shuning uchun ham rasmiy xabarlarida

«muxbirimizning xabar berishicha, elchixona xodimining so'ziga ko'ra, muxbirimiz voqea ro'y bergan joydan xabar beradi ...» va hokazo iboralar

qo'llanadi. Har bir xabarga ta'sirli, xabarning asosiy mohiyatini ifodalovchi sarlavhalar qo'yiladiki, bu hol o'quvchining diqqatini jalb qiladi. («*Qonun barchaga barobarmi?*», «*Kafolat va'da emas*», «*Chetlatilgan mutaxassis*», «*Tuya ko'rdingmi – yo'q*», «*Chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin*»). Ayrim hollarda vaqtli matbuotda felyeton, kichik hikoyalar, romandan parchalar ham beriladi. Bu holda ommabop uslub badiiy uslub bilan qo'shib ketadi. Ommabop uslub kundalik ijtimoiy hayot ko'zgusidir. Ommabop uslubni shakllantiruvchi vositalar ijtimoiy-siyosiy atama va birikmalar bo'ladi: *fuqarolik burchi, iqtisodiy tejamkorlik, siyosiy vaziyat, siyosiy va ijtimoiy kuchlar, iqtisodiy vaziyat, hukumat tangligi* va b. Publitsistik uslub ommaviy axborot vositalari uslubidir. Bu uslubning muhim xususiyati- **axborot berish va ta'sir qilish**, soddalik, tushunarlilik, ta'sirchanlik, adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilishdir. Publitsistika bir qancha janrlarga ega.

Publitsistik uslub – tashviqot-targ'ibot ishlari olib boriladigan, asosan, ijtimoiy-siyosiy hayot yoritiladigan nutq ko'rinishidir. Publitsistik uslub o'zining obrazlilik, hissiy-ta'siriy xususiyati bilan badiiy uslubga; yorqinligi, aniqligi va terminologik leksikasi bilan ilmiy uslubga yaqin turadi. Ijtimoiy-siyosiy masalalarning yoritilishi, tahlil uslubi, ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal etishga undashning faolligi, o'ziga xos terminlar, asosan siyosiy terminlarning ko'p qo'llanilishi singari xususiyatlar publitsistik va ilmiy uslubning o'xshash tomonlaridir. Publitsistik va badiiy uslubning ham o'xshash tomonlari mavjud. Ikkala uslubda ham obrazli ifodalar, tasviriy vositalardan ko'proq foydalaniladi. So'z va terminlar siyosiy ma'nosining badiiy uslub elementlari bilan qorishgan, uyg'unlashgan holda ifodalanishi publitsistik nutqning salohiyatini yanada ko'taradi va uning ta'sirchanligini oshiradi. Publitsistik uslubda ijtimoiy-siyosiy terminlar, gazeta va jurnallarga xos maxsus ifodalar, birikmalar, qat'iy qoliplashgan qurilmalarning tez-tez qo'llanilishi bu uslubning o'ziga xos xususiyatlaridandir: *mustaqillik, ichki tahdid, tashqi tahdid, sovuq urush, ochiq ovoz, yopiq ovoz, buyuk xizmatlari uchun, rasmiy vizit bilan, milliy istiqlol mafkurasi, xalq e'tiqodi, buyuk kelajakka ishonch, shaxs bilan davlat munosabatlari, jamiyatimizning faol ishtirokchisi, mafkuraviy bo'shliq, xavfsizlikka tahdid* va h.k.

Publitsistik uslubda hisssiy-ta'siriy so'zlar va birikmalardan, maqol va hikmatli so'zlardan unumli foydalaniladi. Maqol va hikmatli so'zlar bu uslubda sarlavha nomi bo'lib ham keladi hamda mazkur uslubning yanada yorqinroq bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, *Yaxshidan bog' qoladi. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Mard maydonda sinaladi. Vatan, el manfaati muqaddasdir.*

Mustaqil ta'lim

Leksikologiya. So'z ma'nosining ko'chish yo'llari.



7-MAVZU. NUTQ VA ADABIY ME'YOR.

Reja:

1. Kasbiy nutq.
2. Nutq bayon qilish usullari.
3. Mutaxassis nutqining ilmiyligi, to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyli, sofligi.

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonova M, Fattaxova , Xalmuxammedova U, Inogamova N, Egamberdiyeva N. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). – Toshkent: Mumtoz so'z, 2018.
2. Qo'ng'urov R, Begmatov E, Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat. Darslik. – T: "Barkamol fayz media", 1992. – 424 bet;
3. Muhiddinova X, Salisheva Z, Po'latova X. O'zbek tili (oliy ta'lim muassasalari rus guruhlar uchun darslik). – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 288
4. Aminov M, Madvaliyev A, Mahkamov N, Mahmudov N. Ish yuritish (amaliy qo'llanma). – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.– 456b.

✂ **Mavzuning maqsadi:** Nutq va adabiy me'yorning shakllanishi hamda rivojlanish jarayonlarini tahlil qilish, ularning lingvistik asoslarini o'rganish va nutq madaniyatining ilmiy hamda amaliy ahamiyatini aniqlash.

🔑 **Tayanch iboralar:**

📖 Nutq va uning asosiy xususiyatlari

📝 Adabiy til me'yorlari

🌐 Og'zaki va yozma nutq

📄 Fonetik, leksik va grammatik me'yorlar

✅ Nutq madaniyati va uslublar

📝 **Mavzuning umumiy metodi:**

✂ Tarixiy tahlil

✂ Dialogik yondashuv

✂ Muammoli ta'lim

✂ Venn diagrammasi

✂ T-sxemasi

📖 **Mavzuning dolzarbligi:** Nutq va adabiy me'yorni o'rganish til madaniyati, kommunikativ kompetensiya va milliy merosni saqlash uchun muhim ahamiyatga ega. Adabiy me'yorning shakllanishi va rivojlanishi lingvistika, ta'lim va ijtimoiy muloqot jarayonida dolzarb mavzulardan biri bo'lib, u til siyosati va madaniy taraqqiyot uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Nutq so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko'rinishi bo'lib, u faqatgina lisoniy hodisa sanalmasdan, balki ham ruhiyat, ham nafosat hodisasi hisoblanadi. Shuning uchun ham yaxshi nutq deyilganda, aytilmoqchi bo'lgan maqsadning tinglovchi yoki kitobxonga to'liq etib borishi, ularga ma'lum ta'sir o'tkazishi nazarda tutiladi. Shunga ko'ra nutq oldiga ma'lum talablar qo'yiladi. Bu talablar nutqning kommunikativ sifatlari bo'lib, unda nutqning mantiqan to'g'ri, aniq, chiroyli va maqsadga muvofiq bo'lishi nazarda tutiladi.

Nutq to'g'ri bo'lishi uchun, asosan, ikki me'yorga - **urg'u va grammatik** normaga qattiq amal qilishni talab qiladi. So'zlardagi urg'uning ko'chishi bilan ma'noning ham o'zgarib ketishi mumkinligini esdan chiqarmaslik lozim. Masalan: olma so'zi. Bu so'zni alohida urg'usiz olib qaraganda, uning qanday ma'noda qo'llanilayotganini aniqlash qiyin. Faqat urg'u undagi ma'noning aniqlanishiga ko'maklashadi. Ya'ni olma tarzida wfu birinchi bo'g'inga tushganda, harakat, olma kabi oxirgi bo'g'inga tushganda esa mevaning bir turi ma'nosi anglashiladi. Tilimizda bunday so'zlar anchagina. Masalan, hozir-hozir yangi-yangi, yigitcha-yigitcha, o'quvchimiz-o'quvchimiz so'zlarining ma'nosi ham faqatgina urg'u yordamida oydinlashadi.

Grammatik normaga rioya qilish deganda, gap tuzish qoidalaridan to'g'ri foydalanish, o'zak va qo'shimchalarni qo'shishda xatoga yo'l qo'ymaslik, kelishik qo'shimchalarini o'z o'rnida qo'llash, ega va kesimning mosligi, ikkinchi darajali bo'laklarning ularga bog'lanish qonuniyatlari tushuniladi.

Nutqning madaniyligini ta'min etadigan to'g'rilik, aniqlik mantiqiylik ifodalilik boylik soflik, jo'yalilik kabi bir qator kommunikativ

sifatlar mavjud. Ana shu kommunikativ sifatlarning barchasini o‘zida mujassamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi. Har qanday nutqning asosiy maqsadi muayyan axborotni tinglovchi (o‘quvchi)ga etkazish, shu yo‘l bilan unga ta’sir qilishdan iborat bo‘lib, mazkur sifatlarning jami nutqning ta’sirchanligini yo‘zaga keltiradi.

Alabiy me’yor til unsurlaridan til sistemasi qonuniyatlariga uyg‘un, jamiyat taraqqiyotinin muayyan davrida barqarorlashgan ijtimoiy-nutqiy amaliyot va an’anaga muvofiq holda foydalanish qoidalaridir. Adabiy me’yorning shakllanishi va rivojlanishida jamiyatdagi nutq: amaliyot va, ayniqsa, atolii yozuvchilar — so‘z ustalari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Xuddi shu amaliyotda barqarorlashgan so‘z (yoki boshqa lisoniy birlik)ni qo‘llash doimiy qoida shaklini oladi.

O‘zbek adabiy tilida, asosan, quyidagi me’yorlar farqlanadi:

- 1)leksik (so‘z qo‘llash me’yorlar;
- 2) talaffuz(orfoepik) me’yorlari;
- 3) so‘z yasalishi me’yorlari;
- 4) morfologik me’yorlar;
- 5) sintaktik me’yorlar;
- 6) uslubiy me’yorlar.

Tabiiyki, adabiy tilning yozma shaklida imlo (orfografik) tinish belgilari (punktatsion) me’yorlari ham mavjud bo‘ladi. Bu me’yorlar mutaxassislar tomonidan til qonuniyatlari, shuningdek, tarixiy an’analarga suyangan holda aniq qoidalar shaklida tayyorlanadi va tegishli davlat organi tarafidan tasdiqdanadi. Bu qoidalar ayni paytda imlo lug’atlarida o‘z aksini topadi.

Nutq so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko‘rinishi bo‘lib, u faqatgina lisoniy hodisa sanalmasdan, balki ham ruhiyat, ham nafosat hodisasi hisoblanadi. Shuning uchun ham yaxshi nutq deyilganda, aytilmoqchi bo‘lgan maqsadning tinglovchi yoki kitobxonga to‘liq yetib borishi, ularga ma’lum ta’sir o‘tkazishi nazarda tutiladi. Shunga ko‘ra, nutq oldiga ma’lum talablar qo‘yiladi. Bu talablar nutqning kommunikativ sifatlari bo‘lib, unda nutqning mantiqan to‘g‘ri, aniq, chiroyli va maqsadga muvofiq bo‘lishi nazarda tutiladi.

1. Nutqning to'g'riligi. «To'g'rilik deganda, -deb yozadi V.G.Kostomarov,-nutq madaniyatining zarur va birinchi sharti sifatida adabiy tilning ma'lum paytda qabul qilingan normasiga qat'iy va aniq muvofiq kelishini, uning talaffuz, imloviy va grammatik normalarini egallashni tushunish lozim bo'ladi».

Nutqning to'g'riligi uning eng muhim aloqaviy fazilatidir. Chunki nutq to'g'ri bo'lmasa, uning boshqa kommunikativ sifatlari, ya'ni mantiqiylik, aniqligi, maqsadga muvofiqligiga ham putur etadi.

Nutq to'g'ri bo'lishi uchun, asosan, ikki me'yorga - urg'u va grammatik normaga qattiq amal qilishni talab qiladi. So'zlardagi urg'uning ko'chishi bilan ma'noning ham o'zgarib ketishi mumkinligini esdan chiqarmaslik lozim. Masalan: olma so'zi. Bu so'zni alohida urg'usiz olib qaraganda, uning qanday ma'noda qo'llanilayotganini aniqlash qiyin. Faqat urg'u undagi ma'noning aniqlanishiga ko'maklashadi. Ya'ni olma tarzida urg'u birinchi bo'g'inga tushganda, harakat, olma kabi oxirgi bo'g'inga tushganda esa mevaning bir turi ma'nosi anglashiladi. Tilimizda bunday so'zlar anchagina. Masalan, hozir-hozir yangi-yangi, yigitcha-yigitcha, o'quvchimiz-o'quvchimiz so'zlarining ma'nosi ham faqatgina urg'u yordamida oydinlashadi.

Gap tarkibidagi ayrim olingan so'zga tushadigan urg'u, ya'ni mantiqiy (logik) urg'uning ham ma'noni farqlashda xizmati katta. Hamma tillarda ham qaysi ma'no alohida nazarda tutilayotgan bo'lsa, shu ma'noni ifoda etayotgan so'z alohida urg'u bilan talaffuz qilinadi. Masalan, Anvar xat yozdi gapida kim yozganligi, nima yozganligi yoki nima ish qilganligi nazarga olinib, bu gapdagi so'zlarning har uchalaridan biriga urg'u tusha oladi. Bunday o'rinlarda mantiqiy urg'u ma'noni ta'kidlash uchun kerak.

Lekin shunday holatlar ham borki, butun urg'usida bo'lgani kabi mantiqiy urg'uni ham to'g'ri ishlata bilish kerak.

Chunki bunda xatoga yo'l qo'yilsa, nazarda tutilgan ma'no anglashilmay qolishi mumkin. Demak, nutqni to'g'ri ifodalash uchun ham so'z urg'usining, ham mantiqiy urg'uning to'g'ri ishlatilishiga amal qilishimiz zarurdir.

Grammatik normaga rioya qilish deganda, gap tuzish qoidalaridan to'g'ri foydalanish, o'zak va qo'shimchalarni qo'shishda xatoga yo'l

qo‘ymaslik, kelishik qo‘shimchalarini o‘z o‘rnida qo‘llash, ega va kesimning mosligi, ikkinchi darajali bo‘laklarning ularga bog‘lanish qonuniyatlari tushuniladi.

2. Nutqning aniqligi. - nutqning aniqligi so‘zning o‘zi ifodalayotgan voqelikka mutlaqo mos va muvofiq kelishidir. Aniqlik nutqining muhim fazilatlaridan biri ekanligi qadimdan ma’lum. G‘arb mutafakkirlari ham Sharq olimlari ham aniqlikni nutq sifatlarining birinchi sharti deb hisoblaganlar. Aristotel: «Agar nutq noaniq bo‘lsa, u maqsadga erishmaydi»,— degan.

Aniqlik nutqning muhim xususiyati, fazilati sifatida fikrni yorqin ifodalash bilan, nutq predmetining ma’nosi bilan nutqda ishlatilayotgan so‘z ma’nolarini bilish bilan bog‘liq bo‘ladi. Agar notiq o‘zi fikr yuritmoqchi bo‘lgan nutq predmetini yaxshi bilsa, unga xos so‘zlar tanlasa va o‘zi tanlagan so‘zlarning ma’nolariga mos vazifalar yuklasa nutqning aniq bo‘lishi tayin. Demak, aniqlik nutqda so‘z qo‘llash me’yorlariga amal qilishdan iborat. Aniqlik ikki xil bo‘ladi: narsaning aniqligi va tushunchaning aniqligi. Narsa aniqligi nutqda aks etgan mavjudlikning narsalar, hodisalar doirasi bilan nutq mazmunining munosabatida ko‘rinadi. Nutqda mavjudlikning narsa va hodisalari to‘g‘ri aks etishi uchun notiq o‘zi so‘zlayotgan narsalarni yaxshi bilgan bo‘lishi lozim. Nutq predmetini bilmaslik yoki chala bilish, shuningdek ularni o‘rganishda loqaydlik qilish orqasida yuzaga kelgan noaniqlik yoqimsiz bo‘lib, tinglovchini ranjitadi. Masalan: «Na tashkilotchilik, na rahbarlik, na bilimdonlik qobiliyati bo‘lmagan kishi birdaniga kimning nazariga tushdi?» (Gazetadan).

Aniq nutq yaratish so‘zlovchidan quyidagilarni talab etadi:

a) tilning sinonimik imkoniyatlarini bilish va sinonimik qatorlardan kerakligini ajratib, nutqda qo‘llash;

b) nutqda ishlatiladigan so‘zning anglatgan ma’nolarini har tomonlama bilish;

v) so‘zning ko‘p ma’noligiga jiddiy e’tibor berish, ko‘p ma’noli so‘z nutqda qo‘llanganda uning qaysi ma’no qirradi ko‘zda tutilayotganini aniq tasavvur qilish; fikrning yuzaga chiqishida bu so‘zning boshqa ma’no qirralari monelik qilish- qilmasligini ko‘z oldiga keltirish;

g) omonimlarning xususiyatlarini bilish, chunki ularni bilmaslik aniqlikning buzilishiga olib keladi;

d) paronimlarni bilish, ulardagi tovush yaqinliklariga e'tibor berish;

e) tor muhitda ishlatiladigan, chetdan kirgan, kasb - hunarga oid, arxaik, eskirgan, dialektizm soʻzlarning ma'nolarini yaxshi anglagan holda nutqda kiritish.

3. Nutqning tozaligi. Nutqning tozaligi deganda, eng avvalo, uning adabiy tilning lisoniy normasiga muvofiq kelish - kelmasligi tushuniladi. Darhaqiqat, yaxshi, toza nutq hozirgi o'zbek adabiy tili talablariga mos holda tuzilgan bo'lishi, turli til, gayriadabiy til elementlaridan xoli bo'lishi kerak. Nutqimizning sofligiga, asosan, quyidagilar xalaqit beradi:

1. Mahalliy dialekt va shevalarga xos soʻz, ibora, shuningdek, grammatik shakllar, soʻz va soʻz birikmalarining talaffuzi, urg'usi.

2. O'rinsiz qo'llangan chet soʻz va soʻz birikmalari.

3. Jargonlar.

4. Vulgarizmlar.

5. Nutqda ortiqcha takrorlanadigan «parazit» soʻzlar.

6. Kancelyarizmlar.

Har bir soʻzlovchi o'z nutqining adabiy normalar darajasida bo'lishi uchun harakat qilishi lozim. O'z shevasiga xos bo'lgan til vositalarini nutqqa o'rinsiz olib kirish nutqni buzadi. Lekin dialektizm va varvarizmlar badiiy asar tilida ma'lum badiiy - estetik vazifani bajarishi, muallifning ma'lum g'oyasini, niyatini amalga oshirishga xizmat qilishi ham mumkin.

Xo'sh, nutqimizning toza bo'lishiga xalaqit berayotgan lisoniy unsurlar qaysilar? Bular asosan dialektizmlar va varvarizmlardir. To'g'ri, ular tilimizda ishlatilishi kerak, bu siz bo'lmaydi. Chunki badiiy adabiyot tilida dialektizm va varvarizmlar bilan ma'lum badiiy-estetik vazifani bajarishi, muallifning ma'lum g'oyasini, niyatini amalga oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Idoraviy atamalar (kancelyarizmlar) ham nutqning tozaligiga doimo xavf solib turadi. To'g'ri, ulardan foydalanish zarur. «Kancelyarizm»lar ish qog'ozlari uchun zarur bo'lgan, ma'lum bir shaklda saqlanadigan soʻz birikmalari, gaplardir.

Nutqda o‘rinsiz ishlatilgan boshqa tillarga oid so‘zlar varvarizmlar deb ataladi.

Ayrim kishilarning o‘z nutqini nazorat qilmasligi, «yoqimli» so‘z qidirishda erinchoqlik qilishi, ruscha atamalaming o‘zbekcha shakllarini bilmasligi, ba’zi hollarda o‘zining ruschani xam bilishligini namoyish etishga intilishi natijasida varvarizmlar nutqqa kirib keladi: ertalab zvonit’ qildim, bibliotekaga bordim kabi. Vul’garizmlarga axloq normalariga to‘g‘ri kelmaydigan: kishini so‘kishda, haqoratlashda ishlatiladigan so‘zlar kiradi. Ularni ishlatish so‘lovchining past madaniyatli, qo‘pol johil kishi ekanligini ko‘rsatadi. Badiiy adabiyotda ham ulardan foydalaniladi:

- Uxlab o‘tiribsanmi, xunasa?! Ming marta chaqirishim kerakmi?! (T.Malik).

Parazit so‘zlar deb ataluvchi lugaviy birliklar ham til madaniyati uchun yotdir. Ular, asosan, so‘zlashuv nutqida ko‘p ishlatilib, notiqning o‘z nutqini kuzatib bonnasligi, e‘tiborsizligi natijasida paydo bo‘ladi va bora-bora odatga aylanib qoladi.

Masalan, ayrim kishilar o‘zlari sezmagan holda demak, xo‘sh kabi so‘zlarni qaytaraverishga o‘rganib qolganlar. «Bir dokladchining bir soatlik nutqida,— deb yozadi A. Axmedov.—«o‘rtoqlar» so‘zi 101 marta, «ya’ni» so‘zi 73 marta, «demak» so‘zi 60 marta takrorlanganligining guvohi bo‘lganmiz. Qarang, bir soatlik nutqda 234 ta ortiqcha, «bekorchi» so‘z ishlatilgan-a».

4. Nutqning mantiqiyliги. Nutqning mantiqiyliги uning asosiy sifatlari bo‘lgan to‘g‘rilik va aniqlik bilan chambarchas bog‘langandir. Chunki grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifodalash uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan lug‘aviy birlik ham mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiydir. Mantiqiy izchillikning buzilishi tinglovchi va o‘quvchiga ifodalanayotgan fikrning to‘liq yetib bormasligiga, ba’zan umuman anglashilmasligiga olib keladi.

Nutqni tuzishdagi e‘tiborsizlik natijasida ba’zan mantiqsizlik yuz beradi. Quyidagi misolga e‘tibor qiling «Ferma jonkuyarlari olti oylik davlatga sut sotish planlanni muddatdan oldin bajaradilar (Gazetadan). Ganda so‘zlarning tartibi to‘g‘ri bo‘lmaganiigi, «olti oylik» birikmasining

«sotish» soʻzidan keyin kelmaganligi tufayli mantiqda putur yetishiga, hatto xato fikr ifodalanyapti.’

Xulosa shuki, nutqning mantiqiyligi deganda, yaxlit bir sistema asosida tuzilgan, fikrlar rivoji izchil boʻlgan, har bir soʻz, ibora aniq maqsadga mos holda ishlatiladigan nutqni tushunamiz.

5. Nutqning taʼsirchanligi.

Nutqning taʼsirchanligi deganda, asosan, ogʻzaki nutq jarayoni nazarda tutiladi. Nutqning taʼsirchanligiga erishishda tilning tasviriy vositalari hisoblangan metafora, metonimiya, sinekdoxa, oʻxshatish, epitet, takror va adabiy koʻchimlarning ham roli kattadir. Bulardan tashqari, nutqda taʼsirchanlikni taʼminlash uchun maqolalardan, matallar, hikmatli soʻz va iboralardan, ayniqsa, frazeologizmlardan unumli foydalanish zarur. Yozuvchi A.Qahhor oʻz hikoyalarida epigraf sifatida berilgan maqollar orqali oʻquvchilar diqqatini darhol egalaydi. «Osmon yiroq - er qattiq («Bemor»), «Otning oʻlimi itning bayrami» («Oʻgʻri») va b.

6. Nutqning maqsadga muvofiqligi. Nutqning maqsadga muvofiqligi juda muhimdir. Nutq madaniyati adabiy til meʼyorlarini puxta egallash va ulardan nutqda toʻliq foydalanish demakdir.

Nutq madaniyati yuksak boʻlgan kishi, birinchidan, oʻz nutqini toʻgʻri, adabiy til meʼyorlariga muvofiq tuzadi. Ikkinchidan, til vositalaridan eng muvofiq, eng zarurlarini tanlab olib, nutqning jozibali boʻlishini taʼminlaydi. Shuningdek, nutqning ixchamligi, mazmundorligi ham katta ahamiyatga egadir.


Nutqning madaniyligini taʼmin etadigan toʻgʻrilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soflik, joʻyalilik kabi bir qator kommunikativ sifatlar mavjud. Ana shu kommunikativ sifatlarning barchasini oʻzida mujassamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi. Har qanday nutqning asosiy maqsadi muayyan axborotni tinglovchi (oʻquvchi)ga yetkazish, shu yoʻl bilan unga taʼsir qilishdan iborat boʻlib, mazkur sifatlarning jami nutqning taʼsirchanligini yoʻzaga keltiradi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Nutqning kommunikativ tasnifi nimalardan iborat?
2. Nutqning toʻgʻriligi deganda nimani tushunasiz?

3. Nutqning to'g'riligini buzuvchi vositalar qanday bo'l ishi kerak?
4. Nutqning to'g'riligi buzilgan matnlar bilan ishlash.

topshiriq. Me'yor haqidagi nazariy bilimlarni o'zlashtirib, o'zbek adabiy tili me'yorlari bo'yicha klaster tuzing.



Mustaqil ta'lim

O'zbek tilida so'z yasalishi. Lug'at va uning turlari.

AMALIY MASHG'ULOTLAR

1- MAVZU: O'ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARI UNLI VA UNDOSH HARFLARI IMLOSI

Reja:

1. Yozuv -har bir xalqning ma'naviy boyligi
2. Unlilar imlosi
3. Undoshlar imlosi

Yozuv har bir xalqning ma'naviy boyligi, yuksak madaniyatga erishganligining o'ziga xos ko'rinishi sanaladi. So'zlarning yozilishidagi barqarorlik, qat'iylik millatni yakdillikka, ma'naviy jipslikka yetaklaydi. Shu ma'noda har bir xalq o'z tilining imlo qoidalarini ishlab chiqadi, uni amaliyotga tatbiq etadi.

Kirill yozuviga asoslangan imlo qoidalarimiz 1956-yilda tasdiqlangan edi. Davr o'tishi bilan u eskirdi, amaliy ehtiyojlarimizga javob bermay qoldi. Shu bois, 80-yillarning boshlaridayoq uni yangilashga urinishlar boshlandi. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, mustaqillikning qo'lga kiritilishi yangi imlo qoidalarini ishlab chiqish uchun qulay imkoniyat yaratdi. Lotin yozuviga asoslangan yangi alifboning joriy etilishi esa bu jarayonni yanada tezlashtirib yubordi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995- yilning 24-avgustida 339-sonli «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida» qaror qabul qildi.

O'zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonunini bajarish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlansin;
2. Respublika vazirliklari, idoralari, mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralari, ommaviy axborot vositalari lotin yozuviga asoslangan O'zbek alifbosidagi barcha turdagi yozishmalarda, matbuotda, ish yuritishda ushbu qoidalarni joriy qilish yuzasidan tegishli tadbirlarni ishlab chiqsinlar va amalga oshirsinlar;
3. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Davlat matbuot qo'mitasi uch oy muddat ichida maktablar uchun qo'llanma sifatida o'zbek tilining imlo lug'atini,

kishi ismlari va joy nomlari lug'atlarini tayyorlasinlar va nashr etish choralarini ko'rsinlar;

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Vazirlar Mahkamasining Ta'lim va Fan hamda ijtimoiy masalalar va madaniyat bo'limlariga yuklansin.

Vazirlar Mahkamasining Raisi I.Karimov

1995-yil 24-avgust 339-son Toshkent sh.

U 82 banddan iborat bo'lib, quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Harflar imlosi: a) unlilar imlosi (1—7-bandlar);
b) undoshlar imlosi (8—32-bandlar).
2. Asos va qo'shimchalar imlosi (33—37-bandlar).
3. Qo'shib yozish (38—50-bandlar).
4. Chiziqcha bilan yozish (51—56-bandlar).
5. Ajratib yozish (57—65-bandlar).
6. Bosh harflar imlosi (66—74-bandlar).
7. Ko'chirish qoidalar (75—82-bandlar).

UNLILAR IMLOSI

Yangi imlo qoidalarida unli harflarning yozilishiga keng o'rin ajratilgan. A a harfi savol, zamon, bahor so'zlarida «o» kabi aytilsa ham, har vaqt «a» yoziladi.

O o harfi boshqa tillardan kirgan quyidagi so'zlarda «a» singari talaffuz etiladi, biroq hamisha «o» yoziladi: kollej, monitoring, dekoratsiya, omonim, okulist va h.k. Shuningdek, o ba'zan o' kabi aytilishi ham mumkin, lekin baribir «o» yozilaveradi: tonna, noyabr, boks, tort va h.k.

Ii harfi bilan, bilim, til, tilak, har xil, qism kabi so'zlarda qisqa aytiladi va «i» yoziladi, badiiy, ommaviy, Lutfiy singari so'zlarda «i» cho'ziq aytiladi, lekin doimo «iy» yoziladi.

Uu harfi yutuq, butun, tovuq, sovuq, sovun kabi so'zlarda «i»ga monand talaffuz etilsa-da, qoidaga binoan «u» yoziladi.

O'o' harfi o'zbek, o' lka, o'simlik kabi so'zlarda old qator, o'rta-keng, lablangan unli tovushni ifodalash uchun yoziladi.

E e harfi e'lon, ehtirom, fe'l, bermoq, meros, mone, tole, kofe kabi so'zlarda old qator, o'rta-keng, lablanmagan unli tovushni ifodalash uchun

yoziladi: «e», «ë», «ю», «я» harflari yangi alifboda quyidagicha yoziladi: e: yetti, yetmish, yetim; yo: yolg'iz, yomon, yong'oq; yu: yulduz, yumshoq, yumuq. ya: yakka, yangi, yaroqsiz. Milliard, material, million, radio, ukrain, said, doim, shoir, teatr, okean singari soʻzlar talaffuzida unlilar orasida «y» undoshi qoʻshib aytilsa-da, yozuvda tushib qoladi. Taassurot, taalluqli, taajjub, matbaa, saodat, maorif, muomala, inshoot kabi soʻzlar oʻrtasidagi unlilar yozuvda saqlanadi.

Yonma-yon kelgan unlilar imlosi:

1) unlilar orasiga baʼzan y undoshi qoʻshib aytilsa ham, yozilmaydi:

a) ia: **material, milliard, radiator, tabiat, shariat kabi;**

b) io: **biologiya, million, stadion, radio kabi;**

d) ai: **mozaika, ukrain, said, maishat kabi;**

e) oi: **alkoloid, ellepsoid, shoir, oila kabi;**

f) ea: **teatr, okean, laureat kabi.**

2) ae, oe unlilari soʻz ichida kelganda ikkinchi unli y aytilsa ham, asliga muvofiq yoziladi: **aerostat, poema kabi.**

3) Baʼzi qator unlilardan biri talaffuzda tushib qoladi, ammo unday yozilmaydi: **saodat, muovin kabi**

Boshqa hollarda yonma-yon kelgan unlilar odatda aynan aytiladi va yoziladi: **kauchuk, aorta, burjua, shuaro, sanoat, muammo, matbuot kabi**

Undoshlar imlosi

1. «B» tovushi borib, javob, hisob, bob, xitob kabi soʻzlarda «p», qibla, tobla soʻzlarida «v» tarzida aytilsa ham «b» yoziladi.

2. Avtomat, avtobus, avtomobil kabi soʻzlarda «v» tovushi «f » tarzida talaffuz qilinsa-da, doimo «v» yoziladi.

3. Fursat, fizika, fabrika, fahm-farosat, fasl singari soʻzlarda «f » tovushi «p» kabi aytiladi, lekin asliga muvofiq ravishda har doim «f » yoziladi.

4. Obod, ozod, faryod, tadbir, tadqiqot kabi soʻzlarda «d» tovushi «t » tarzida aytilsa-da, har vaqt «d» yoziladi.

5. Iztirob, tuzsiz, boʻzchi soʻzlarida «z» tovushi «s» kabi aytiladi, biroq hamisha asliga mos ravishda «z» yoziladi.

6. J j harfi jon, jahon, juma, g'ijjak, vaj so'zlarida til oldi, jarangli, portlovchi «j», jurnal, ajdar, garaj, tiraj so'zlarida esa til oldi, jarangli, sirg'aluvchi «dj» undosh tovushini ifodalash uchun yoziladi.

7. Sh sh harfi shahar, shimol, shoshmoq, osh, bosh kabi so'zlarda til oldi, jarangsiz, sirg'aluvchi tovushni ifodalash uchun yoziladi. Sh harfi ikki tovushni ifodalasa, oraga tutuq belgisi qo'yiladi: Is'hoq, as'hob kabi.

8. Ch ch harfi chumoli, choy, achchiq, soch kabi so'zlarda til oldi, jarangsiz, qorishiq undosh tovushni ifodalash uchun yoziladi.

9. R r harfi rahmat, rahm, diyor;

L l harfi lola, bol, olmoq; N n harfi non, ona, osmon;

G g harfi gul, ega, eg;

Kk harfi kam, ikki, tok;

Y y harfi yetti, yuz, dunyo, toy;

Ng ng harfi ko'ngil, tong, ong;

Q q harfi qizil, oq, aql;

G' g' harfi g'oz, og'a, tog';

X x harfi xalq, axborot, baxt;

H h harfi hamma, hosil, ehson, isloh kabi so'zlardagi muayyan tovushlarni ifodalash uchun yoziladi.

10. Farzand, band, poyezd so'zlaridagi «d» undoshi, go'sht, past, artist so'zlaridagi, «t» undoshi talaffuzda tushib qolsa ham yozuvda doimo ifodalanadi.

11. Xuddi shuningdek, metall, kilovatt, kongress kabi so'zlar oxiridagi qo'sh undoshlardan biri talaffuzda tushirilib qoldirilsa ham yozuvda hamisha ifodalanadi.

12. Tutuq belgisi a'lo, ta'lim, e'lon, she'r, fe'l kabi so'zlarda unlidan keyin kelib, uning cho'ziqroq aytilishini ta'minlaydi.

13. Mo'jiza, mo'tadil, mo'tabar kabi so'zlarda o' unlisi cho'ziqroq aytiladi, lekin tutuq belgisi qo'yilmaydi.

14. San'at, in'om, mas'ul kabi so'zlarda unlidan oldin qo'yilib, uning undosh tovushdan ajratib aytilishini ta'minlaydi.

ye, yo, yu, ya harflari ayirish belgisidan hamda ayirish belgisi vazifasida qo'llangan yumshatish belgisidan keyin kelganida ikki nutq

tovushini bildiradi, chunonchi: *адъютант* - *adyutant*, *премьера* - *premyera*, *пьеса* - *pyesa*, *ателье* - *atelye* soʻzlaridagi kabi

■ Ruscha oʻzlashma soʻzlarda *ye, yo, yu, ya* harflari undosh tovushlardan keyin kelganda bir unli tovush, yaʼni a, u, o yoki e tovushiday aytiladi va yoziladi. Masalan: *сентябрь* - *sentabr*, *октябрь* - *oktabr*, *глюкоза* - *glukoza*, *режиссёр* - *rejissor*. Bunday soʻzlardan mazkur qoidalar doirasiga kirmaydiganlari ham bor. Ularning qanday yozilishi imlo lugʻatlarida koʻrsatiladi. Masalan: *samolyot*, *montyor* soʻzlaridagi kabi.

■ бюджет - **budjet**, вертолёт - **vertolyot**, Люксембург - **Luksemburg**, люкс - **luks**, гипюр - **gipur**, миномёт - **minomyot**, моллюска - **molluska**, дублёр - **dublor**, плюс - **plus**, ингалятор - **ingalator**, иллюзия - **illuziya**, парашют - **parashut**, иллюминатор - **illuminator**, пляж - **plaj** самолёт - **samolyot**, салют - **salut**, сюжет - **sujet**.

■ Lotin yozuvida **Цц** undoshi quyidagi hollarda “s” bilan ifodalanadi:

a) soʻz boshida: *sirk, sement, sentner* kabi;

b) soʻz oʻrtasida undosh tovushdan keyin: *konstruksiya, direksiya, induksiya, deduksiya, aksent, ssenariy* kabi;

d) soʻz oxirida: *abzas, shpris, kvars* kabi;

e) old qoʻshimchadan keyin: *telesentr, antisiklon, episentr* kabi;

■ 2. Soʻz oʻrtasida ikki unli tovush orasida “ts” yoziladi: *assimilatsiya, dissimilatsiya, kalkulyatsiya, Sitseron, assotsiatsiya* kabi.

■ Familiyalar imlosi XX asr boshlariga kelib tilimizda familiyalarni koʻrsatuvchi oʻzlashma qoʻshimchalar paydo boʻldi. Bular: -*ov, -ova, -yev, -yeva, -ev, -eva* qoʻshimchalaridir. Ular kishi ismiga qoʻshilib, familiyalarni hosil qiladi. Masalan: *Yunusov, Saidova, Rahmatullayev, Mirzayeva, Ergashev* kabilar.

Yonma-yon kelgan undoshlar imlosi

• Bir boʻgʻinda yonma-yon ikki xil undosh kelgan soʻzlar qator undoshli soʻzlardir: *dars, burch, aks, barg, dolzarb, eksport, elektr, mulk, mushk*

Soʻz boshidagi qator undoshlar oʻrtasiga yoki oldiga bir qisqa unli qoʻshib talaffuz qilinsa ham bu qisqa unli yozilmaydi:

***Pilana* – planeta, pilatforma – platform, pisixolog – psixolog**

***Pirokuror* – prokuror, aqil – aql, shkop – shkaf**

Soʻz oxirida kelgan qator undoshlardan biri talaffuzda tushib qolishi ham mumkin, ammo ular yozuvda ifodalanadi.

***Goʻsh* – goʻsht *Darax* – daraxt *Gʻish* – gʻisht *Farzan* – farzand**

***Metall, kilogramm, kilovatt, kongress* kabi oʻzlashma soʻzlar oxirida yonma-yon kelgan undoshlar mavjud boʻlib, talaffuzda bir undosh aytilsa ham, ikki harf yoziladi. Lekin bunday soʻzga xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qism qoʻshilsa, soʻz oxiridagi bir harf yozilmaydi: *metall* + *lar* = *metallar*, *kilogramm* + *mi* = kilogrammi kabi.**

- Nutqda har xil undosh tovushlarning qator kelishi bilan birga, bir xil undoshlarning qator-qoʻshaloq holda qoʻllanishi ham uchraydi.

- Qoʻsh undoshlar, odatda, oʻzbek tilida soʻz oʻrtasida keladi: ***muqaddas, muammo, yetti, sakkiz* kabi;**

- rus tili orqali oʻzlashgan soʻzlarda esa soʻz oxirida ham: ***gramm, kilovatt* kabi;**

- Ayrim Yevropa va Afrika xalqlarining tillarida hatto soʻz boshida ham kelishi mumkin: ***Lloyd, Nnyanzi* familiyalaridagi kabi.**

- Ogʻzaki nutqda soʻz oʻrtasida baʼzan qoʻshaloq undoshlardan biri talaffuz qilinmasa-da, yozuvda toʻliq saqlanadi: ***hamma* – *hama*, *komissar* – *komisar* kabi.**

- Talaffuzda qoʻsh undoshlardan birini aytmaslik adabiy nutq meʼyoriga ziddir. Chunki bu baʼzan soʻzning lugʻaviy maʼnosiga taʼsir koʻrsatishi ham mumkin: ***sodda* – *soda*, *billur* – *bilur*, *yalla* – *yala*, *modda* – *moda* kabi.**

- Qoʻsh undoshlar baʼzan soʻz oxiridagi undoshdan keyin shu undosh bilan boshlanuvchi qoʻshimcha qoʻshilganda ham hosil boʻlishi mumkin: ***yurak* + *ka*, *barg* + *ga*, *qishloq* + *qa* kabi**

Topshiriq

Yonma-yon kelgan undoshlar qatnashgan soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing!

Mustaqil taʼlim

Morfologiya. Soʻz turkumlarini tahlil qilish.

2-MAVZU: ASOS VA QO‘SHIMCHALAR IMLOSI.

QO‘SHIB YOZISH.

- Orfografiya yunoncha “orpho” – to‘g‘ri, “graphos” – yozaman, ya‘ni “to‘g‘ri yozaman” degan ma‘noni bildiradi.

- Orfografiya so‘zning o‘zak-negizi va qo‘shimchalarini to‘g‘ri yozish, takroriy va qisqartma so‘zlar, shuningdek, qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismlarini qo‘shib yoki ajratib yozish, bosh harflarni ishlatish, so‘z bo‘g‘inlarini ko‘chirish qoidalarini o‘rgatadi.

- **Fonetik tamoyil**

- **So‘zlar va qo‘shimchalar og‘zaki nutqda qanday talaffuz qilinsa, xuddi shunday yoziladi.**

sayla + v = saylov	Tovush almashishi	sayra + qi = sayroqi	Tovush almashishi
sina + v = sinov	Tovush almashishi	o‘g‘il + i = o‘g‘li	Tovush tushishi
so‘ra + q = so‘roq	Tovush almashishi	o‘yna + qi = o‘ynoqi	Tovush almashishi
aya + v = ayovsiz	Tovush almashishi	o‘qi + v = o‘quv	Tovush almashishi
o‘yin + a = o‘yna	Tovush tushishi	qazi + v = qazuvchi	Tovush almashishi
bek + im = begim	Tovush almashishi	qoshiq + i = qoshig‘i	Tovush almashishi
yo‘q + im = yo‘g‘im	Tovush almashishi	shahar + i = shahri	Tovush tushishi
singil + im = singlim	Tovush tushishi	ikki + ov = ikkov	Tovush tushishi

-

ko‘ngil, o‘g‘il, shahar singari so‘zlarga egalik affikslari qo‘shib talaffuz qilinganda o‘zakdagi i va a fonemalari tushiriladi va shu tarzda yoziladi;

yosh, ong kabi so‘zlarga -a yoki -la so‘z yasovchi affikslari qo‘shilib talaffuz qilinganda, o‘zakdagi o unlisi a tarzda o‘zgaradi va shunday yoziladi;

ikki, yetti sonlariga - ov affiksi qo‘shilganda o‘zak oxiridagi i unlisi talaffuzda tushiriladi va shunday yoziladi;

so‘ra, bo‘ya, tanla kabi so‘zlarga - q, -v so‘z yasovchilarini qo‘shib talaffuz qilinganda a tovushi o unlisiga o‘zgaradi va shunday yoziladi;
o‘qiy olmoq, ishlay bermoq kabi so‘zlar talaffuzda ishlayvermoq, o‘qiyolmoq tarzda aytiladi va shunday yoziladi;
rus tilidan o‘zlashgan отпуск, пропуск, счѐт, щѐтка kabi so‘zlar otpuska, propuska, cho‘t, cho‘tka tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi.

• Morfologik tamoyil

So‘zlar va qo‘shimchalar qanday aytilishiga qarab emas, balki har doim bir xilda, asl shakllariga muvofiq yoziladi

Og‘zaki nutqda	Yozma nutqda
ketti, o‘tti	ketdi, o‘tdi
olipti, o‘qipti	olibdi, o‘qibdi
kitoptan	kitobdan
ushta	uchta
chetka	chetga
chigitti yog‘i	chigitning yog‘i
piyozzi to‘g‘radi	piyozni to‘g‘radi

Qo‘shimcha qo‘shilishi bilan so‘z oxiridagi unli o‘zgaradi:

1) a unlisi bilan tugagan fe’llarga -v, -q, -qi qo‘shimchasi qo‘shilganda a unlisi o aytiladi va shunday yoziladi: sayla - saylov, sina - sinov, aya - ayovsiz; so‘ra - so‘roq, bo‘ya - bo‘yoq; o‘yna - o‘ynoqi, sayra - sayroqi kabi;

2) i unlisi bilan tugagan ko‘pchilik fe’llarga -v, -q qo‘shimchasi qo‘shilganda bu unli u aytiladi va shunday yoziladi: o‘qi - o‘quvchi, qazi - qazuvchi, sovi - sovuq kabi. Lekin i unlisi bilan tugagan ayrim fe’llarga -q qo‘shimchasi qo‘shilganda bu unli i aytiladi va shunday yoziladi: og‘ri - og‘riq, qavi - qaviq kabi.

Eslatma:

1) undosh bilan tugagan barcha fe’llarga -uv qo‘shiladi: ol - oluv, yoz - yozuv kabi;

2) undosh bilan tugab, tarkibida u unlisi bor fe'lga -uq qo'shiladi: uz - uzuq, yut - yutuq kabi. Lekin uyushiq, burushiq, uchuriq, bulduriq (shuningdek, bulduriq) kabi so'zlarning uchinchi bo'g'inida i aytiladi va shunday yoziladi.

- k, - q undoshi bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga, shuningdek, bek, yo'q kabi ayrim bir bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda k undoshi g undoshiga, q undoshi g' undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: tilak - tilaging, yurak - yuragim, kubok - kubogi, bek - begi; tayoq - tayog'i, qoshiq - qoshig'i, yaxshiroq - yaxshirog'i, yo'q - yo'g'i kabi. Lekin ko'p bo'g'inli o'zlashma so'zlarga, bir bo'g'inli ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda k, q tovushi aslicha aytiladi va yoziladi: ishtirok - ishtiroki, ocherk - ocherki, erk - erki, huquq - huquqim, ravnaq - ravnaqi, yuq - yuqi kabi.

Quyidagi qo'shimchalar qo'shilishi bilan so'zning tarkibida tovush tushadi yoki ortadi:

1) o'rin, qorin, burun, o'g'il, bo'yin, ko'ngil kabi ba'zi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, qayir, ayir kabi fe'llarga nisbat shaklini yasovchi -il qo'shimchasi qo'shilganda, ikki, olti, yetti so'zlariga -ov, -ala qo'shimchalari qo'shilganda ikkinchi bo'g'indagi unli aytilmaydi va yozilmaydi: o'rin - o'rnim, qorin - qorni, burun - burning, o'g'il - o'g'ling, ko'ngil - ko'ngli, yarim - yarmi; qayir - qayril, ulug' - ulg'ay, sariq - sarg'ay, ikki - ikkov, ikki - ikkala, yetti - yettov kabi;

2) u, bu, shu, o'sha olmoshlariga -da, -dan, -day, -dagi, -ga, -gacha, -cha qo'shimchalari qo'shilganda n tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: unda, bunday, shunda, o'shancha kabi; bu olmoshlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi; buningiz, o'shanisi kabi;

3) o, o, u, e unilari bilan tugaydigan so'zlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi:

a) ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchalari -m, -ng, -si; -miz, -ngiz, -si (yoki -lari) shaklida tovush orttirmay qo'shiladi: bobom, bobong, bobosi, bobomiz, bobongiz, bobosi (yoki bobolari); orzum, orzung, orzusi; orzumiz, orzungiz, orzusi kabi;

b) parvo, obro', mavqe, mavzu, avzo so'zlariga I, II shaxs egalik qo'shimchalari qo'shilganda bir u tovushi qo'shib aytiladi va shunday

yoʻziladi: *parvoyim, parvoying; parvoyimiz, parvoyingiz; obroʻyim, obroʻying; obroʻymiz, obroʻyingiz* kabi; III shaxs egalik qoʻshimchasi *parvo, avzo, obroʻ, mavqe* soʻzlariga -yi shaklida, aka, mavzu soʻzlariga esa -si shaklida qoʻshiladi: *avzoyi, mavzusi* kabi (dohiy kabi u undoshi bilan tugagan soʻzga ham III shaxsda -si qoʻshiladi: *dohiysi* kabi);

4) men, sen olmoshlariga -ni, -ning, -niki qoʻshimchalari qoʻshilganda qoʻshimchadagi n tovushi aytilmaydi va yozilmaydi: *meni, mening, meniki; seni, sening, seniki* kabi.

Quyidagi qoʻshimchalarning birinchi tovushi ikki xil aytilsa ham, bir xil yoʻziladi:

1) -bon, -boz qoʻshimchalari baʼzan -von, -voz aytilsa ham, hamma vaqt

-bon, -boz yoʻziladi *darvozabon, masxaraboz* kabi. Lekin -vachcha qoʻshimchasi hamma vaqt shunday aytiladi va yoʻziladi: *amakivachcha, xolavachcha* kabi;

2) oʻrin-payt kelishigi va chiqish kelishigi qoʻshimchasining, oʻtgan zamon yasovchisi va III shaxs koʻrsatkichi -di qoʻshimchasining boshidagi undosh baʼzan t aytilsa ham, hamma vaqt d yoʻziladi; *ishda, misdan, ketdi, kelmabdi* kabi.

Quyidagi qoʻshimchalarning bosh tovushi ikki yoki uch xil aytiladi va shunday yoʻziladi:

1) taqlid soʻzlardan feʼl yasovchi -illa (chirilla, taqilla) qoʻshimchasi soʻz tarkibida v yoki u tovushi boʻlganda -ulla aytiladi va shunday yoʻziladi: *shovulla, lovulla, gurulla* kabi;

2) nisbat shaklini yasovchi -dir qoʻshimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir boʻgʻinli soʻzlarga (kel soʻzidan boshqa), shuningdek, z undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchisidan keyin qoʻshiladi: *quvdir, egdir, kuldir, yondir; oʻtkazdir, tomizdir* kabi. Qolgan barcha hollarda bu qoʻshimcha -tir aytiladi va shunday yoʻziladi: *tiktir, kestir, uyaltir, chaqirtir* kabi;

3) joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi -ga, chegara bildiruvchi -gacha, ravishdosh shaklini yasovchi -gach, -guncha, -gani, -gudek, sifatdosh shaklini yasovchi -gan, buyruq maylining ikkinchi shaxs koʻrsatkichi -gin, shuningdek,

-gina qo‘shimchasi uch xil aytiladi va shunday yoziladi:

a) k undoshi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda bu qo‘shimchalarning bosh tovushi k aytiladi va shunday yoziladi: *tokka, yo‘lakkacha, ko‘nikkach, zerikkuncha, to‘kkani, kechikkudek, bukkan, ekkin, kichikkina* kabi;

b) q undoshi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda bu qo‘shimchalarning bosh tovushi q aytiladi va shunday yoziladi: *chopiqqa, qishloqqacha, yoqqach, chiqquncha, chiniqqani, qo‘rqqudek, achchiqqina* kabi;

v) qolgan barcha hollarda, so‘z qanday tovush bilan tugashidan va bu qo‘shimchalarning bosh tovushi k yoki q aytilishidan qat’iy nazar, g yoziladi: *bargga, pedagogga, bug‘ga, sog‘ga, og‘gan, sig‘guncha* kabi.

Qo‘shma so‘zlarning quyidagi turlari qo‘shib yoziladi:

Bir tushunchani ifodalovchi va bir bosh urg‘u bilan aytiladigan qo‘shma otlar va qo‘shma sifatlar: kutubxona, tabriknoma, jo‘xoripoya, xushsurat, ilhombaxsh, kamgap, ulug‘ sifat, izzattalab, gultojxo‘roz, oqqush, achchiqtosh kabi. Shuningdek, qaratuvchi birikmaning (olmaning qoqisi - olmaqoqi) bir so‘zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo‘shma otlar qoshib yoziladi, masalan: otquloq, sheryurak, devqomat, kirsovun, nosqovoq, belbog‘, cho‘lyalpiz, so‘zboshi, yurtboshi, makkajo‘xori kabi;

-r, -ar, -mas qo‘shimchasi bilan yasalgan qo‘shma so‘zlar qo‘shib yoziladi: *o‘rinbosar, buzoqboqar, ertapishar, ishyoqma, beshiktervatar, izquvar, ko‘ngilochar, erksevar* kabi.

Ikkinchi qismi turdosh otlardan bo‘lgan geografik joy nomlari: *Yangiyo‘l, Uchquduq, Oqsaroy, Beshariq, Zafarobod* kabi. Lekin ikkinchi qismi atoqli ot bo‘lgan joy nomlari ajratib yoziladi: *Markaziy Osiyo, O‘rta Chirchiq, Ko‘hna Urganch* kabi;

Xona, noma, poya, bop, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab kabi so‘zlar yordamida yasalgan qo‘shma so‘zlar qo‘shib yoziladi: *oshxona, tabriknoma, bedapoya, hammabop, xushbichim, hamshahar, qo‘ymijoz, maymunsifat, kamhosil, umumdavlat, bug‘doyrang* va h.k.

Narsani boshqa bir narsaga qiyoslash orqali hosil qilingan qo'shma otlar va sifatlar qo'shib yoziladi: *toshbaqa, oybolta, qo'yko'z, sherdil, otquloq* singari.

Narsaning rangi, mazasi, nima uchun mo'ljallanganligi kabi ma'no-larni bildiruvchi qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: *ko'ksulton, oqbosh, achchiqtosh, ko'zoynak, suvilon* kabi.

Son bilan otning birikuvidan hosil bo'lgan turdosh qo'shma otlar: *qirqquloq, sakkizoyoq, mingoyoq* kabi;

Rus tilidan aynan o'zlashtirilgan yoki so'zma-so'z tarjima qilish yo'li bilan hosil qilingan qo'shma so'zlar: *kinoteatr, radiostansiya, elektrotexnika, fotoapparat, bayramoldi, teleshou* kabi;

1. Topshiriq. *Gaplarni o'qing, qo'shma otlarni topib, ularning yasallishini tushuntiring.*

1. Qizlar tillaqosh, bargak, zebigardon, qo'ltiq tumor, marjon, uzuk, bilaguzuk taqib, shoyi ko'ylak, nimcha, kamzul kiyib yasanar edilar. (N. Safarov) 2. Laylakqor urib turgan bir kun edi. Birdan bozorboshida do-faryod ko'tarilib qoldi. (Abdulla Qahhor) 3. Elmurod so'rab-surishtirib, nihoyat, ko'pgina chiroqlar charaqlab turgan hovliga kirib keldi. (Parda Tursun) 4. Ariq bo'yida hamisha, har yoz ikkita jaydari atirgul, pastda namozshomgul, gultojixo'roz, sadarayhon o'sib yotadi. (Oybek)

Mustaqil ta'lim

Gapda so'zlarning bog'lanishi. So'z birikmasi.

3-MAVZU O‘ZBEK ADABIY TILIDA CHIZIQCHA BILAN YOZISH, AJRATIB YOZISH

Chiziqcha bilan yozish

1. Juft yoki takror soʻzlarning oʻrtasida chiziqcha ishlatiladi: ota-ona, orzu-umid, kecha-kunduz, qingʻir-qiyshiq; togʻ-togʻ, sekin-tez kabi.

2. Juft soʻzlar orasida -u, -yu yuklamalari ishlatilsa, ular birinchi soʻzdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi: erta-yu kech, osh-u non, oy-u quyosh, bola-yu chaqa kabi.

3. Qop-qora, yam-yashil, toʻppa-toʻgʻri kabi kuchaytirma sifatlar chiziqcha bilan yoziladi.

4. Uyma-uy, oyma-oy, dam-badam singari oʻrtasida -ma yoki -ba qoʻshimchalari kelgan soʻzlar chiziqcha bilan yoziladi.

5. -mi, -gina (-kina, -qina), -oq (-yoq) yuklamalaridan tashqari barcha affiks yuklamalar chiziqcha bilan yoziladi: sen-chi, biz-a, keldi-da, ukasi-ku kabi.

6. Tartib sonlar arab raqamlari bilan yozilsa, chiziqcha ishlatiladi: 26-uy, 6-xona, 2001-yil, 8-mart.

Rim raqamlaridan soʻng chiziqcha ishlatilmaydi: XXI asr, X bob.

Ajratib yozish

Qoʻshma feʼlning qismlari ajratib yoziladi:

sarf qildi, taʼsir et, tamom boʻl, sotib ol, olib kel, olib chiq, miq etma kabi.

Koʻmakchi feʼl va toʻliqsiz feʼl mustaqil feʼldan ajratib yoziladi:

aytib ber, olib koʻr, soʻrab qoʻy, koʻra qol, bera boshla, yiqila yozdi; ketgan edi, ketgan ekan, ketgan emish kabi.

Lekin mustaqil feʼl bilan yordamchi feʼl orasida tovush oʻzgarishi boʻlsa, bunday qismlar qoʻshib yoziladi:

aytaver (ayta ber), boroladi (bora oladi), bilarkan (bilar ekan) kabi.

Koʻmakchilar ajratib yoziladi:

shu bilan, soat sayin, borgan sari, bu qadar, kun boʻyi kabi. Lekin bilan koʻmakchisining -la shakli, uchun koʻmakchisining -chun shakli chiziqcha bilan yoziladi: sen-la, sen-chun kabi.

Hamma, har, hech, bir, qay, u, bu, shu, oʻsha soʻzlari oʻzidan keyingi yoki oldingi soʻzdan ajratib yoziladi:

hamma vaqt, har kim, hech qaysi, qay kuni, u yerda, shu yoqdan, o'sha yoqqa kabi.

Lekin birpas, biroz, birato'la, birvarakayiga, birmuncha, buyon so'zlari qo'shib yoziladi. Shuningdek, qay so'zi yoq, yer so'zlari bilan ishlatilganda bir y tovushi tushsa, bu so'zlar qo'shib yoziladi: qayoqqa, qayerda kabi.

Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan to'q, jiqqa, him, liq, lang, och kabi so'zlar ajratib yoziladi:

to'q qizil, jiqqa ho'l, tim qora, liq to'la, lang ochiq, och sariq kabi.

Murakkab son qismlari ajratib yoziladi:

o'n bir, besh yuz, qirq ming olti yuz bir, bir ming yetii yuz sakson beshinchi kabi.

Yildan yilga, tomdan tomga kabi birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo'nalish kelishigida bo'lgan birikmalar ajratib yoziladi.

Belgining ortiq darajasini bildiruvchi ko'pdan ko'p, tekidan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, qizigandan qizidi kabilar ajratib yoziladi.

Izofali birikmalar ajratib yoziladi. Bunda izofa undosh bilan tugagan so'zlarga i shaklida, unli bilan tugagan so'zlarga yi shaklida qo'shiladi: dardi bedavo, nuqtayi nazar, tarjimayi hol kabi. Lekin izofa yozilmaydigan so'zlar, shuningdek, qismlaridan har ikkisi o'zbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan so'zlar qo'shib yoziladi: gulbeor (guli beor), dardisar kabi.

Topshiriq

“O'zbekiston – jannatmakon o'lka” mavzusida ijodiy matn yaratib, chiziqcha bilan yoziladigan so'zlarning ostiga chizing.

Mustaqil ta'lim

Sodda gaplar va qo'shma gaplar

4-MAVZU. O‘ZBEK ADABIY TILIDA BOSH HARFLAR IMLOSI. KO‘CHIRISH QOIDALARI

“O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari”da bosh harflar imlosi 6-bo‘lim, 66-74-bandlarni o‘z ichiga olgan.

66-qoida. Kishilarning ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: Dilbar, Muhabbat Majidovna, O‘rinova, Azamat Shuhrat o‘g‘li, Alisher Navoiy, Furqat kabi.

67-qoida. Joy nomlari bosh harf bilan boshlanadi: Andijon, Toshkent (shaharlar), Yakkasaroy, Chilonzor (tumanlar), Naymancha, Buloqboshi (qishloqlar), Zavraq (dara), Yorqoq (yaylov), Chig‘atoy, Bog‘iston (mahallalar), Oqtepa, Uchtepa (tepaliklar), Qoratog‘, Pomir (tog‘lar), Zarafshon, Sirdaryo (daryolar), Yoyilma (kanallar, dengizlar, okeanlar), Turkiya, Hindiston (davlatlar) kabi. Bunday atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi: Shimoliy Kavkaz, Markaziy Qizilqum.

68-qoida. Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: Hulkar, Qavs, Mirrix (yulduz va sayyoralar nomi) kabi.

Yer, quyosh va oy turdosh otlari sayyora nomi bo‘lib kelgandagina bosh harf bilan boshlanadi: Yer Quyosh atrofida, Oy Yer atrofida aylanadi. Otiqlar oyning yorug‘ida ketib borishar edi.

69-qoida. Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san‘at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek transport vositalari, sport inshootlariga qo‘yilgan nomlar bosh harf bilan boshlanadi: “Tong” mehmonxonasi, “Saodat” firmasi, “Navro‘z” xayriya jamg‘armasi, “G‘uncha” maktabgacha ta‘lim tashkiloti, “Qutlug‘ qon” romani, “Dilorom” operasi, “Tanovar” kuyi, “Ozodlik” haykali, “Sino” sovutkichlari kabi.

70-qoida. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so‘z bosh harf bilan boshlanadi: Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navro‘z bayrami kabi.

71-qoida. Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir so‘z bosh harf bilan boshlanadi: O‘zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, O‘zbekiston

Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Raisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Tinchlik Kengashi kabi.

72-qoida. Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi so‘zgina bosh harf bilan boshlanadi: Bosh vazirning o‘rinbosari, Mudofaa vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi kabi.

Vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi so‘z bosh harf bilan boshlanadi: Sog‘liqni saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qo‘mitasi, Fanlar akademiyasi kabi.

73-qoida. Davlatlarning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir so‘z bosh harf bilan boshlanadi: “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni, “Oltin Yulduz” medali kabi. Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi so‘zgina bosh harf bilan boshlanadi: “Sog‘lom avlod uchun” ordeni, “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi” faxriy unvoni, “Matbaa a‘lochisi” nishoni kabi.

74-qoida. Tarkibli nomlarning bosh harfidan iborat qisqartmalar, atoqli ot bo‘lmagan ba’zi birikmalarning qisqartmalari bosh harf bilan yoziladi: AQSH (Amerika Qo‘shma Shtatlari), BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), AES (atom elektr stansiyasi) kabi. Qisqartma tarkibida bo‘g‘inga teng qism bo‘lsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: ToshDO‘TAU (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti) kabi.

Topshiriq. Qaysi birlikda xatolik borligini aniqlang.

1. “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni
2. Xalqaro xotin-qizlar kuni
3. Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi
4. Fanlar akademiyasi
5. O‘zbekiston Respublikasi Qarshi harbiy sudi sudyasi
6. Bosh vazir
7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi
8. Birlashgan Arab Amirligi
9. Jahon Tinchlik Kengashi
10. Mars sayyorasi

11. Bodomzor mahallasi

12. Muhammadsharif So‘fizoda

13. Favqulodda vaziyatlar vazirligi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati markazi bosh direktori

14. “Asaka” aksiyadorlik tijorat banki

15. O‘zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini moliyalashtirish jamg‘armasi

16. “El-yurt hurmati” ordeni

17. Bugun Toshkent davlat yuridik universitetiga bordim.

Lug‘at diktant

Dilbar O‘rinova, Hulkar yulduzi, Bodomzor metro stansiyasi, Chig‘atoy ko‘chasi, Ramazon hayiti, Mustaqillik kuni, “Sog‘lom avlod uchun” ordeni, Fanlar akademiyasi, Misr Arab Respublikasi, “G‘uncha” teatri, AES, AQSH, “Nuqtayi nazar” ko‘rsatuvi, Mudofaa vaziri, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Rossiya Federatsiyasi, Yer Quyosh atrofida aylanadi, sovuqmijoz, Kelintushdi marosimi, Yangiyo‘l shahri, “Tong” mehmonxonasi, Jahon Tinchlik Kengashi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT).

Ko‘chirish qoidalar

“O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalar”da ko‘chirish qoidalar 7-bo‘lim, 75-82-bandlarni o‘z ichiga olgan

75-qoida. Ko‘p bo‘g‘inli so‘zning oldingi satrga sig‘may qolgan qismi keyingi satrga bo‘g‘inlab ko‘chiriladi: si-fatli, sifat-li kabi. Tutuq belgisi oldingi bo‘g‘in tarkibida qoldiriladi: va’-da, mash’-al, ma’-rifat kabi.

76-qoida. So‘zning bosh yoki oxirgi bo‘g‘ini bir harfdan iborat bo‘lsa, ular quyidagicha ko‘chiriladi:

- a-badiy emas, aba-diy
- mudofa-a emas, mudo-faa

77-qoida. O‘zlashma so‘zlarning bo‘g‘inlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko‘chiriladi:

- dia-gramma, mono-grafiya

- silin-drik

78-qoida. Bir tovushni ifodalovchi harflar birikmasi (sh, ch, ng) birgalikda ko‘chiriladi: pe-shona, ko‘-ngil, si-ngil, de-**ngiz** kabi.

79-qoida. Bosh harflardan yoki bo‘g‘inga teng qismdan iborat bo‘lgan qisqartmalar, shuningdek, ko‘p xonali raqamlar satrdan satrga bo‘lib ko‘chirilmaydi: AQSh, BMT, O‘zMU, 185, 1974,25

80-qoida. Harfdan iborat shartli belgi o‘zi tegishli raqamdan ajratib ko‘chirilmaydi: 110 gr, 90 mm, 5-“a” sinf, 19 sm kabi.

81-qoida. Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga ko‘chirilmaydi: “Navro‘z–2023” festivali, “O‘qituvchi–2020” ko‘rik- tanlovi, “Foton–774” televizori, “Termiz–16” g‘o‘za navi kabi.

82-qoida. O. M. Po‘latov, A. D. Abduvaliyev kabilarda ismning va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko‘chirilmaydi. Shuningdek, v. b. (va boshqalar), sh. k. (shu kabilar) singari harfiy qisqartmalar ham oldingi so‘zdan ajratib ko‘chirilmaydi.

► Ikki qo‘sh undosh so‘z o‘rtasida kelsa, quyidagicha ko‘chiriladi. M: is-siq, qat-tiq, shaf-fof.

► Bir tovushni ifodalovchi ng va sh, ch harf birikmalaridan so‘ng unli kelsa, harf birikmalari shu unli bilan birga ikkinchi bo‘g‘inga o‘tadi: si-ngil, de-ngiz, ota-ngiz, pi-choq, pe-sho-na, pe-shin.

Agarda harf birikmalaridan so‘ng undosh kelsa, harf birikmalari birinchi bo‘g‘inda qoladi: sing-lim, push-ti, boch-ka, ish-da, och-di, tong-da, tong-gi

Eslatma: “NG” tovushini “N” va “G” tovushlaridan farqlash lozim:

“N” bilan tugagan so‘zga “G” bilan boshlanuvchi qo‘shimcha qo‘shilsa, bular alohida-alohida tovush va alohida bo‘g‘inga ajratiladi: tun-gi, tuman-ga, tin-gach, men-ga, bun-ga...

Shuningdek, ayrim chetdan kirib kelgan o‘zlashma so‘zlarda ham “N” va “G” tovushlari ikkita tovush va alohida bo‘g‘inga ajratiladi: in-gliz, shtan-ga, tan-go, an-gina, kon-gress ...

Topshiriq.

“Men ona tilim bilan farxlanaman” mavzusida matn yarating, unda bosh harflar bilan yozilgan so‘zlarning tagiga chizing!

Topshiriq. So‘zlar va gaplarni bo‘g‘inlarga ajrating.

Kontrakt, shogird, ko‘ngil, ma’ruza, taassurot, monografiya

1. Yangi binolar qishloqlarning husniga husn qo‘shmoqda.

2. Topshiriqni o‘z vaqtida bajarish kerak.

Mustaqil ta’lim

Kasbiy soha bo‘yicha atama va so‘zlarning lug‘atini tuzish.

5-MAVZU. TERMINLARNING YASALISHI

Reja:

- 1.Sohaviy terminlarning yasallishi
2. Morfologik, sintaktik usulda yasallishi
- 3.Semantik usul bilan yasallishi

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonova M, Fattaxova , Xalmuxammedova U, Inogamova N, Egamberdiyeva N. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2018

2. Qo‘ng‘urov R, Begmatov E, Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubi. Darslik. – T: “Barkamol fayz media”, 1992. – 424 bet;

3. Muhiddinova X, Salisheva Z, Po‘latova X. O‘zbek tili (oliy ta‘lim muassasalari rus guruhlariga uchun darslik). – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 288

4. Aminov M, Madvaliyev A, Mahkamov N, Mahmudov N. Ish yuritish (amaliy qo‘llanma). – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.– 456b.

Tilning lug‘at tarkibi doimo o‘zgarishda, rivojlanishdadir. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarida paydo bo‘lgan yangi-yangi tushunchalarni nomlash ehtiyoji tufayli tilda yangi so‘zlar paydo bo‘ladi.

Yangi so‘zlar ikki xil yo‘l bilan vujudga keladi: 1. Har bir tilning o‘z ichki imkoniyati asosida. 2. Boshqa tillardan so‘z olish asosida.

Har bir tilning ichki imkoniyati asosida yangi so‘zlarning hosil qilinishida shu tilda oldin mavjud bo‘lgan so‘zga qo‘shimcha qo‘shish usuli yoki so‘z qo‘shish usuli katta ahamiyatga ega. Masalan, kompyuter hayotimizga kirib kelishi munosabati bilan uning nomi ingliz tilidan to‘g‘ridan to‘g‘ri olingan. Endi «kompyuter bilan ishlovchi shaxs» tushunchasini ifodalash ehtiyojini qondirish uchun kompyuter so‘ziga o‘zbek tilida oldindan «ma‘lum mashg‘ulot bilan shug‘ullanuvchi shaxs» ma‘nosini ifodalovchi -chi qo‘shimchasidan foydalanildi. Kompyuterchi kompyuter bilan shug‘ullanuvchi shaxs» ma‘nosini bildirdi.

Tilda oldin mavjud bo‘lgan so‘zga ma‘lum yasovchi vositalar qo‘shish bilan yangi so‘z hosil qilinishiga so‘z yasallishi bodisasi, shunday hodisani o‘rganadigan tilshunoslik bolimiga esa so‘z yasallishi deyiladi.

Demak ,so‘z yasalishi atamasi ikki ma’noda: a) so‘z yasalishi hodisasi ma’nosida va b) so‘z yasalishi hodisasini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi ma’nosida qo‘llaniladi.

1. Ter, terim, terimchi. 2. Tara, taroq, taroqchi so‘zlariga e’tibor bersangiz, shuni sezasizki, birinchi guruhdagi so‘zlarning hammasida ter so‘zi takrorlanadi, ikkinchi guruhdagilarida esa tara qismi hammasi uchun umumiy sanaladi.

Ko‘rinadiki, so‘z yasalishi hodisasi o‘zining ichki tuzilishiga ega bo‘ladi va ikkita tarkibiy qismni o‘z ichiga oladi: a) yasashga asos qism; b) yasovchi vosita. Yasashga asos qism bilan yasovchi vosita birgalikda yasalmani tashkil qiladi. Masalan, yuqorida keltirilgan terim so‘zida ter qismi yasashga asos, -im qismi yasovchi vosita, ikkala qismning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan hosila esa-terim yasalma hisoblanadi. Terimchi so‘zida esa terim yasashga asos qism, -chi yasovchi vosita, terimchi esa yasalma sanaladi.

So‘zning yasalish tuzilishi bilan morfemik tuzilishi bir-biridan farqlanadi. So‘zning ma’noli qismlarga bo‘linishi uning morfemik tuzilishi sanaladi.

So‘zda nechta ma’noli qism bo‘lsa, uning morfemik tuzilishi shuncha qismga ajraladi. Masalan, terimchi uchta ma’noli qismdan tashkil topgan: ter-im-chi. Terimchilar so‘zi esa to‘rtta ma’noli qismdan iborat: ter-im-chi-lar. Ter-imchilarga so‘zi beshta ma’noli qismdan iborat: Shuning uchun u morfemik tuzilishga ko‘ra besh qismga bo‘linadi: ter-im-chi-lar-ga.

Ko‘rinadiki, so‘zning morfemik tuzilishi yasovchi qo‘shimchalarni ham, so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalarni ham o‘z ichiga oladi. So‘zning morfemik tuzilishini belgilashda ma’noli qismlarning so‘z yasovchi yoki so‘z o‘zgartiruvchi ekanligining ahamiyati bo‘lmaydi. Qanday ma’noli qismlardan- morfemalardan iborat ekanligi e’tiborga olinadi.

So‘zning yasalish tuzilishi esa faqat yasovchilarnigina o‘z ichiga oladi. So‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalar so‘z yasalishi tuzilishiga kirmaydi.

So‘z yasalishi tuzilishi doimo ikkita tarkibiy qismni-yasashga asos va yasovchi vositani o‘z ichiga oladi. Agar so‘zda birdan ortiq yasovchi qo‘shimchalar ishtirok etsa, eng oxirgisi yasovchi vosita sanaladi,

oldingilari esa yasashga asos qism tarkibiga kiradi. Masalan, taroqchi soʻzida -chi yasovchi vosita, taroq yasashga asos, taroqchi yasalma, taroq soʻzida esa -q yasovchi vosita, tara yasashga asos, taroq yasalma hisoblanadi.

Shuni taʼkidlash kerakki, soʻz yasalishi tuzilishida yasashga asos qism bilan yasalma oʻrtasida mazmuniy bogʻliqlik, mazmuniy davomiylik boʻladi. Yasalmada yasashga asos davom etadi. Masalan, tepki soʻzida yasalma boʻlib, --ki yasovchi vositasida tep soʻzidan yasalgan. Tepki yasashga asos qism maʼnosini davom ettiradi: 1. Tepki uchun xoslangan moslama (otish qurolida). 2. Tepki zarbasi (teпки yedi).

Soʻz yasashga asos qismning qanday xususiyatga ega ekanligiga koʻra soʻz yasalishining bir necha usullari bor: 1) yasashga asos qismga qoʻshimchalar qoʻshish orqali (affiksatsiya); 2) soʻzlarni qoʻshish orqali (kompozitsiya). Masalan, ishla soʻzi ish qismiga (yasashga asos) -la qoʻshimchasini qoʻshish yoʻli bilan hosil boʻlgan. Qoʻshma korxona, ishlab chiqarish singari soʻzlar esa ikki soʻzni bir-biriga qoʻshish asosida hosil qilingan.

Hozirgi oʻzbek tilida soʻz yasashning mahsuldor usuli qoʻshimchalar qoʻshish yoʻli bilan soʻz yasash-affiksatsiyadir. Bu usul tilda mavjud bolgan muayyan soʻz yasash qoliplari asosida yuzaga chiqadi. Shuning uchun ham soʻzlovchi xotirasida soʻz yasashning qoliplari mavjud boʻladi. Masalan, ot+chi «shaxs oti yasovchi» (ishchi, temirchi, suvchi); ot+li «belgining mavjudligi yoki ortiqligi» (suvli, mevali) va boshqalar. Ana shu soʻz yasash qoliplari asosida turli-tuman yasama soʻzlar hosil qilinadi.

Soʻzlovchi xotirasida, soʻz yasash qoliplari va ularning maʼnolari haqida koʻnikmaning mavjud boʻlishi har qanday yangi yasalmaning oson tushunilishiga imkon beradi.

Soʻz yasash qoliplari va ularning maʼnolari bir xil yasovchi qoʻshimchali soʻzlarni maʼlum uyalarga birlashtirish asosida aniqlanadi. Masalan:

traktorchi	yigʻla	binokor
kombaynchi	sizla	gʻallakor
suvchi	qoʻlla	paxtakor
ekskavatorchi	oqla	oʻymakor

1-topshiriq

Maqollarni o'qing. So'z yasovchi qo'shimchalar yordamida yasalgan so'zlarni aniqlab, ularni izohlang.

Daraxt ildizi bilan kuchli, inson-do'stlari bilan. Qalbaki do'st ochiq dushmandan yomon. Yo'ldoshini tashlagan yo'lda qolur. Yiqilganda bo'lmasa tirgak, vafosiz do'st nimaga kerak? Rejasiz ish-qolipsiz g'isht. Hushyorlik-mustahkam qo'rg'on. Ezgulikning cheki yo'q. Bahorgi harakat-kuzgi barakat. Go'zallik ilm-u ma'rifatda. Mard maydonda bilinadi, nomard-ishda. Do'stlik barcha boylikdan afzal. Qo'rqoqda uyat bo'lmas. Aqlli o'zini ayblar, aqlsiz-do'stini. O'qigan o'qdan oshar, nodon turtkidan shoshar. Qo'yni qassob so'ysin, oshni oshpaz pishirsin. Nomard non ustida ham nolishini qo'ymas. Itni qopag'on qilgan egasi. Novvoyga non aziz, tegirmonchiga-un. Yer-don, dehqon-xazinabon.

2-topshiriq

Kompozitsion usul bilan yasalgan so'zlarni namunadagidek ko'chirib yozing.

Qo'shma otlar: oqqush... Qo'shma ravishlar: har yerda... Qo'shma sifatlar: sheryurak... Qo'shma fe'llar: borib kelmoq...

bilaguzuk, olachipor, tamom bo'lmoq, shirinso'z, achchiqtosh, sakkizoyoq, bodomqovoq, oltingugurt, tillaqo'ng'iz, e'lon qilmoq, kamunum, obod aylamoq, olib kelmoq, sarson etmoq, tumanlararo, biryo'la, umumxalq, bir zumda, kinonigoh, sadarayhon, o'zibo'larchilik, tekintomoq, ikkiyoqlama, ta'zim aylamoq, kinoyulduz, olibsotar, g'ayrat qilmoq, kirib chiqmoq, havorang, oshpichoq, kamsuv, biokimyo, umumshahar.

Savol va topshiriqlar

1. Tilning lug'at tarkibi qanday boyib boradi?
2. So'z yasalishi deganda nimani tushunasiz?
3. Temirchi, dutorchi, xizmatchi so'zlarini ma'noli qismlarga bo'lib, bu so'zlar uchun umumiy bo'lgan qismni toping va ma'nosini tushuntiring.
4. So'z yasashning qanday usullarini bilasiz?
5. Affiksatsiya usuli haqida so'zlang.
6. So'z yasash qolipi nima?

7. Soʻz yasash qolipi qanday aniqlanadi?

“Sport – tinchlik elchisi” mavzusida matn yarating va atamalarni toping.

Mustaqil taʼlim

Kasbiy soha boʻyicha kichik hajmdagi maqola yozing.

6-MAVZU. LEKSIKOLOGIYA. SO‘Z VA UNING ATASH MA’NOLARI

Har qanday tilni o‘rganayotgan paytingizda, eng avvalo, sizni qurshab turgan narsa va hodisalarning amaliy hayotingiz bilan bog‘liq bo‘lgan turli xil harakati, holatlari, belgi va xususiyatlarining shu tilda qanday ifodalanishini, nomlanishini bilishdan boshlaymiz.

Ma‘lum bir tildagi ana shunday so‘zlar yig‘indisi shu tilning lug‘at tarkibini tashkil qiladi.

Leksika atamasi ikki ma’noda qo‘llaniladi:

- 1) tilning lug‘at tarkibi, so‘zlar yig‘indisi;
- 2) lug‘at tarkibini o‘rganuvchi tilshunoslikning alohida bo‘limi.

Leksika atamasining ikkinchi ma’nosi uchun leksikologiya atamasi ham qo‘llaniladi.

Leksikologiya yunoncha *lexikos* - so‘z, so‘zga doir va *logos* - ta’limot so‘zlarining birikuvidan olingan bo‘lib, leksika (so‘z) haqidagi ta’limot demakdir. Demak, so‘z va uning ma’nolarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limiga leksikologiya (ba’zan leksika) deyiladi.

Nutqimiz so‘zlarning qo‘shiluvidan hosil bo‘ladi. So‘zni talaffuz qilganimizda va qulog‘imiz bilan eshitganimizda go‘yo u faqat tovushlar ketma-ketligidan tashkil topgan butunlikdek tuyuladi. So‘zni bunday tasavvur qilish bir yoqlamadir, chunki har qanday tovushlar birikmasi so‘zni hosil qilavermaydi. Masalan, *so‘*, ***ko‘***s singari tovush birikmalarini so‘z deb bo‘ladimi? Yo‘q. So‘z bo‘lish uchun tovushlar birikmasining o‘zigina kifoya qilmaydi. Ma‘lum tovush va tovushlar birikmasi ma’no bilan bog‘langandagina so‘zga aylanadi. Yuqoridagi tovush birikmalarining tartibini o‘zgartirsak, ular ma‘lum ma’no bilan bog‘lanadi. Masalan, *o‘*s, ***so‘k*** kabi.

Demak, so‘zning ikki tomoni: moddiy tomoni (tovush yoki harflar ketma-ketligi) va ma’no tomoni mavjud.

Ma‘lum ma’no bilan bog‘langan va morfologik shakllangan tovush yoki tovushlar birikmasi so‘z sanaladi.

So‘z ikki xil ma’no bildiradi. Bu ikki xil ma’noni *opa* so‘zi misolida ko‘rib chiqaylik.

Opa soʻzi *aka, uka, singil* singari soʻzlar bilan qarindoshlik maʼnosi bilan bir guruhga birlashadi. Ayni paytda, bir guruhga mansub boʻlgan yuqoridagi soʻzlar bir-biriga zidlanganda, maʼlum maʼnolari bilan oʻzaro farqlanadi.

Xususan, *opa* soʻzi *oʻgay opaga* zidlanganda, qon-qarindoshlik (oʻgay emaslik) maʼnosini bildirishi bilan; *opa* soʻziga zidlanganda, men bilan bir boʻgʻinga mansublik maʼnosini bildirishi bilan; *aka, uka* soʻzlariga zidlanganda, ayol jinsiga mansublik maʼnosi bilan; *singil* soʻziga zidlanganda esa *opaniing* mendan kattalik, singilning esa kichiklik maʼnosiga egaligi bilan farq qiladi.

Opa soʻzining boshqa qarindoshlik bildiruvchi soʻzlar bilan birlashtirib turadigan va ayni paytda, ularni bir-biridan farqlaydigan maʼnolarining jami uning atash maʼnosi yoki leksik maʼnosi deyiladi.

Opa soʻzi yuqoridagi maʼnodan tashqari predmetlik, bosh kelishik, birlik maʼnolariga ham ega. Bu maʼnolar uning grammatik maʼnosi sanaladi. Koʻrinadiki, nutq jarayonida har bir soʻz leksik va grammatik maʼnolar uygʻunligidan tashkil topadi. Odatda, leksik va grammatik maʼnolarning muayyan tovush yoki tovushlar birikmasi bilan barqaror munosabatidan tashkil topgan butunlikka nisbatan **soʻz** atamasi qoʻllaniladi.

Grammatik maʼnosiz, faqat leksik maʼno bildiruvchi til birligi uchun **leksema** atamasi qoʻllaniladi. Bunday vaqtda **soʻz** morfologiya birligi sifatida, **leksema** esa leksikologiya birligi sifatida bir-biridan farqlanadi.

Demak, tahlil jarayonida gap tarkibidan soʻzlarni ajratamiz. Soʻzlar esa leksema va grammatik qoʻshimchalarga boʻlinadi. **Tilning lugʻaviy (leksik) maʼno bildiruvchi birligi leksema sanaladi.** Lugʻatlarda bosh soʻz sifatida leksemalar beriladi.

Nutq jarayonida ikki va undan ortiq maʼnoda qoʻllaniluvchi soʻzlarga koʻp maʼnoli soʻzlar yoki **polisemiya** deyiladi. Polisemiya yunoncha *poli - koʻp, semia - maʼno* soʻzlaridan olingan boʻlib, koʻp maʼnoli demakdir. Polisemiya monosemiya (yunoncha *mono - bir, semia - maʼno*)ga zidlanadi.

Koʻp maʼnoli soʻzlarda maʼno qanchalik koʻp boʻlsa ham, lekin u bir soʻz hisoblanaveradi. Shuning uchun ham koʻp maʼnoli soʻzlarda

ma'nolardan biri to'g'ri ma'no (yoki o'z ma'no), qolganlari esa ko'chma ma'no bo'ladi. Ko'chma ma'nolar nutq tarkibida boshqa so'zlar bilan bog'langanda namoyon bo'ladi, nutq tarkibidan ajratilganda esa to'g'ri ma'nosi asosiy ma'no bo'lib qoladi. Masalan, *tosh* so'zi nutq qurshovidan ajratib olinsa, «qattiq jism» ma'nosini anglatadi.

Bir ma'noli so'zlar tilimizda kam sonni tashkil qiladi va ilmiy, kasb-hunarga doir atamalarni, shuningdek, yangi paydo bo'lgan so'zlarni o'z ichiga oladi. Yangi so'zlar (neologizmlar) ham davrlar o'tishi bilan qo'shimcha ma'nolarni anglatadi.

Ko'p ma'noli so'zlarning ma'nosini bilish va undan nutq jarayonida o'rinli foydalanish nutqning ta'sirchan, ifodali bo'lishiga yordam beradi.

3. Ko'p ma'noli so'zlar va ma'nolarning to'g'ri va ko'chma ma'nolarga bo'linishini yuqorida ko'rib o'tdik.

4. Borliqdagi narsa - hodisa, belgi - xususiyat, harakat - holat nomlari ma'lum bir asosga ko'ra boshqa narsa - hodisa, belgi - xususiyat, harakat-holat nomi sifatida ham qo'llaniladi. Bunday vaqtda bitta nom bitta narsa - hodisa, belgi - xususiyat, harakat - holatlarning nomiga xizmat qiladi. Masalan, *burun* so'zi «tirik organizmning yuz qismidan bo'rtib chiqqan nafas olish organi» ma'nosini ifodalashi bilan birgalikda «yerning suvlikka tomon bo'rtib chiqqan qismi» ma'nosi ham ifodalaydi. Predmetlar o'rtasidagi tashqi o'xshashlik (yuz qismidan bo'rtib chiqqan burun bilan yer qirg'og'ining dengiz yoki okean qo'riqidan bo'rtib chiqishi o'rtasidagi o'xshashlik) birining nomini ikkinchisi o'rnida qo'llashga asos bo'lgan.

Ma'no ko'chishining nima asosda ro'yobga chiqishiga ko'ra **metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik** singari turlari ma'lum.

Tilning leksik qatlamlari

Hozirgi o'zbek tilining lug'at tarkibi (so'z boyligi) o'zbek tilining butun tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan hodisadir. Undagi so'zlarning paydo bo'lish davri va kelib chiqish manbai ham har xildir. Umuman, har qanday til o'z lug'at tarkibi va grammatik qurilishiga ega bo'ladi. Lekin xalqlar o'rtasidagi uzoq tarixiy davrlar mobaynida davom etadigan iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar bu xalqlarning tillariga ham shubhasiz, o'z ta'sirini ko'rsatadi. Natijada bir tilga xos fonetik, leksik va

boshqa elementlar ikkinchi bir tilga o'tib o'zlashib ketadi. Bunday o'zaro ta'sir etish, ayniqsa, leksikada bo'ladi.

O'zbek xalqi ham o'z tarixining turli davrlarida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqada bo'lgan va bu xalqlarning tili o'zbek tiliga ma'lum darajada o'z ta'sirini qoldirgan. Xususan, boshqa tillardan o'zbek tiliga ko'plab so'zlar o'zlashganini shu ta'sir bilan izohlash mumkin. Natijada o'zbek tili lug'at tarkibida shu tilning o'ziga xos leksik qatlam bilan birga o'zlashgan qatlam ham yuzaga kelgan.

O'z qatlamga o'zbek tilining o'ziniki bo'lgan, shuningdek, turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'zlar kiradi. O'zbek tili lug'at tarkibida turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'zlar anchagina qismni tashkil etadi. Bunday so'zlar barcha so'z turkumida bor. Masalan: *tosh, tog', yer, bosh, suv, til, kishi, bola, men, sen, biz, siz, bu, shu, qora, qizil, sariq, yaxshi, yomon, erta, indin, ilgari* va boshqalar.

O'zbek tilining bevosita o'ziniki bo'lgan asosiy leksik qismini shu tilning taraqqiyoti jarayonida uning ichki imkoniyatlari, o'ziga xos qonun-qoidalari asosida hosil etilgan yasama so'zlar tashkil etadi. Bunda uch holat kuzatiladi:

2) asli o'zbekcha so'zlardan shu tilga oid affikslar yordamida yasalgan so'zlar: *qatnashchi, terimchi, qotishma, qo'llanma, turg'un, bolalarcha* kabi;

3) o'zlashma so'zlardan o'zbek tili vositalari yordamida hosil qilingan so'zlar;

a) tojikcha so'zlardan yasalgan so'zlar: *jangchi, mardlik, sabzavotchik, do'stlik, pulsiz, xastalanmoq*; b) arabcha so'zlardan yasalgan so'zlar: *rahbarlik, qimmatli, ovqatlanmoq*; v) ruscha-baynalmilal so'zlardan yasalgan so'zlar: *sportchi, betonlamoq*;

4) boshqa tillardan o'tgan yasovchi vositalar yordamida o'z va o'zlashma so'zlardan hosil qilingan so'zlar: *tilshunos, mehnatkash, kitobxon, vagonsoz, ilmiy*.

O'zlashgan qatlam

Forscha-tojikcha so'zlar. Fors-tojik tilidan so'zlar tovush o'zgarishlarisiz olingan. So'z o'rtasi va oxirida qo'sh undoshlar keladi, tarkibida *no-, ba-, be-, ham-* kabi old qo'shimchalari bo'ladi. Masalan:

andisha, barg, bahor, daraxt, farzand, daromad, buromad, ozoda, noma'lum, bedarvoza, hamkasb. **Arabcha so'zlar.** Arab tilidan o'zlashgan so'zlarning ko'pchiligi fan va dinga oid bo'lib, asosiy qismi fors tili orqali kirgan. Masalan: *adabiyot, kitob, oila, davlat, mehnat, muqaddas, san'at, a'lo, mutolaa, doim, inshoot* kabi.

Ruscha-baynalmilal so'zlar. Rus tili va u orqali g'arb tillaridan o'zlashgan so'zlar fan-texnika, siyosiy-iqtisodiy sohalarga oid. Bu so'zlar ikki usulda: aynan va kalkalab olish bilan o'zlashgan. Bunday so'zlar o'rtasida undoshlar yonma-yon keladi, so'z oxirida qo'sh undoshlar, qorishiq tovushlar, old qo'shimchalar ishlatiladi. Masalan: *benzin, vokzal, stol, deputat, dialekt, diagramma, budjet, sentabr, metall, interaktiv* kabi.

Savol va topshiriqlar

1. Leksika nima?
2. Leksikologiya nimani o'rganadi?
3. So'zning leksik ma'nosi deganda nimani tushunasiz?
4. So'zning grammatik ma'nosi nima?
5. Leksema va so'z nimasi bilan bir-biridan farq qiladi?
6. Ko'p ma'noli so'zlar nima?
7. Ko'chma ma'no qanday aniqlanadi?
8. To'g'ri ma'no qanday aniqlanadi?

Topshiriq

Berilgan so'zlarni ikki ustunga bo'lib ko'chiring.

Ko'p ma'noli	Bir ma'noli
(polisemantik)	(monosemantik)

Atlas, xosiyat, kompyuter, xurmo, xunuk, parcha, xoreografiya, patir, pasta, patnis, g'ildirak, g'isht, g'oz, g'uncha, gazeta, grammatika, urg'u, dunyo, tilxat, paxta, soya, shaxs, olmosh, doya, qoshiq, qoya, xat, quy, davlat, qushni, marketing, vertolyot, tirnoq, maqol, uy, tom, kirish so'z, undalma, yuvg'ich, dars, haykal, topishmoq, aruz, tish, til ...

topshiriq. Me'yor haqidagi nazariy bilimlarni o'zlashtirib, o'zbek adabiy tili me'yorlari bo'yicha klaster tuzing.

“Maqollar zanjiri” metodi

Maqollardagi nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan so‘zlarni qo‘yib chiqing.

№	<i>Maqollar</i>	<i>Javob</i>
1.	Dilni dilga ...	
2.	Intizomli lashkar...	
3.	Sarishtali uy -... uy.	
4.	... kurashga to‘ymas.	
5.	... topsa, bo‘lib yer,... topsa bosib yer.	
6.	Rejali ish – hamisha...	
7.	Shoshganda ...	
8.	... yaltiroqning ...	
9.	Qoqilsang ...dan	
10.	... bilan ... egizak.	

Mustaqil ta’lim

Chetdan kirgan atama va soha so‘zlarini og‘zaki va yozma shaklini tushuntirish.

7-MAVZU. TINISH BELGILARINING IFODALANISHI

Punktuatsiya soʻzi yunoncha –punktum|| – –nuqta, oʻrin, joy|| degan maʼnoni anlatadi, yaʼni tinish belgilarini oʻrganadi. Hozirgi kunda yozma nutqimizda 10 ta tinish belgilardan foydalanamiz. Ular quyidagilar:

I. Nuqtaning yozuv belgisi sifatida ishlatilishi qadimgi arab manbalariga boribtaqaladi. U oʻzbek tilida tinish belgisi sifatida XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ishlatila boshlangan.

Nuqta oʻzbek tilida, odatda, quyidagi oʻrinlarda ishlatiladi:

1. His-hayajonsiz aytilgan darak, buyruq gaplardan soʻng.

Milliy istiqlol sharofati bilan yangicha tafakkur va yangicha fikrlash shakllanmoqda. Oʻzingga ravo koʻrmagan narsani boshqalarga ham ravo koʻrma. Farzandlarimiz doimo sogʻlom boʻlsin.

2. Atov gaplardan keyin.

Ilk bahor. Daraxtlar endi kurtak yoza boshlagan palla.

3. Ismi, otasining ismi (baʼzan familiya ham) qisqartirilganda, ularning birinchi harfidan soʻng.

M. Behbudiy, A. Fitrat, A. Choʻlpon kabi ijodkorlarning nomi hamisha barhayotdir. *A.S. Pushkin* — rus poeziyasining quyoshi.

4. Nashriyot ishlarida, lugʻat va maʼlumotnomalarda shartli ravishda qisqartirilgan ayrim soʻzlarning birinchi harfi yoki boʻgʻinidan soʻng

va sh.k. (va shu kabilar); s.t. (soʻzlashuv tilida); || Gʻ. Gʻ. (Gʻafur Gʻulom); Nav. (Navoiy); Toshk. (Toshkent); «Oʻqituvchi» nashr.; 1995-y.

5. Qoʻshma gapning birinchi qismidan soʻng kuchli toʻxtam boʻlsa, mantiqan biri ikkinchisiga bogʻlanmagan qoʻshma gaplar orasida ham nuqta ishlatiladi. Bunday hollarda ikkinchi gap ammo, lekin, biroq, chunki, shuning uchun bogʻlovchilari bilan boshlanishi mumkin.

Bobodehqon yerga baraka urugʻini ekish bilan band. Chunki dalalarda ish qizgʻin.

6. Baʼzi bir hollarda yil, oy, kunni ifodalovchi raqamlardan

so‘ng ham nuqta qo‘yilishi kuzatiladi: 21.03.2010.

7. Butunning qismlarini sanash uchun qo‘llanilgan arab raqamlaridan so‘ng ham nuqta ishlatilishi mumkin.

Tovushlar quyidagi turlarga bo‘linadi: 1. Unli tovushlar. 2. Undosh tovushlar.

8. Hisob-kitob ishlarida nuqta belgisidan ko‘paytiruv alomati sifatida ham foydalaniladi. $2 \cdot 2 = 4$ (Ikki karra ikki- to‘rt).

II. Vergul tinish belgisi sifatida G‘arbiy Yevropada XV asrdan boshlab ishlatila boshlangan. O‘zbekcha matnlarda XX asr boshlaridan boshlab uchraydi. Undan quyidagi o‘rinlarda foydalaniladi.

1. Uyushiq bo‘laklar orasida:

Bolalarning xulqi, odobi, yurish-turishi, ko‘cha-ko‘yda, mahallada o‘zini tutishi, do‘stlari orasidagi mavqeyi, hurmati, oila yumushlariga qo‘shayotgan hissassi bilan doimo qiziqib turish lozim (M. Inomova).

2. Undalmalar vergul bilan ajratiladi.

*Uka, o‘qishning erta-kechi bo‘lmaydi. Men Sizni, **oyijon**, juda yaxshi ko‘raman. Salom sizga, **purviqor tog‘lar!***

3. Kirish so‘z va kirish birikmalardan so‘ng.

***Shubhasiz**, Vatanimiz jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoridan o‘rin olajak. **Forobiyniing yozishicha**, inson jamiyatda, o‘zaro munosabatlarda voyaga yetadi.*

4. Tasdiq, ta’kid, inkor va shu kabi ma’nolarni bildiruvchi *ha, yo‘q, rahmat, xo‘sh, qani, xayr, ofarin, salom* kabi so‘z-gaplardan keyin kelgan bo‘laklarni ulardan ajratish uchun ham vergul qo‘yiladi.

***Ha**, hushyor bo‘lish har bir fuqaroniing Vatan oldidagi muqaddas burchidir. **Xayr**, biz jo‘nab ketyapmiz. **Xo‘sh**, xalq uchun siz nima ish qildingiz? Bu haqda o‘ylab ko‘rdingizmi?*

5. Ajratilgan bo‘laklar orasida.

*Onaga, **eng ulug‘, zotga**, ehtirom chinakam insoniylilik sanaladi. O‘zbekistonda, **jahonga yuz tutgan obod va ozod mamlakatda**, demokratiya kundan kunga barqarorlashib bormoqda.*

6. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni tashkil qilgan sodda gaplar orasida

Do'sting mingta bo'lsa ham oz, dushmaning bitta bo'lsa ham ko'p. Yurgan — daryo, o'tirgan — bo'ya.

7. Bog'langan qo'shma gaplarda ham vergul ishlatiladi.

Bilimli va tadbirkor bo'ling, lekin bu xislatlaringiz sizni xudbinlikka sira yetakmalasin. Yo biz boraylik, yo siz keling.

8. Undov so'zlar his-hayajon bilan aytilmasa, ulardan so'ng vergul ishlatiladi.

Ey, menga bir minutga qarab qo'ying.

9. Ko'chirma gap darak, buyruq gap bo'lsa, undan so'ng vergul qo'yiladi.

«Inson qalbi javohirlardek toza, pok bo'lmog'i lozim», — deb aytgan edi Abu Rayhon Beruniy.

III. So'roq belgisining kelib chiqishini lotincha *questio* — so'roq so'ziga olib borib taqaydilar. So'roq ma'nosida mazkur so'zning birinchi harfi «Q» ishlatila boshlagan, keyinchalik uning shakli hozirgi holatga (?) kelib qolgan, o'zbekcha matnlarda 1885-yildan boshlab uchraydi. 1900-yildan so'ng muntazam ishlatila boshlangan.

So'roq belgisi quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. So'roq gaplarning oxirida.

Yomonlikning jazosiz qolmasligini bilasizmi? Navoiyning tilshunoslikka bag'ishlangan qanday asari bor? Vazifani bajarib bo'ldim (darak gap). Vazifani bajarib bo'ldim? (ohang o'zgaradi).

2. *Kim? nima? qanday? qanaqa? qaysi?* kabi so'roq olmoshlaridan so'ng.

Rang-tusni bildiruvchi sifatlar qanday? qanaqa? qaysi? so'roqlariga javobbo'ladi.

3. Gap yoki matn ichidagi birorta so'z yoki jumla mujmal, noaniq, tushunarsiz bo'lsa, undan so'ng qavs ichiga qo'yiladi. «Toping!» ma'nosida.

Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» qissasida (?) o'zbek xalqining yaqin o'tmishi haqida hikoya qilinadi. $5 \cdot 5 = ?$ (matematikada).

IV. Undov belgisi o'zbek tiliga rus tilidan o'tgan. Mutaxassislarning fikricha, ulotincha *lo* — undov so'zidan kelib chiqqan bo'lib, unga nuqta (.) ning qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Undov belgisi quyidagi hollarda ishlatiladi:

1. Kuchli his-hayajon bilan aytilgan gaplardan so‘ng qo‘yiladi.

Oqpodsho yerdan bir siqim tuproq oladi.

— *Ana tuproq, mana tuproq! — deydi. — Bo‘rsildoq tuproq, mag‘izdor tuproq, hosildor tuproq. Tuproqmisan-tuproq! (Tog‘ay Murod)*

2. Buyurish, yalinish, istak, xohish va shu kabi ma‘nolarni ifodalovchi gaplarning oxirida ham ishlatiladi.

Siz ham oyoqni ishlating! — deb buyurdi. Suv ostida o‘pqnlar ko‘p. Tortib ketmasin! (P. Qodirov)

3. So‘z boshida kelib, kuchli his-hayajon bilan aytilgan undalmalardan so‘ng qo‘yiladi.

Ey arslonlar arsloni! Mening yozuqlarimdan o‘t, mening qo‘limni tut, belimni bog‘la, muqaddas fotihangni ber! (A. Fitrat)

4. *Ha, yo‘q, xo‘p, uzr, mayli, xayr, salom* kabi so‘z-gaplar hayajon bilan aytilsa, ulardan so‘ng qo‘yiladi.

Balli-balli! — dedi Rahim va Sharifga qarab im qoqdi. (A. Qodiriy)
Yo‘q! Borolmayman, — dedi qayrilib.

5. Matn ichida alohida ta‘kidlangan, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardan keyin qavsichida berilishi mumkin.

«Boburnoma»da tarix, etnografiya, til, adabiyot geografiya, biologiya, botanika, hatto tabobatga (!) oid g‘oyat qimmatli ma‘lumotlarni uchratish mumkin.

6. Aytilishi lozim bo‘lgan fikr o‘ta kuchli his-hayajon bilan aytilsa, ketma-ket uchta belgi qo‘yiladi.

Charos kafti bilan yuzini to‘sgancha o‘zini orqaga tashladi.

— *A-a-a!!! — dedi chinqirib. (O‘. Hoshimov)*

— *Chiqar buni jallod!!! Jallodlar harakatlandilar.*

— *Xanjarimiz qonsirag‘on! (A. Qodiriy)*

7. His-hayajon bilan aytilgan so‘roq, shuningdek, ritorik so‘roq gaplardan so‘ng.

Kimdir seni kutsa, kimnidir sen ham sog‘insang, qanday baxt bu! (O‘. Hoshimov)

V. Qavs o‘zbek yozuvida XIX asrning oxirgi choragidan boshlab ishlatila boshlangan. Dastlab «Turkiston viloyatining gazetisi» da 1873-

yilda ishlatilgan.

U quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:

1. Kiritma gaplarda. *O‘zbekiston paxta ishlab chiqarish bo‘yicha yetakchi davlatlardan biri hisoblanib (Xitoy, AQSH, Hindiston va Pokistondan keyin beshinchi o‘rinda turadi), eksport bo‘yicha AQSHdan so‘ng ikkinchi o‘rinda turadi.*

2. Remarkalarda. *Xon (yolg‘iz). Shu tiriklikdan-da bezdirdilar meni (Turib yuradur). Bir dushmanimning qoni qurimayin yana bittasi chiqib qoladur. (A. Fitrat)*

3. Olingan misollar yoki gaplar manbayida. *Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidur. (Abdulla Avloniy) Jannat onalar oyog‘i ostidadur. (Hadisdan).*

«Qasosli dunyo». («Avlodlar dovoni» romanidan)

4. Izoh ma‘nosidagi so‘z yoki so‘z birikmalarida.

Ro‘za hayiti (Iyd al Fitr) va Qurbon hayiti (Iyd al Adha)ning birinchi kuni O‘zbekiston Respublikasi hududida dam olish kuni deb belgilangan. Demokratiya

yunoncha so‘z bo‘lib, tarjimada xalq hokimiyati (demos — xalq, kratos — hokimiyat) ma‘nosini bildiradi.

5. Shaxs, joy, asar, hodisa va shu kabilarning ikki xil varianti berilsa, ulardan biri qavsga olinadi. *«Qutadg‘u bilig» («Baxt keltiruvchi bilim»).* *Shuhrat (G‘ulom Aminjonovich Olimov) atoqli o‘zbek yozuvchilaridan biridir.*

Eslatma. Qavsdan matematika fanida ham keng foydalaniladi. $(57 + 38) - 17 = ?$

[] ko‘rinishidagi qavsdan foydalanish hollari ham ko‘p uchraydi. Masalan, egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda shah [a] ri, o‘r [i] ni, sing [i] lisi so‘zlaridagi

«a», «i» tovushlari qoidaga ko‘ra tushiriladi kabi.

VI. Ko‘p nuqta XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘zbekcha matnlarda ishlatila boshlangan. 1876-yildan e‘tiboran «Turkiston viloyatining gazetisi» da muntazam qo‘llangan.

Ko‘p nuqta quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:

1. Mazmunan tugallanmay qolgan gaplar oxirida.

To‘ra biroz o‘ylab turgach, podshoning devordagi suratini, so‘ngra o‘zining yelkasidagi pogonini ko‘rsatdi.

— *Mana shu imperiya... .*

Miryoqub hech narsa anglamadi. (A. Cho‘lpon)

2. So‘zlovchining cheksiz his-hayajonini, beqiyos tabiat manzaralarini ifodalash uchun.

Do‘xtir ayol og‘iz berkitib piq-piq yig‘ladi.

— *Men... men O‘zbekistonda besh-olti yil ishlab edim, — deya yig‘ladi. — Bechora xalq-a, bechoragina xalq-a.. (T. Murod). Qish... Butun atrof oppoq libosda...*

3. Matn (jumla) qisqartirilsa.

— *Anovi kuni menga bir oyat aytib edingiz?*

— *Xo‘sh, xo‘sh?*

— *Ilkimdin kelguncha. deb boshlanar edi.*

— *Ha-ha, bo‘tam, lekin bu oyat emas, hazrat Navoiyning hikmatlaridur. (X. To‘xtaboyev)*

4. Fikr bo‘lib-bo‘lib ifoda qilinsa yoki duduqlanib aytilsa.

Muhammadyor yolg‘iz:

— *Turkistonda birinchi m...m...m... artaba tia... t... t... tr, — dedi-da, fikrg‘a toldi. (A. Cho‘lpon)*

5. Suhbatdoshining gapi javobsiz qoldirilsa.

— *Manavi dub eshiklaringizni yelkamda tashib kelganman. Tushundingizmi?*

— ...

— *Tushundingizmi, deyaрман? (X.Sultonov)*

6. Tushirib qoldirilgan harf, so‘z yoki boshqalar o‘rnida. *Nuqtalar o‘rniga kerakli harfni qo‘yib ko‘chirib yozing. Xayri...x, a...loq, ...abar.*

VII. Tireni amaliyotga rus yozuvchisi N.M. Karamzin (XVIII asr) kiritgan. U o‘zbek yozuvida XIX asrning 70-yillaridan boshlab ishlatila boshlangan.

Tire quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:

1. *Dialoglardagi har bir gapning boshida.*

— *Amaki, o‘ylab gapiryapsizmi? Qancha yo‘l yurib kelganimizni bilasizmi?*

— *Bilmayman. Qayerdan kelganingizning menga farqi yo‘q.*

— *Siz tabibmisiz o‘zi?*

— *Odamlar shunaqa deyishadi. Olloh istasa, men bir vositachi bo‘laman-u, dardmandga shifo yetadi. Bo‘lmasa yo‘q.*

— *Nima mening oshnamni davolashni Xudoyingiz istamayotibdimi? — dedi Kesakpolvon g‘ijinib.*

— *Olloh bir meniki emas, barchamizniki, — dedi chol ovozi bir parda ko‘tarib. — Siz nomusulmon odamga o‘xshab so‘zlar ekansiz. (T. Malik)*

2. *Bog‘lamasiz qo‘llangan ot- kesim bilan ega orasida.*

Til — millatning qalbi. Yer — don, dehqon — xazinabon. Mehnating — boyliging.

3. *Uyushiq bo‘laklardan keyin kelgan umumlashtiruvchi so‘zdan oldin.*

O‘zbek, qirg‘iz, qozoq, turkman, tojik — barchamiz bitta yurtning farzandlarimiz.

4. *Muallif gapi bilan ko‘chirma gap orasida.*

«Oddiylik axloqiy barkamollikning bosh shartidir», — deb yozgan edi L.N. Tolstoy.

5. *Ma‘lumot mazmunidagi asosiy gapdan so‘ng tartib bilan sanalgan har bir gapboshida.*

1996-yil 26-aprelda ta‘sis etildi:

— *«Amir Temur» ordeni;*

— *«Buyuk xizmatlari uchun» ordeni.*

6. *Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda ikkinchi gapning kesimi tushirilsa.*

Olamni quyosh yoritadi, insonni — ilm.

7. *Ayrim so‘z yoki gaplar izohlansa, ularning o‘rtasida.*

O‘zbekiston Milliy sug‘urta kompaniyasi — «O‘zbekinvest». Veksel — qimmatbaho qog‘oz, pul qarz olganlik haqidagi tilxat, qarz hujjatidir.

8. *Zid ma‘noli bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar orasida.*

Vaqting ketdi — baxting ketdi.

9. *Kirishlar va ajratilgan bo‘laklar har ikki tomonidan vergul yoki tire bilan asosiy bo‘laklardan ajratiladi.*

Biz — yoshlar — millatning tayanchi, Vatanning ishongan tog'larimiz. Samarqanddagi Ulug'bek rasadxonasida — bir paytlari bu yerdan turib ulug' bobomiz osmon ilmini o'rgangan edi — katta ko'lamda ta'mirlash ishlari boshlab yuborildi.

10. Tenglik, taqqoslash va hokazo ma'nolarni bildiruvchi so'zlar orasida:

Toshkent — Andijon avtomobil yo'li ta'mirdan chiqarilmoqda.

11. Nashr, kitobot ishlarida.

Sultonov X. Onamning yurti. Qissa va hikoyalar. — T.: «Adabiyot va san'at nashriyoti», 1987.

Eslatma: Hisob-kitob bilan bog'liq fanlarda tire ayirish belgisini bildiradi: 307

– 23. Bugun Toshkentda —3°C sovuq bo'ladi.

VIII. Qo'shtirnoqni amaliyotga rus olimi prof. A.A.Barsov kiritgan. O'zbek yozuvida u kiritish belgisi sifatida XIX asrning 80-yillaridan boshlab uchraydi.

Qo'shtirnoq quyidagi o'rinlarda ishlatiladi.

1. Ko'chirma gap qo'shtirnoqqa olinadi.

«Apil-tapil qilingan ishning umri qisqa», — degan edi Sa'diy Sheroziy.

I.V. Gyote shunday deb aytgan edi: «Donishmandlik faqat haqiqatdadir». «Er kishigazeb-u ziynat, — degan edi Alisher Navoiy, — hikmat va donishdir.»

2. Sitatalar qo'shtirnoq ichida yoziladi.

Buyuk yozuvchimiz A. Qahhorning quyidagi gaplari hali-hanuz o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q: *«Yozuvchi adabiyotga ikki xil kiradi: birinchi asari bilan tutab, biri yashnab kiradi.*

Tutab kirgan yozuvchi uzoq tutaydi, ko'nglidan chiqarib emas, qornidan chiqarib yozadi. Yozuvchilikka cho'g'day yashnab kirgan yozuvchi asardan asarga yashnayveradi...»

3. Ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlar, ishlatilishi odat tusiga kirmagan, eskirgan yoki yangi qo'llanayotgan, kesatiq, piching, do'q-po'pisa va shu kabi ma'nolarni bildiruvchi leksik birliklar qo'shtirnoq ichida yoziladi.

... oradan yana bir necha oy o'tib, uchinchi marta sud bo'lgan. Bu safar Botirovning «jinoyati» o'n bir yillik qamoq bilan **«taqdirlandi»**. (T Malik) **«Xalq artisti»**, beliga o'q tekkanday erta-yu kech to'rdagi karavotga yonboshlab **«Teatr»** jurnalini varaqlaydi, xalq artisti bo'lmoq sirlarini axtaradi, chamasi. (E.A'zamov)

4. Badiiy asarlar, gazeta, jurnal, musiqa asarlari, spektakl va kartina nomlari qo'shtirnoq ichida beriladi.

«Lison ut-tayr» (Qush tili) asari haqida suhbatlashdik.

«Ma'rifat» gazetasi, **«Saodat»** jurnali,

«Mening oppoq kabutarlarim»

spektakli, **«Sohibqiron»** dramasi, **«Amir Temur»** portreti.

5. Korxona, muassasa, tashkilot, zavod, fabrika, mehmonxona, kema nomlari qo'shtirnoq ichida yoziladi.

«Uzdunrobita» qo'shma korxonasi, **«Kochxolding»** konserni, **«Kamolot»** ijtimoiy harakati, **«Istiqlol»** tennis sport majmuasi, **«Diyor»** savdo uyi, **«Ekosan»** xalqaro jamg'armasi, **«O'zbekavtotrans»** Davlat aksionerlik korporatsiyasi,

«O'ZDEUavto» O'zbekiston — Janubiy Koreya qo'shma avtomobil zavodi,

«Chorsu» mehmonxonasi.

6. Transport (mashina, samolyot, avtobus va sh.k.) larning markasini bildirgan so'zlar, o'simliklarning turini, mahsulotlarning nomini ifodalovchi leksik birliklar qo'shtirnoqqa olinadi.

«Neksiya» rusumli yengil mashina, **«Boing»** samolyoti, **«Otayo'l»** mikroavtobusi, **«Rayhon»** alkogolsiz ichimligi, **«Kibo»** oyoq kiyimi, **«Hojimatov damlamasi»**.

7. Ayrim orden va medallar, faxriy unvonlar nomi qo'shtirnoq ichida beriladi.

«El-yurt hurmati» ordeni 1998-yil 28-avgustda ta'sis etildi. Professor Q.G'. Abdullayev **«O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi»** faxriy unvoni bilan mukofotlandi.

8. Qonun, farmon, buyruqlarning nomi, ayrim bandlari qo'shtirnoq ichida beriladi.

1995-yilning 6-may kuni **«Lotin yozuviga asoslangan o'zbek**

alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonuniga o'zgartirishlar kiritish haqida» Qonun qabul qilindi.

9. Sinflarning tartibini bildiruvchi harflar, baho ballari ham qo'shtirnoq ichida beriladi.

11-«A» sinfi «Quvnoqlar va zukkolar» bahsida g'olib chiqdi. O'qituvchimiz bugungi javobimga «besh» baho qo'ydi.

IX. Ikki nuqta o'zbek yozuvida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridan e'tiboran ishlatila boshlangan.

U quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. Shaklan tugallangan, lekin mazmunan keyingisi birinchisining uzviy davomisanalgan bog'lovchisiz qo'shma gaplardan so'ng.

Oltmishga kirib bildim: umrim bekorga o'tmabdi, odamlarga kerakli ekanman hayotda iz qoldiribman. (A. Qahhor)

2. Ko'chirma gapdan oldin kelgan muallif gapidan so'ng.

Bundan so'ng Qutidor turib ichkariga yugurdi, yarim yo'ldanoq tanchadao'tiruvchi Oftoboyim va Kumushga qichqirdi:

— Sir ochildi! (A. Qodiriy)

3. Uyushiq bo'laklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan keyin.

O'zbekiston Respublikasining Davlat ramzlari: Davlat bayrog'i, Davlat gerbi va Davlat madhiyasi milliy iftixorimiz, sharaf va shonimiz sanaladi.

4. Reja, mavzu, qaror qilindi kabi so'zlardan so'ng. *Mavzu: «Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostoni». Yuqoridagilar asosida yig'ilish qaror qabul qildi:*

I. *Jamoaning Navro'z bayramiga tayyorgarlik ishlari" qoniqarli" deb topilsin.*

II. *Navro'z — umumxalq bayramini ko'tarinki ruhda munosib kutib olish uchun yana zaruriy chora-tadbirlar ishlab chiqilsin.*

5. Uslubiy ravonlikni, muxtasarlikni ta'minlash maqsadida turli xil rasmiyma'lumotlarda, nashr ishlarida ayrim so'zlardan keyin.

Toshkentda «Mustaqil O'zbekiston: falsafa va huquqning dolzarb masalalari» mavzusida uchinchi an'anaviy Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi bo'lib o'tdi.

6. Sport musobaqalarida raqiblar o'rtasidagi hisobni ifodalash uchun olingan ochkolar yoki kiritilgan gollarning nisbatini belgilash uchun.

Sidneydagi XXVII yozgi olimpiada o'yinlarida hamyurtimiz Muhammadqodir Abdullayev raqibini 27 : 21 hisobi bilan yengdi.

«Andijon» va «Paxtakor» komandalari o'rtasidagi o'yin durang natija bilan tugadi — 2 : 2.

Eslatma: Hisob-kitob ishida bo'luv alomati sanaladi. 100 : 2 — 50

X. Nuqtali vergul o'zbek yozuvida 1885-yildan boshlab uchraydi. U quyidagi o'rinlarda ishlatiladi.

1. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar mazmun jihatidan tugal fikrni anglatib, bir-biriga yaqin bo'lmagan hollarda.

Lekin avtor shu kichkinagina hikoyada katta ish qiladi; o'quvchining ko'z oldiga odamning havasi keladigan, har qanday kishining muhabbatini o'ziga qaratadigan, har qancha izzat qilsa arziydigan va bu izzatga o'zining jafokashligi, g'ayrati, farosati, el-yurt uchun qayg'urishi bilan sazovor bo'lgan bir chol keladi.(A. Qahhor)

2. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibiga kirgan sodda gaplardagi voqealar bir-biriga qiyoslanganda.

Ish kuchini yelga berma, yerga ber; jamg'armani selga berma, elga ber!Yaxshini yomon dema, olising bo'lsa ham;

Yomonni yaxshi dema, yaqining bo'lsa ham.

3. Uyushiq bo'laklar guruhlanib, o'zaro vergullar yordamida bir-biridan ajratilganda, har bir guruhni anglatuvchi so'zdan keyin.

Gerb rangli tasvirda bo'lib, Humo qushi kumushrangda; quyosh, boshoqlar, paxta chanog'i va «O'zbekiston» degan yozuv tillarangda; g'o'za shoxlari va

barglari, vodiylar yashil rangda; tog'lar havorangda; chanoqdagi paxta, daryolar,yarimoy va yulduz oq rangda beriladi.

4. Reja, qaror, farmon, buyruq, qonun va shu kabilarning oxirgi bandidan tashqari har bir bandi oxirida.

Otabek timsoliga tavsif:

a) *Otabek — o'qimishli, o'z davrining yetuk kishisi;*

b) *Otabek — mard va jasur yigit;*

d) *Otabek — o‘z ahdiga sodiq, vafoli yor.*

Matnlarni ko‘chirib yozing. Tirening qo‘yilish sabablarini tushuntirib bering.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 137-moddasiga muvofiq quyidagi kunlar bayramlar sifatida dam olish kunlari deb belgilandi:

1-yanvar — Yangi yil;

8- mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni; 21-mart — Navro‘z bayrami;

9- may — G‘alaba kuni (Xotira va qadrlash kuni); 1-sentabr — Mustaqillik kuni;

8-dekabr — Konstitutsiya kuni.

Jo‘rayev N. Agar ogoh sen... : Portretga chizgilar: Siyosiy esse. — T.:

«Sharq», 1998.

«Turkcha baxtsizdir. Ming yillardan beri ezila kelmishdir, lekin bitmamishdir. Bitmas, yashamishdir, yashar. Negakim, boydir...» — deb yozgan edi A. Fitrat ona tilimiz haqida.

Ko‘laga yalingansimon unga yaqin yurib keldi...

— Kim bu?

— Men Kumush!

Otabek tovush egasini tanidi. Bu majnuna Zaynab edi.

— Ket mundan!

— Men Kumush!.. — dedi Zaynab, ammo ketmay iloji qolmadi. Zeroki, dunyodagi eng yaqin kishisi unga «ket!» amrini bergan edi. (A. Qodiriy)

Mustaqil ta’lim

Soha doirasida esse yozish

8-MAVZU. ILMIY VA ILMIY-OMMABOP MATNLAR. IXTISOSLIKKA OID ILMIY MATNLARDA SOHAVIY TERMINLAR.

1. Ilmiy va ilmiy-ommabop matnlar
2. Ixtisoslikka oid ilmiy matnlarda sohaviy terminlar

Ma'lum voqelik haqida tasavvur (ma'lumot) beradigan bir yoki bir necha sintaktik birliklardan tashkil topgan nutqiy butunlik matn hisoblanadi. Matn ikki xil ko'rinishda bo'ladi: **dialogik va monologik**. **Dialogik** matn ikki va undan ortiq suhbatdoshning turlicha mazmundagi fikr-axborot almashinuvidan iborat. Ikki kishi o'rtasidagi dialog nutq savol-javob, buyruq-javob, xabar-e'tiroz kabi mazmunlarda bo'lib, fikr xususidagi tasdiq yoki inkorni, ziddiyat yoki munozarani ifodalaydi. Ko'p kishilik dialoglarda suhbat mavzusi savol-javobdan iborat bo'lmay, o'rta tashlangan savol, taklif, da'vat biror xabar, dalillar bilan xulosalanadi.

Dialogik matn tarkibida so'roq olmoshlari, muomala odobiga oid so'z va iboralar, yuklamalar, undovlar, kirish so'zlar keng qo'llanadi. Bunday matndagi gaplar asosan sodda gaplardan tashkil topadi, sodda gaplarning bir tarkibli turlari, to'liqsiz gaplar, so'z-gaplar faol ishlatiladi. Dialogik matn so'zlashuv uslubi va badiiy uslubga xosdir.

Monologik (tavsifiy) matn so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan bayon etilgan voqea-hodisa, narsa yoki shaxs tasviri, tavsifi yoxud xabar, ma'lumot bayonidir. Maqola, insho ham tavsifiy matnning bir turi sanaladi. Ma'lum voqea-hodisalarga, narsa va shaxslarga oid fikr-mulohaza bildirish, ularni badiiy-tasviriy vositalar yoki dalillar bilan ta'riflash, izohlash, isbotlash, asoslash tavsifiy matnga xos xususiyatlardandir. Shuning uchun bunday matnda belgi-xususiyat ifodalovchi so'zlar, atamalar, modal so'zlar, fe'lning funksional shakllari, ravishlar faol qo'llanadi. Monologik matn yaratishda uyushiq bo'laklar, ajratilgan gap bo'laklari, atov gaplar, qo'shma gap ko'rinishlaridan ham keng foydalaniladi. Monologik matn ilmiy, publitsistik, rasmiy-idoraviy, shuningdek, badiiy uslubga xosdir.

Ixtisoslikka oid matn tuzishda esa quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim:

- matnning qaysi nutq uslubida yozilishi kerakligini oldindan bilish;

- ixtisoslikka oid soʻz va shartli belgilarni toʻgʻri tanlay olish va oʻrinli joylashtirish;
- soʻz va terminlarni imlo meʼyorlariga rioya qilgan holda yozish;

Matn tuzishda soʻz va terminlarga alohida ahamiyat berish lozim.

Soʻzlarning lugʻaviy maʼnosini bilgan holda ishlatish, terminlarni toʻgʻri va toʻliq talaffuz eta olish, matnga mos terminni tanlash kerak.

- tanish boʻlmagan yoki faol qoʻllanmaydigan termin, shartli belgi yoki qisqartmalarga qavs ichida izoh berish;

- ixtisoslikka oid terminlarni boshqa tillardan oʻzlashtirish va soʻz yasashda milliy tilning tabiatini nazarda tutish;

- terminlarni oʻrinsiz takrorlanishiga yoʻl qoʻymaslik, ularning taʼsirchanligini oshirish

maqsadida leksik, morfologik va sintaktik sinonimiya imkoniyatlaridan oʻrinli foydalanish va boshqalar.

Umuman ixtisoslikka oid soʻz va terminlarni toʻgʻri tanlash hamda qoʻllash nutq madaniyatining, kasbiy bilimdonlikning muhim sharti hisoblanadi. Soʻz va termin tanlashda quyidagilarga eʼtibor berish zarur soʻzning lugʻaviy maʼnosini bilgan holda tanlash;

- tanlangan terminni aniq talaffuz eta olishni nazarda tutish;

- soʻzning, terminning tushunarli boʻlishini hisobga olish;

- terminning maʼno xususiyatiga asosanib, uni maqsadga muvofiq tarzda tanlash;

- baynalmilal terminlarni adabiy tilning leksik meʼyoriga muvofiq holda tanlash;

- terminni matn mazmuniga mos tarzda tanlash;

- soʻz va terminni matnning uslubiy xususiyatiga mos ravishda tanlash.

Har qanday matnni unda ifodalangan axborotning hajm belgisiga koʻra **minimal matn** va **maksimal matn** tiplariga ajratish mumkin. Badiiy uslubda yozilgan matnda **mikro matn** deb biror mavzuni yoritishga bagʻishlangan qatralar, xalq donishmandligini ifodalaydigan maqol, matal va aforizmlar, miniatyuralar, hajviy asarlar, nomalar, sheʼr va sheʼriy parchalar, umuman, kichik mavzuni qamrab oluvchi bir necha gaplardan iborat butunlik tushuniladi. Matn ichki tomonining mazmun yaxlitligi,

tashqi tomonini esa turli shakldagi bog'lamalar, sintaktik vositalar birlashtirib turadi.

Mikromatnni hosil qilishda takrorlar eng muhim vositadir, chunki u ham gaplarni boglovchi vosita hisoblanadi, ham uslubiy bo'yoqdorlik hosil qiladi.

E'tibor bering:

Olti oykim, she'r yozmayman, yuragim zada,

Olti oykimi, o'zgalarga tilayman omad.

Olti oykim, do'stlarim ham pana-panada

Iste'dodim so'nganidan qilar karomat. (A, Oripov)

Takrorlar gap oxirida qollanilishi ham mumkin.

Angladimki, olamda

Yurt tanho, Vatan tanho

Band etgan xayolimni

Tengsiz shu chaman tanho,

Nokaslar emas, yo'q- yo'q,

Yolg'iz sen o'zing tanho

Onajonim, she'riyat,

Jonajonim she'riyat (A, Oripov)

Makromatn deyilganda keng ko'lamdagi voqealarni yoritish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan butunlik nazarda tutiladi. Badiiy uslubda hikoya, qissa, roman, epopeya kabi yirik hajmli asarlar makromatnlar hisoblanadi. Bunday matn tarkibida epigrafi, so'zboshi, epilog kabi yordamchi qismlar ham ishtirok etishi mumkin. Ular asar mazmuni va g'oyasiga, shuningdek, mavzuning tanlanishi va yoritilishiga oid ayrim masalalarga qo'shimcha izoh va sharh bo'lib keladi. Makromatn tashqi jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. **Ommabop ilmiy matn.** Uning maqsadli auditoriyasi - muayyan sohada maxsus mahorat va bilimga ega bo'lmagan auditoriya. Ommabop ilmiy matn taqdimotning ko'pgina ta'riflari va ravshanligini saqlab qoladi, biroq uning xislatlari his qilish uchun juda soddalashtirilgan. Shuningdek, bu uslubda hissiy va ifodali nutq shakllaridan foydalanishga ruxsat beriladi. Uning vazifasi keng jamoatchilikni ba'zi fakt va hodisalar bilan tanishtirishdir. 1980-yillarning oxirlarida sababsiz emas, uslubiy - ilmiy va

badiiy matnlar to‘plami paydo bo‘ldi . Bu maxsus atamalar va raqamlardan foydalanishni kamaytiradi va ularning mavjudligi batafsil tushuntirishga ega. Ommabop ilmiy uslublar uchun quyidagi xususiyatlar xarakterli: kundalik moslamalarni taqqoslash, o‘qish va his qilish qulayligi, soddalashtirish, tasniflashsiz umumiy voqealarni bayon qilish va umumiy sharh. Ushbu yo‘nalish bo‘yicha ekspozitsiyalar ko‘pincha kitoblar, jurnallar, bolalar ensiklopediyalarida chop etiladi.

2. O‘quv va ilmiy matn. Bunday asarlarni qabul qiluvchi talabalardir. Xabarning maqsadi ma’lum bir materialni qabul qilish uchun zarur bo‘lgan faktlar bilan tanishishdir. Ma’lumotlar ko‘plab misol namunalari bilan umumiy shaklda taqdim etiladi. Ushbu uslub professional terminologiyadan foydalanish, qat’iy tasniflash va tekshirishdan muayyan holatlargacha silliq o‘tish bilan tavsiflanadi. Ishlar o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarda nashr etiladi.

3. Aslida ilmiy matn. Ushbu sohada mutaxassislar va olimlar manzilga murojaat qiladilar. Ishning maqsadi - ma’lum faktlar, kashfiyotlar va naqshlarni tasvirlashdir. Dissertatsiyalarda, hisobotlarda va sharhlarda mavjud bo‘lgan ilmiy uslublar nafaqat terminni, balki shaxsiy, hissiyotsiz xulosalarni ham chiqarishga imkon beradi.

4. Texnik va ilmiy matn. Bunday uslubning asarlari tor profilning mutaxassislariga qaratilgan. Maqsad - bilim va yutuqlarni amalda qo‘llash. Kengaytirilgan tasniflashda, yuqorida keltirilgan turlarga qo‘shimcha ravishda, shuningdek, informatsion va ma’lumotnoma ilmiy matnlar ham mavjud.

Savol va topshiriqlar:

1. Matn nima?
2. Matn necha xil ko‘rinishda bo‘ladi?
3. Ixtisoslikka oid matn tuzishda nimalarga e’tiborni qaratish lozim?
4. Makro va mikromatnni farqlang.

1. Topshiriq. Quyida berilgan parchadan mikromatnni boglovchi vositalarni toping

Mastura! Uning qollariday mayin, iliq, mehribon qollar bormi olamda? Uning barmoqlariday nozik, kishining boshini silaganda qalbini nurga to‘ldirib, dilini ravshan qiladigan barmoqlar bormikin dunyoda? Odatda opa-singil, aka-ukalar uncha inoq bolavermaydilar, biroq Mashrab esini taniydiki, qulog‘ida Masturaning mehribon, muloyim ovozi yangraydi.

Ilgari, Mastura turmushga chiqmasdan burun, Gulsum opa yoki A‘zam akaning tazyiqini olgan mahallarda yoki biror gunoh qilib qo‘yib kaltak yeyish xavfi tug‘ilgan paytlarda, Mastura bilan Mashrab birga bekinishar, g‘azab va kaltakni birga baham ko‘rishardi.

Masturaning sevgisi, chidami, hijron dog‘lari uning o‘ziday pok, chiroyli, samimiy, ehtimol, shuning uchundir, Mashrab vafosizlik to‘g‘risidagi kitoblarni o‘qisa, yo erkaklar og‘zidan xotin-qizlar haqida shaloq gaplar eshitsa, esiga hamisha Mastura tushadi-yu, butun vujudi isyon ko‘taradi, bunday gaplarning birortasiga bardosh bera olmaydi.

2- topshiriq. Matndagi so‘zlarni bir-biriga bog‘lovchi vositalarni toping va ularga izoh bering.

Adolat va haqqoniyatni o‘zingga rahbar qilib ol, hech kimga zarar yetkazma.

Har vaqt mo‘tadil holda ish yurit, haddan ortiqchalikdan saqlan. Haqsiz, lekin o‘zingga loyiq ko‘rib, birovdan intiqom olishga jur‘at qilma.

Kir, Ifloslikdan hazar qil, vujuding, libosing va uy-joyingning toza, pokizaligiga diqqat qil.

Mayda-chuyda va istaganingcha bo‘lmay qolgan ishlardan xafalanib, salomatligingni buzma, qalbingning huzur-rohatini ko‘zla.

Adabli, sharm-hayoli, nomusli bo‘l. Bu go‘zal xislatlardan ajralma.

O‘zingni kamtar tut, tavoze’ sharaf va izzat bosqichi ekanini unutma.

Sabrli, muloyim, ochiq yuz, shirin so‘zli bo‘l. Hech kimga qo‘pol muomala qilma.

Xulosa: yuqorida zikr etilgan fazilatlar bilan o‘zingni orasta qilsang, xalqning muhabbatini o‘zingga jalb etasan, hamma senga hurmat nazari bilan qaraydi.

O‘ylang: Tilimizda matnning ahamiyati qanday?

Quyidagi maqolning ma'nosini izohlang. Shu maqol asosida mikromatn tuzing.

Har bir so'zni bilib ayt, ko'pga ma'qul qilib ayt.

Mustaqil ta'lim

Sohaning innovatsion yangiliklari haqida taqdimot tayyorlash

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbekiston Respublikasi "Davlat tili haqida"gi qonunining hayotiy ahamiyati.
2. Dunyo tillari va unda o'zbek tilining tutgan o'rnini. Umumxalq tili va adabiy tili.
3. O'zbek tilining imlo qoidalari va soha egalarining savodxonligi
4. Imlo xatolar yo'l qo'yilgan matnlarni ko'zdan kechirib, ulardagi xatolarni muhokama qilish
5. O'zbek tili leksikasining boyish manbalari. Texnikaga xos o'z va o'zlashgan so'zlar tasnifi.
6. Leksikologiya. So'z ma'nosining ko'chish yo'llari.
7. O'zbek tilida so'z yasaliishi. Lug'at va uning turlari. 2 soat
8. Morfologiya. So'z turkumlarini tahlil qilish.
9. Gapda so'zlarning bog'lanishi. So'z birikmasi.
10. Sodda gaplar va qo'shma gaplar.
11. Kasbiy soha bo'yicha atama va so'zlarning lug'atini tuzish.
12. Kasbiy soha bo'yicha kichik hajmdagi maqola yozish.
13. Chetdan kirgan atama va soha so'zlarini og'zaki va yozma shaklini tushuntirish.
14. Soha doirasida esse yozish
15. Sohaning innovatsion yangiliklari haqida taqdimot tayyorlash

Mustaqil ishni quyidagi topshiriqlar ko‘rinishida bajarish tavsiya etiladi:

- mavzu bo‘yicha rasmiy axborot tayyorlash;
- mavzu bo‘yicha referat tayyorlash;
- mavzu bo‘yicha elektron taqdimot (RRT) tayyorlash;
- mavzu bo‘yicha albom tayyorlash;
- mavzu bo‘yicha loyiha yaratish;
- mavzu bo‘yicha dialogik matn tuzish;
- mavzu bo‘yicha monologik matn tuzish;
- terminlar lug‘atini tuzish;
- bad’iiy asarni mutolaa qilish;
- she’r yodlash;
- mavzu bo‘yicha baqs-munozaraga tayyorlanish;
- esse yozish;
- maqola yozish;
- maqolaga taqriz yozish;
- hikoya tuzish;
- ommabop maqola tayyorlash;
- reportaj tayyorlash;
- berilgan mavzuda klaster tuzish;
- mavzuga oid so‘zlardan krossvord tuzish;
- ma’lumotlardan jadval tuzish;
- ish yuritish hujjatlaridan namunalar tayyorlash.

GLOSSARIY

Atamaning o‘zbek tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning ma’nosi
Imlo [yozish, to‘g‘ri yozish]	Орфографический	Orthographical, orthography	Yozuv, yozuvga, tog‘ri yozuvga oid; imloviy. Imlo qoidalari. Imlo xatolari.
Boshqaruv	Управление	Management	Davlatni idora qilish usuli. Prezidentlik boshqaruvi.
Davlat [mamlakat]	Государство	State	O‘z fuqarolarining ijtimoiy- siyosiy huquqlarini himoya qiluvchi, bunga qarshi turuvchi kuchlarning qarshiligini sindiruvchi hokimiyat organlari va siyosiy tashkilotlari tizimiga ega bo‘lgan mustaqil mamlakat. O‘zbekiston davlati.
Madaniy [shaharlik; madinalik]	Культурный	Cultural	Madaniyatga oid, madaniyat, ilm-ma’rifat bilan bog‘liq, madaniyatni egallagan; madaniyatga erishgan, madaniyat talablariga javob beradigan. Madaniy meros.
Amaliy	Практический	Practical	1. Kishining kundalik faoliyatiga oid. 2. Bevosita amalga oshiriladigan, amalda ko‘riladigan, qilinadigan.

			3. Amalda tatbiq etiladigan, tajribada qo'llanadigan amaliy natijalar.
Yozma	Письменный	Written, writing	Xat, yozuv vositasida ifodalangan, yozilgan. Yozma ma'lumot.
Nazariy [mushohadaga asoslangan, mavhum, fikriy]	Теория	Theory	Nazariyaga oid, nazariya masalalariga bog'liq bo'lgan, nazariyaga asoslangan. Biror sohaning nazariyasi bilan shug'ullanadigan. Nazariy tadqiqotlar.
Istilo [qo'lga kiritish, bosib olish]	Завоевание, захват	Conquest	Qurol kuchi bilan o'zga mamlakatni bosib olish. Arablar istilosi.
Falsafiy	Философский	Philosophical	Falsafaga oid. Tabiat va jamiyat haqidagi teran dunyoqarashni o'zida ifoda etgan. Falsafiy oqim.
Tilshunoslik	Языкознание	Linguistics	Tilshunos ishi, kasbi. Til haqidagi fan, lingvistika. Tilshunoslik masalalari.
Ma'muriy [boshqaruvga, ma'muriyatga aloqador]	Административный	Administrative	Ma'muriyatga doir. Ma'muriy at yo'li bilan amalga oshiriladigan. Ma'muriy hudud.
Viloyat	Область	Region	Mamlakatning bir va undan ortiq shaharlarini o'z ichiga oladigan yirik ma'muriy-hududiy bo'linma. O'zbekistonning 12 viloyati.

Hudud	Территория	Territory, area	Ma'lum chek-chegaraga ega bo'lgan, chegara bilan o'ralgan yer, ma'lum davlat, viloyatga tegishli bo'lgan yer, maydon. O'zbekiston hududi.
Sanoat	Индустрия, промышлен ность	Industry	Xalq xo'jaligining xom-ashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini qazib olish, ishlab chiqarish vositalarini va keng iste'mol mollari yaratish. Yengil sanoat. Oziq-ovqat sanoati.
Soha	Отрасль (промышлен ности, науки и т.п.)	Branch	Inson faoliyati, ilm-fan, madaniyat va boshqalarning har bir tarmog'i. Sanoat sohalari. Qishloq xo'jaligining yetakchi sohalari.
Mahsulot	Продукт	Product	Ishlab chiqarilgan narsa. mahsulot.
Eksport [ingl. export <lot. exportare - chetga (tashqi bozorga) chiqarmoq]	Экспорт	Export	Sotish yoki boshqa maqsadlarda chet ellarga mol yoki kapital chiqarish. O'zbekiston ko'pgina mahsulotlarni eksport qilish imkoniyatiga ega.
Demokratik	Демократиче ский	Democratic	Demokratiya tamoyillariga asoslangan, demokratiyani amalga oshiruvchi. Demokratik davlat.
Ma'rifat [bilim, fan, ma'lumot]	Просвещение	Enlightenme nt	Ta'lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, diniy, falsafiy g'oyalar asosida kishilarning ong va bilimni, madaniyatini oshirishga qaratilgan faoliyat.

			Amir Temur barpo etgan buyuk davlat ilm-fan, madaniyat va ma'rifatning behad ravnaqini ta'minladi.
Parlament [fr. parlement - rasmiy so'zlashish joyi <parler - gapirmoq, so'zlamoq]	Парламент	Parliament	Demokratik mamlakatlarda butunlay yoki asosan saylov asosida tuziladigan oliy vakillik va qonunchilik organi. Mustaqil O'zbekistonning parlamenti - Oliy Majlis.
Ilm [bilim, fan]	Наука	Science	O'qish-o'rganish va tadqiqot, tahlil etish bilan erishiladigan bilim; ko'nikma, ma'lumot. Ish-faoliyatning ma'lum bir sohasiga oid bilim, ta'limot, malaka. Ilm o'rganish. 2. Ish-faoliyatning ilm bilan bog'liq sohasi; tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar tizimi. Iqtisodiyot ilmi.
Ilmiy	Научный	Scientific	Ilmga oid, ilmga qaratilgan. Ilmiy asar.
Faoliyat [harakatchanlik; samaradorlik]	Деятельность	Activity	Biror sohada olib boriladigan ish, mashg'ulot, harakat. Ilmiy faoliyat.
Tadqiqotchi	Исследователь	Researcher	Tadqiqot ishlari bilan shug'ullanuvchi shaxs. Ilmiy tadqiqotchilar.

Tashkilot	Организация	Organization	Aniq tarkib va vazifasiga, ish dasturiga ega bo'lgan ijtimoiy, xo'jalik birlashmasi yoki davlat muassasasi. BMTning Yunesko tashkiloti.
Homiy [himoya qiluvchi]	Спонсор	Sponsor	Biron tadbir yoki faoliyatni amalga oshirishda moliyaviy yordam ko'rsatuvchi, moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlovchi jismoniy yoki yuridik shaxs. Ma'muniy xorazmshohlar homiyligida.
Akademiya [yun. academia - afsonaviy qahramon Akadem nomi hamda Platon o'z ta'limotidan dars bergan, Afina yaqinidagi kichik o'rmon nomidan]	Академия	Academy	1. Ilm- fan yoki san'atni rivojlantirish uchun tuzilgan, yuqori malakali olimlariga ega bo'lgan oliy ilmiy muassasa. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. 2. Ba'zi bir oliy o'quv yurtlarining nomi. Soliq akademiyasi.
Qaror [to'xtam, hukm, xulosa, tub, asos]	Решение, постановление	Decision, decree	1. Biror ish, masala yuzasidan qabul qilingan xulosa; amalga oshirish lozim topilgan qat'iy fikr; ahd, to'xtam. Qarorim qat'iy. 2. Rasmiy organ, tashkilot, majlis, mansabdor shaxs va sh.k. ning biror ish, masala yuzasidan bamaslahat qabul qilgan

			to'xtami, hukmi. Kafedra majlis qarori.
Institut [lot. institutum - o'rnatish, tuzish, ta'sis etish]	Институт	Institute	Ba'zi oliy o'quv yurti va ilmiy- tekshirish muassasalarining nomi. Moliya instituti.
Iqtisodiyot [xo'jalik masalalari; xo'jalik]	Экономика	Economy	1. Ijtimoiy tuzumning bazasi. Xalq xo'jaligi, ishlab chiqarish kuchlarining holatiga muvofig keluvchi ishlab chiqarish munosabatlari. 2. Xo'jalik tarmoqlarining moddiy va moliyaviy tomonlarini o'rganadigan fan. Respublikaning iqtisodiyoti.
Qonunchilik	Законность	Legislation, legislative	ijtimoiy hayot va faoliyatning qonunlar bilan ta'minlanishi (ta'minlangan) holati.
			Mamlakatimizda oila institutining rivojlanishi va jamiyatimizda oilaning kamol topishi yo'lida asos bo'ladigan mustahkam qonunchilik tizimi yaratilgan.

Qo'rg'on	Бастион, форт	Bulwark, fort	Dala joyda atrofi devor bilan o'ralgan hovli- joy va uning ichidagi binolar (atrofi, odatda, bog', ekinzorlardan iborat bo'lgan). Sherbek qishloqning eng chetidagi qo'rg'onni ham bosib o'tdi.
Tayanch	Опора, подпор ка	Reliance, support	Narsani ko'tarib, uning tik, barqaror turishi uchun xizmat qiladigan vosita; ustun, tirgak, tirgovuch. Oila – bu jamiyat tayanchidir.
Sabr [chidam, bardosh, iroda, qat'iyat]	Терпимость, терпение	Endurance, patience	1. Biror holat yoki hodisani bardosh bilan kutish, qanoat qilish; o'zini tiyish. Sabr tagi – sariq oltin. 2. G'am-kulfat, azob-musibatlarga chidash, toqat qilish, bardosh berish. Jahl dushmani – sabr.
Ezgu	Благой, добрый	Good	Yaxshilik baxsh etuvchi; ezgulik keltiruvchi; xayrli. Ezgu niyat. Ezgu ish.
Vafo [sadoqat, va'dani baja- rish]	Верность	Adherence	Yorga, do'stga, yaqin kishilarga sadoqat. Mardlik – bu insonning oliy fazilati bo'lib, unda botirlik, qahramonlik, sadoqat, vafo mujassamlangandir.

Qanoat [mamnunlik, boriga shukur qilish; qanoatlilik, kamsuqumlik]	Воздержани е	Selfrestrain t	Ozga yoki boriga ko'nish, bori bilan kifoyalanish, nafsi tiyqlik bilan ko'pga, ortiqchalikka intilmaslik hissi. Qanoat axloqiy, irodaviy fazilatlar jumlasiga kiradi.
Xiyonat [makr, hiyla; xoinlik, vafosizlik]	Измена, неверность	Treason	Ahdni buzish, birovning ishonchini yoki ishonib topshirgan narsasini suiiste'mol qilish. Nomardlarda yovuzlik, yomonlik, xiyonat kabi sifatlarni uchratish mumkin.
Muqaddas [pok, toza, aziz, olijanob]	Священный	Sacred, sainted	Sharafli, olijanob, yuksak. Tabiatning bebahone'mati suvni toza saqlash har birimizning muqaddas burchimizdir.
Mujassam [katta, ulkan, kattalashgan]	Воплощение	Embodiment	Gavdalangan, mukammal va aniq tus. Mardlik – bu insonning oliy fazilati bo'lib, unda botirlik, qahramonlik, sadoqat, vafo mujassamlangandir.
Mehnatsevarlik	Трудолюбие	Diligence	Mehnatsevarga xos xislat, xatti- harakat. Mardlik kishi burchida, vijdonida, qadr-qimmatida, farzand tarbiyasida, insonparvarlikda, mehnatsevarlikda, sevgi- sadoqatda, yaxshi ishlarda

			yaqqol namoyon bo‘ladi.
Botirlik	Мужество, храбрость	Courage	Jasurlik, dovyuraklikka xos holat, xususiyat. So‘z botirligi – tilda, el botirligi – belda.
Tabarruk [duo, fotiha olish, muborak, muqaddas]	Святой, священный	Holy, sacred	1. Ulug‘hurmatga sazovor, g‘oyat hurmatli, mo‘tabar va aziz. Tabarruk chol. 2. Yaqin, mo‘tabar kimsa yoki narsani eslatadigan, undan esdalik, yodgorlik bo‘lib qolgan. Otamdan qolgan tabarruk kitob.
Suyanch	Опора	Reliance	Tayanch bo‘lib xizmat qiluvchi, madad beruvchi kuch; tayanch. Sendan o‘zga hech suyanchim bo‘lmadi.

Ziyorat [tashrif, tabarruk joylarga safar qilish]	Визит	Visit	Hurmat yoki rasmiyat yuzasidan keksa, tabarruk kishilar huzuriga tashrif buyurib, ularning holidan xabar olish, ularni ziyosat qilish. Navro‘z kunlari gina- kuduratlar unutilib, kishilar yaxshilikka intiladilar, yetim- yesirlarga va nogironlarga yordam berib, marhumlar qabrlarini ziyosat qilib, tartibga soladilar.
Qadimiy [qadimga, o‘tmishga oid]	Древний, старинный	Ancient	Qadimga oid, qadimdan bor, o‘tmishdan saqlanib kelayotgan. Turkiston, O‘rta va Yaqin Sharqda yashovchi xalqlarning qadimiy va an‘anaviy yangi yil bayrami.
Gina-kudurat [xafachilik]	Попрёки	Set-down	Har xil gina va noroziliklar. Navro‘z kunlari gina-kuduratlar unutilib, kishilar yaxshilikka intiladilar.
Poyga	Скачки, пробег	Race	Kim o‘zdi musobaqasi. Navro‘z kunlarida turli ommaviy o‘yinlar, poyga musobaqalari o‘tkaziladi.

Yaxshilik	Доброта	Goodness	Ixtiyoriy ravishda biror kishining manfaatini ko‘zlab ish tutish, mehribonlik; ezgulik. Yaxshi odamning yaxshiligi tegar tor yerda, Yomon odamning zarari tegar har yerda.
Do‘stlik	Дружба	Friendship	Do‘st maqomida bo‘lishlik; yaqinlik, oshnolik; ahillik. Axloq va nafosat manbai hisoblangan mehmondo‘stlikda insonparvarlik, odamiylik, do‘stlik va o‘rtoqlik, poklik va ozodalik kabi odob qoidalari
Fazilat [afzallik, ijobiy xislat]	Достоинство, положительно е качество	Dignity	Ijobiy xislat, yaxshi xulq yoki xususiyat. Mehmonga hurmat-ehtirom ko‘rsatish kabi go‘zal fazilatlar xalqimiz tarixida ming yillardan beri o‘rin olib kelayotgan an’analarimizdandir.
Mehmondo‘st [Mehmonni do‘st ko‘ruvchi]	Гостеприимность	Hospitable	Mehmonni, mehmon kutishni, mehmon chaqirishni yaxshi ko‘radigan. Mehmondo‘st o‘zbek xalqi.

Nafosat [nafislik, go‘zallik, latofat]	Тонкость, изящество	Elegance	Nafosatga oshufta inson ma’naviy boy, qalbi pok, niyati xolis, umuman, ichki madaniyatga ega bo‘ladi.
Odamiylik	Человечность, гуманность	Humanity	Odamga, chin insonga xos xislatlar; insoniylik. Odamning odamiyligi uning farzandlariga, oilasiga va yaqinlariga bo‘lgan muruvvatidan boshlanadi.
Axloq [kishining tabiati]	Нравственность, этика, мораль	Morals, ethics	Muomala, xatti- harakat odobi. Axloqshunoslik muammolari.
Davlatchilik	Государственность	Statehood, nationhood	Davlat tuzumi; davlat sifatida uyushishning siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy asos va tamoyillari. Davlatchilik usullari.
Ma’rifiy	Просветительский	Enlightening	Ma’rifatga oid. Navoiy ma’rifiy merosi.
Komil [yetuk, to‘liq, mukammal]	Совершенный	Perfect	Kamolatga erishgan, bekam-u ko‘st, mukammal. Komil inson.
Siyosiy [siyosatga, diplomatiyaga]	Политический	Political	Siyosatga oid, siyosat bilan bog‘liq bo‘lgan, siyosat sohasidagi.

Adabiy	Литературный	Literary	1. Badiiy adabiyotga oid. Adabiy suhbat. 2. Yozuvchilarga, yozuvchilik faoliyatiga oid. Adabiy meros. Adabiy taxallus. Umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, ma'lum me'yorlarga solingan shakli. O'zbek adabiy tili.
Badiiy [badiiyatga, nafis san'atga oid, go'zal, ajoyib]	Художественный	Art, artistic	Voqelikni nafis san'at vositalari, usullari, obrazlari orqali ifoda etuvchi; tasvirlovchi. Badiiy salohiyat.
Munozara [bahs, mubohasa, tortishuv]	Дискуссия, диспут	Discussion, dispute	Mumtoz adabiyotda keng tarqalgan janr; fikrlar kurashi, qarama-qarshiligi shaklida yozilgan asar. Bobur keng va chuqur bilimli, zamonasining ulkan madaniyat arboblardan bo'lib, turli ilmiy, adabiy suhbatlar va munozaralar uyushtirar edi.
Mumtoz	Классический	Classical	Muayyan millat va jahon fani, san'ati, adabiyotida muhim o'rin tutadigan, millatning shon-shuhrati va faxri hisoblangan; klassik. Mumtoz

			musiqi.
Qomus [lug'at, so'z boyligi]	1. Полный 2. Энциклопедия	1. Complete 2. encyclopedia	1. Mukammal, to'liq lug'at. 2. Ensiklopediya; ensiklopedik lug'at. Bobur qomusiy aqlga ega shaxs bo'lgan.
Daromad [foyda, kirim]	Доход, приход	Income, revenue	Savdo-sotiq, mehnat, ishlab chiqarish sohalaridan kelib tushadigan sof pul.
Baho [narx, qiymat]	Цена, стоимость	Price	Biror narsaning pul bilan o'lchanadigan qiymati; narx. Inflatsiya baholar o'sishi, aholi turmush darajasining pasayib ketishi tufayli ham yuz beradi.
Moddiy [jism, moddaga oid]	Материальный	Tangible	Mol va puldan iborat. Moddiy yordam.
Mablag' [naqdina, tayyor pul]	Денежные средства	Fund	Biror narsa yaratish, qurish, o'tkazish uchun sarflanadigan ma'lum miqdordagi pul. Aholi o'z mablag'larini pul shaklida tutib turishga bo'lgan xohishini yo'qotadi va ularni moddiy ne'matlarga sarflaydi.

Ishsizlik	Безработица	Unemployment	Ishsiz holat, ish bilan ta'minlanmaganlik. Inflatsiya mehnatkashlar ahvolining yomonlashiviga olib keladi, ularning hayot darajasini pasaytiradi, ishsizlikni ko'paytiradi.
Naqd [qo'lda bor, mavjud pul]	Наличный	Cash	Pulini darhol to'lash sharti bilan bo'lgan yoki bo'ladigan savdo muomalasi. Naqdga olmoq.
Iste'mol [ishlatish, foydalanish]	Потребление, употребление	Consumption	Iqtisodiy-maishiy ehtiyojlar uchun ishlatish; qo'llash, foydalanish. Keng iste'mol mollari.
Tanga	Монета	Coin	Qog'oz puldan boshqa, oltin, kumush, mis kabilardan zarb etilgan pul. Oltin tanga. Kumush tanga.
Tovar	Товар	Product, goods	Talab, ehtiyojni ta'minlovchi barcha narsa, mahsulot; sotuvchilar va xaridorlar o'rtasida oldi-sotdi, bozor munosabatlari obyekt. Tovar ayirboshlash. Tovar birjasi.
Qiymat [narx, baho, qiymat]	Цена, стоимость	Cost	1. Tovar narxi. 2. Pulning xarid qobiliyati; muayyan bozor narxlari

			darajasida pul birligi hisobiga sotib olish mumkin bo‘lgan tovarlar va xizmatlar miqdori. Mollarning qiymati.
Yoqilg‘i	Топливо	Fuel	Issiqlik energiyasi olish uchun yoqiladigan ashyo. Biz materiallarni, yoqilg‘ini, vaqtni tejash bilan juda ko‘p mablag‘to‘plashimiz mumkin.
Maishiy [hayotiy, hayot, turmushga oid]	Бытовой, жизненный	Everyd ay, living	Maishatga, tirikchilikka oid. Maishiy xizmat. Maishiy sharoit.
Suvsar	Куница	Marten	Qimmatbaho, qalin va yumshoq mo‘ynali yirtqich sut emizuvchilar oilasining bir turi va uning mo‘ynasi. Suvsar terisi.
Ko‘l	Озеро	Lake	Quruqlikning suvga to‘lgan (suv qoplagan), atrofi berk, chuqurlikdan iborat tabiiy suv havzasi. Katta ko‘l.
Orol	Остров	Island	Atrofi, hamma tomoni okean, dengiz, daryo yoki ko‘l suvi bilan o‘ralgan quruqlik. Qrim yarim oroli.
Ov	Охота	Hunting	Yovvoyi hayvon, baliq, qush va sh.k.ni turli yo‘llar bilan tutish, ovlash yoki otish. Baliq ovi. Bedana ovi.

Qunduz	Бобёр	Beaver	Suvsarsimonlar oilasiga mansub, qimmatbaho mo‘ynali sut emizuvchilar turkumi. Bu bexatar maskanda Buxoro bug‘usi, qunduz, qirg‘ovul kabi hayvonlarni ko‘paytirish ko‘zda tutilgan.
Qo‘riqxona	Заповедник	National park	Belgilangan qonunlarga muvofiq davlat tomonidan
			ajratilgan, alohida ilmiy yoki madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan (noyob landshaft, o‘simliklar, hayvonot dunyosi, foydali qazimalar va b.), tabiiy obyekt joylashgan hudud.
Muhofaza [himoya qilish]	Охрана, защита	Protection	Himoya qilish, qo‘riqlash, himoya. Keyingi paytlarda biz atrof-muhit muhofazasi haqida ko‘p gapiradigan bo‘ldik.
Inshoot [qurilishlar, binolar]	Здание	Building	Turli maqsadlar uchun qurilgan binolar va ularning uskuna-jihozlari. Hidrotexnik inshootlar.
Tashabbus [tirishqoqlik, barqarorlik, qat‘iylilik; g‘ayrat, tashabbus]	Инициатива	Initiative	Biror ishga boshlovchi, da‘vat etuvchi sa‘y-harakat, g‘ayrat. Ilg‘orlar tashabbusi bilan boshlangan musobaqa. Tashabbus ko‘rsatib ishlamoq.

Sog'lom	Здоровый	Healthy	Dard-kasaldan xoli; sog'. Sog'lom odam. Sport yosh avlodni sog'lom qilib tarbiyalash vositasi ekanligi asosiy vazifa sifatida belgilandi.
G'amxo'rlik	Попечение, забота	Care	Kimsa haqida qayg'urish, uning g'amini yeyish; g'amxo'r shaxsga xos ish, xatti-harakat. Mustaqil O'zbekiston sportchilari bu g'amxo'rlik va otalarcha mehribonlikni oqlamoqdalar.
Pahlavon [qahramon, botir,]	Богатырь	Strong / powerful man	Barvasta va zabardast; jismoniy baquvvat, bahodir. Pahlavon o'g'lon.
Badiiy [go'zal, ajoyib] gimnastika	Художественная гимнастика	Gymnastics	Badiiy gimnastika. Mamlakatimizda sportning qizlarga mos badiiy gimnastika, sinxron suzish, tennis, yengil atletika kabi nafis turlarini jadal rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.
Ko'rkam	Привлекательный	Gorgeous	Ko'rinishi yoqimli, chiroyli, go'zal. Sport majmuasi juda salobatli va ko'rkam qilib qurilgan.


Shaxmat	Шахматы	Chess	1. 64 ta oq va qora katakli taxta va 16 ta oq, 16 ta qora donalardan iborat sport o'yini qiroli. Shaxmat taxtasi. Shaxmat donalari. 2. Shu narsa (qurol) taxtasida uning donalari bilan muayyan qoidalar asosida bo'ladigan sport o'yini. Shaxmat musobaqasi. Shaxmat bo'yicha yoshlar o'rtasida Respublika chempionati.
Shashka [shashki – “shax” “shaxi” so‘zidan “shaxmat(i)” qolipida yasalgan so‘z]	Шашки	Cheker	64 ta oq va qora katakli taxtada 12 ta oq va 12 ta qora donalar bilan ma'lum qoidaga muvofiq o'ynaladigan o'yin. Shashka taxtasi. Shashka donasi. Shashka o'yinamoq.
Urf [odat, o'rganish]	Обычай	Custom	Umum tomonidan qabul qilingan va amal qilinadigan tartib-qoida. Urf-odat va rasm-rusumlar.
Xotira [fikir, tafakkur, g'oya]	Память	Memory	Biror kimsa yoki narsa haqidagi yodda saqlangan taassurot. Xalqning tarixiy xotirasi.
Mohiyat [haqiqat, har narsaning asli, tub- negizi]	Сущность, суть	Essence	Biror narsaning zamiridagi tub, eng muhim ma'no, ichki mazmun. Hodisalarning asl mohiyati.

Hamjihat [ham + jihat]	Единодушный	unanimous	Ish-faoliyatda bir-biridan ajralmay intilish, ahil bo'lish. Hamjihat qo'shnilar.
Hodisa [voqea, holat]	Собы тие, проише ствие	Ement	Tabiatda, jamiyat hayotida yuz beradigan o'zgarish. Bo'lib o'tgan hodisalar.
Asr [davr, zamon]	Век	Century	Yuz yillik davr. Yigirma birinchi asr.
Ajdod [“jadd” (bobo) so'zining ko'pligi]	Прародитель, предок	Ancestor	Ilgari o'tgan nasl-nasab, ota-bobolar (avlodga nisbatan). Ajdodlarining mehnati, qahramonligi.
Avlod [o'g'illar, bolalar, nasl]	Потомки, потомство	Descen dant, offspri ng	Ota-bobo va uning nasli; sulola. Temur avlodi (temuriylar).
Farovon [mo'l, juda ko'p, ortiq, ziyoda]	Благополучие	Prosperity	Har jihatdan to'la-to'kis ta'minlangan, hamma narsasi mo'l-ko'l, to'q. Farovon hayot.
Tadbirkorlik	Предпринимател ьство	Entrepreneurs hip	Tadbirkorga xos xatti- harakat, faoliyat, xislat. Tadbirkorlik faoliyati.
Matbuot [bosma, nashrlar]	Пресса	Press	1. Sanoatning bosma asarlar chiqaradigan tarmog'i, nashriyot va bosmaxona ishlari. 2. Bosma asarlar; gazeta, jurnal majmui. Chet el matbuoti.
Mukofot [taqdirlash, to'lov]	Награда, премия	Award, prize	Biror bir faoliyat sohasidagi alohida yutuqlar uchun rag'batlantirish shakli (qimmatli buyum, pul, medal, orden va sh.k.).


			Davlat mukofoti.
Muharrir [tahrir qiluvchi]	Редактор	Editor	Nashriyot yoki boshqa mas'ul nashrlarda muayyan matnni turli jihatdan tahrir qilib, bosmaga tayyorlovchi xodim. Ayrim matbuot organlariga rahbarlik qiluvchi shaxs. Bo'lim muharriri.
Nashriyot [nashr va targ'ibot ishlari]	Издательство	Publishing house	Bosma asarlar tayyorlash va nashr etish ishlari bilan shug'ullanuvchi muassasa. "Fan" nashriyoti.
Bo'lim	Отдел	Department	Idora va turli ishxonalarning ma'lum ish bilan shug'ullanadigan bir qismi, muayyan idoraga qarashli quyi idora. Bo'lim mudiri.
Jamoatchilik	Общественность	Community	Xaloyiq, xalq, omma, jamoat, ko'pchilikka aloqador ishlarda faol qatnashish, faollik. Jamoatchilik asosida yoki jamoatchilik yo'li bilan jamoat, xalq kuchi, faoliyati bilan, hashar yo'li bilan, pulsiz.

TARQATMA MATERIALLAR

“O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” qaysi fanlar bilan bog liq? Sxemani toldiring



2. Sxemada keltirilgan so‘zlarni izohlang.



SAVOLLAR - 1

1. Urg`u nima ?
2. Fonetika nimani o`rganadi?
3. Nutq nima?

SAVOLLAR - 5

1. Unli tovush deb nimaga aytiladi?
2. Ensiklopedik lug`atlar haqida ma`lumot bering .
3. Nima uchun ensiklopedik lug`atlar qomusiy lug`at deyiladi ?

SAVOLLAR - 2

1. Alifbo deb nimaga aytiladi ?
2. Leksikologiya haqida ma`lumot bering
3. Bo`g`in nima ?

SAVOLLAR - 6

1. Sharq notiqlik san`atini i ayting .
2. Nutqning aniqligi nima?
3. Paronimlar haqida ma`lumot bering .

SAVOLLAR - 3

1. Nutq uslublari haqida ma`lumot bering .
2. Nutqning kommunikativ belgilariniayting.

SAVOLLAR - 7

1. Urg`uning turlari ?
2. Lug`at deb nimaga aytiladi ?
3. Dialektizmlar nima?

SAVOLLAR - 4

1. Neologizm nima ?
2. Sinonim so`zlar nima ?
3. Bir manoli so`zlar haqida gapiring.

SAVOLLAR - 8

1. Bo`g`in turlari ?
2. Arxaizmlar nima ?
3. Tasviriy ifoda nima ?

SAVOLLAR - 9

1. Unli tovush deb nimaga aytiladi?
2. Kinoya deb nimaga aytiladi ?
3. Metafora nima?

SAVOLLAR - 10

1. O`zlashma qatlam nima ?
2. Istorizmlar nima ?
3. Hikmatli so`zlar haqida ma`lumot bering .

SAVOLLAR - 11

- 1 Adabiy til nima?
- 2 Leksikologiya haqida ma`lumot bering ?
3. Fonetika nimani o`rganadi?

SAVOLLAR - 12

1. Til qanday hodisa ?
2. Lug`atlar necha turga bo`linadi ?
3. Kinoya deb nimaga aytiladi ?

SAVOLLAR - 13

1. Leksikologiya haqida gapiring.
2. Atama nima ?
3. Bo`g`in nima ?

SAVOLLAR - 14


1. Frazelogizmlar nimaga aytiladi?
- 2 Varvarizmlar nima?.
- 3 Sinekdoxa nima?

SAVOLLAR - 15

1. Ma`no ko`chishining turlarini sanang .
2. Sinonim so`zlar nima ?
3. So`z deb nimaga aytiladi ?


SAVOLLAR - 16

- 1 So`zning necha xil ma`nosi bor?.
- 2 So`z yasashning qanday usullarini bilasiz?
- 3 Paronimlar haqida ma`lumot bering .



SAVOLLAR - 17

1. Omonimlar deb nimaga aytiladi ?
2. Ibora deb nimaga aytiladi ?
3. Neologizm nima ?



SAVOLLAR - 18


- 1 Urg`uning turlari ?
- 2 Monolog deb nimaga aytiladi ?

SAVOLLAR - 19

- 1 Ma`no ko`chishining turlarini sanang .
- 2 Antonim so`zlar nima ?
- 3 Aforizm deb nimaga aytiladi

SAVOLLAR - 20

- 1 Nutq uslublari nima, uslub turlarini ayting? .
- 2 Matn va uning turlarini ayting
- 3 Ilmiy uslub nima?.



O'zbek tilining sohada qollanilishi fanidan nazorat testlari.

1- variant

1. So'zlashuv uslubining asosiy belgilari qaysi javobda berilgan?

- a) Oddiylik, tantanavorlik
- b) Betakalluflik, ilmiylik
- c) Oddiylik, betakalluflik, hayajonlilik
- d) Badiiylik, jozibadorlik

2. Rasmiy uslubda qanday matnlar tuziladi?

- a) E'lonlar, she'rlar, romanlar.
- b) Qarorlar, idora hujjatlari, dostonlar
- c) Hujjatlar, ish yuritish qog'ozlari
- d) E'lonlar, qarorlar, qonunlar,

3. Publitsistik uslubga xos xususiyat?

- a) Ilmiylik, soddalik
- b) Tantavorlik, jo'zibadorlik
- c) Mantiqiylik, izchillik
- d) A va V javob to'g'ri

4. Ilmiy uslubga xos xususiyat?

- a) So'z va atamalarni ko'proq qo'llash
- b) Ko'chma ma'noli so'zlarni qo'llash
- c) Eskirgan so'zlarni qo'llash
- d) Neologizmlarni qo'llash

5. Badiiy uslubga xos xususiyat qaysi javobda berilgan?

- a) Tasviriy vositalarni qo'llamaslik
- b) Badiiylik, atamalarni qo'llash
- c) Soddalik, tantavorlik
- d) Obrazlilik, estetik ta'sir etish vazifasi

6. Quyidagi matnning uslubini aniqlang. Oqsil juda murakkab yuqori molekulali birikmadir. Suv molekulasi uch atom vodoroddan iborat.

- a) Ilmiy uslub b) Badiiy uslub
- c) Publistsistik uslub d) So‘zlashuv uslubi

7. Quyidagi matndan eskirgan so‘zlarni aniqlang.

Shoirning boshida uchli ko‘k taqyaga silliq o‘ralgan ko‘rkamgina
salla. Egnida odmi shohi to‘n, ustida yalang qo‘ng‘ir movut chakman.

- a) Ko‘k takya, salla, chakmon
- b) Odmi, yalang
- c) Qo‘ng‘ir, movut
- d) Ko‘k takya

8. Quyidagi matn qaysi uslubga mansub?

Men dunyoga kelgan kundanoq
Vatanim deb seni uyg‘ondim
Odam baxti birgina senda
Bo‘luriga mukammal qondim.

- a) So‘zlashuv uslubi b) rasmiy uslub
- c) badiiy uslub d) publistsistik uslub

9. Matnning uslubini aniqlang.

Suv molekulasida uch atomdan: bir atom kislorod va ikki atom
vodoroddan iborat. Oqsil molekulasida bo‘lsa, yuz minglab atomlardan
tashkil topgandir.

- a) Ilmiy b) Badiiy c) So‘zlashuv d) Publistsistik

10. Matnning uslubini aniqlang. "Xadichabegim Boburni qasrning
muhtasham qabulxonasida kutib oldi va oyog‘i ham quyma oltindan
ishlangan, ustiga yaxlit sadaf qoplangan miz yoniga o‘tqazdi".

- a) Badiiy b) Ilmiy
- c) Rasmiy d) Publistsistik

11. Qaysi qatorda faqat ko‘p ma’noli so‘zlar berilgan?

- a) Bosh, og‘iz, etak, oyoq, quloq, tomir
- b) Erk, bayram, harf, qanot, zovur
- c) Atrof, til, dum, g‘alaba, yoqa, idrok

d)Ko‘z, qosh, burun, qorin, oyoq, soch

12.Metaforaning ta’rifi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

a)Predmetlar, hodisalar orasidagi aloqadorlikka asoslangan ma’noning ko‘chishi

b)Butun bilan qism munosabatini irodalashga asoslangan ma’noning ko‘chishi

c)Predmetlar bajargan vazifadagi o‘xshashlikka asoslangan ma’noning ko‘chishi

d) Predmetlar, belgilar, harakatlardagi o‘zaro o‘xshashlikka asoslangan ma’noning ko‘chishi

13.Predmet yoki hodisalarning makon va zamondagi o‘zaro doimiy bog‘lanishlari asosida birining nomi ikkinchisiga ko‘chiriladi. Ushbu ta’rif qaysi qatordagi hodisaga xos?

a)Vazifadoshlik b)Metafora

c)Metonimiya d)Sinekdoxa

14.Qaysi qatorda orfoepiyaga noto‘g‘ri ta’rif berilgan?

a)Adabiy talaffuz qoidalarining to‘plami

b)Milliy til doirasida yagona talaffuz normalari

c) O‘zbek tili kursining lug‘at tarkibini o‘rganadigan fan

d)Unli, undosh tovushlar talaffuz normalarini belgilaydi

15. Qaysi gap tarkibida ham sinonim, ham antonim so‘zlar qatnashgan?

a)Osh ko‘p-u, lagan yetishmaydi

Farzand umr bog‘ida hayotdek aziz, shirin

b)Shoir tinim bilmas ijod davrida

c) Kunduzi bedor, tunlari uyg‘oq

d)Yaxshiga aytsang, uqar

16. Qaysi qatorda orfografik jihatdan xato yozilgan so‘zlar mavjud?

a)Dastarra, dastmol, inshoat, ishyoqmas, landovur

- b) Dollor, ish bay, kinojurnal, oinaijahon, dastgoh
- c) Jigar rang, kongress, ahil, avtomat, izhor
- d) Yangiyo‘l, taassurot, serharakat, grammatika, manba

17. Qaysi qatorda talaffuzi va yozilishi farq qiladigan so‘zlar berilgan?

- a) Do‘stona, pashsha, taraqqiyot, ballada, shaxta
- b) Doira, zabardast, akkordeon, taasurot, apparat
- c) Aktsiya, bayonnoma, ballon, signal, zaif
- d) Uchta, shanba, tugun, telefon, g‘alaba

18. Metafora nima?

- a) Grekcha so‘z bo‘lib, ko‘chim degan ma‘noni bildiradi
- b) Nutqda obrazlilik,ekspressiv bo‘yoq berishni, ya‘ni narsava hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, so‘z yoki iboralarni ko‘chma ma‘noda ishlatish metaforadir.
- c) Metafora narsalarning son yoki butun va qismlari orasidagi munosabat nazarda tutiladi.
- d) A va B javoblar to‘g‘ri

19. Nutq uslublari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

- a) So‘zlashuv, metonimiya, ilmiy uslub, troplar
- b) So‘zlashuv, aloqa, xabar va rasmiy uslub
- c) So‘zlashuv, ilmiy, rasmiy, publitsistik, adabiy-badiiy uslub
- d) Barcha javoblar to‘g‘ri.

20. Kishilarning kundalik norasmiy, erkin muomalalari doirasida til birliklarini o‘ziga xos amal qiluvchi qanday uslub sanaladi?

- a) Rasmiy b) ilmiy
- c) publitsistik d) so‘zlashuv

21. Qonun matnlari, farmonlar, buyruqlar, ariza... kabi hujjatlar qaysi uslubda yoziladi?

- a) Badiiy uslubda b) so‘zlashuv uslubda
- c) ilmiy uslubda d) rasmiy uslub

22. Metonimiya nima?

- a) Grekcha soʻz boʻlib, koʻchim degan maʼnoni bildiruvchi soʻz metonimiya deyiladi.
- b) Grekcha aylana, atrof, boshqacha gapiraman demakdir
- c) Grekcha soʻz boʻlib, qarama-qarshi degan maʼnoni bildiradi
- d) Grekcha soʻz boʻlib, boshqacha, nom berish degan maʼnoni bildiradi

23. Yasovchi qoʻshimchalar bilan yasalgan soʻzlar qatorini belgilang.

- a) Davlatxona, shaharsoz, ziyokorlar
- b) uzum, osmon, qulupnay
- c) Gullar, saodat, sevinch
- d) Favqulod, gigant, sabot

24. "Tarvuzi qoʻltigʻidan tushdi" iborasining maʼnosi toʻgʻri berilgan qatorni toping.

- a) Toʻgʻri gapiradigan boʻlmoq
- b) Hafsalasi pir boʻlmoq
- c) Qoʻrqmas boʻlmoq
- d) Birovning ustidan kulmoq
- e) Hammasi toʻgʻri.

25. Sinonimlar berilgan qatorni belgilang

- a) Kuy, kul, qoʻyb) Sabr, soy, roy
- c) keldi-ketdi, oq-qora, toza-iflos
- d) yuz, bashara, chehra

26. Mustaqil soʻz turkumlari nechta

- a) 9ta
- b) 6ta
- c) 5ta
- d) 3ta

27. Feʼl soʻz turkumiga oid soʻzlarni belgilang.

- a) gazeta, choy
- b) toʻlmoq, kulmoq
- c) yuvdi, suzdi, chopdi
- d) daryo, soy, hayot

28. “ Davlat tili haqida “gi qonunning nechanchi moddasida “Oʻzbekiston Respublikasining Davlat tili -oʻzbek tilidir “deb yozilgan ?

- a) 1-moddasida
- b) 2-moddasida
- c) 3-moddasida
- d) 4-moddasida

29. Kirill yozuvidagi “O‘bek tilining asosiy imlo qoidalarari “ qachon tasdiqlangan?

- a) 1940- yil 8-may b) 1956- yil 4- aprel
- c) 1993 -yil 2- sentabr d) 1994 -yil 24- avgust.

30. Lotin yozuvidagi “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarari “ qachon tasdiqlangan

- a)1940- yil 8 -may b) 1956 -yil 4- aprel
- b)1993 -yil 2- sentabr d) 1995 -yil 24- avgust

2-variant

1. O‘rxun-Enasoy yozuvlari nechanchi asrga to‘g‘ri keladi?
a)VI, VII b)VII, VIII
c)VIII, X d)VI
2. “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonun qachon qabul qilingan?
A)1992-yil 3-mart B) 1989-yil 21-oktabr
C)1992-yil 2-sentabr D)1995-yil 5-may
3. Turkiy o‘zbek tilning rivojida kimning hissasi katta?
A)Alisher Navoiy B)Amir Temur
C)Ahmad Yassaviy C)Zahiriddin Muhammad Bobur
4. Arab istilosigacha mavjud bo‘lgan yozuvlardan foydalanish qachongacha qisman saqlangan?
A)XX asrgacha B)XVI asrgacha
C)VI asrgacha D)XV asrgacha
5. Miloddan avvalgi birinchi ming yillikning boshlaridan to milodimizning VII asrigacha, ya’ni arablar istilosigacha, xalqimiz qaysi yozuvdan keng foydalangan?
A)Runik yozuvidan B)Qadimiy uyg‘ur yozuvidan
C)Avesto yozuvidan D)Qadimgi Xorazm yozuvidan
6. “Devonu lug‘atit turk” asarining muallifi kim?
A)Mahmud Qoshg‘ariy B)Yusuf Xos Hojib
C)Ahmad Yugnakiy D)Alisher Navoiy
7. Yusuf Xos Hojib qaysi asarning muallifi?
A)Qutadg‘u bilig B)Hibbatul haqoyiq
C)Devonu lug‘atit turk D)Xamsa
8. O‘zbek tili qaysi tillar oilasiga kiradi?
A)Oltay tillar oilasining turkiy turkumiga

- B)Hind-yevropa tillari oilasining eron turkumiga
- C)Hind-yevropa tillari oilasining slavyan tillari turkumiga
- D)Oltay tillar oilasining eron turkumiga

9. Alisher Navoiy nechanchi yilda va qayerda tug'ilgan?

- A)1445-yil Hirotida B)1441-yil Hirotida
- C)1500-yil Mashhadda D)1460-yil Astrobodda

10. "Xamsa" dostonlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A)"Hayrat ul-abror", "Layli va Majnun", Farhod va Shirin",
"Xazoyinul maoniy", "Lisonut-tayr"
- B)"Xazoyinul maoniy", "Lisonut-tayr", "Devoni
Foniy", "Muhokamat ul- lug'atayn", "Tarixi mulki jam"
- C)"Hayrat ul-abror", "Layli va Majnun", Farhod va Shirin",
"Sab'ayi sayyor", "Saddi Iskandariy"
- D)"Mezon ul-avzon", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Lison ut-
tayr", Mahbub ul- qulub" "Saddi Iskandariy"

11. Sharafiddin Ali Yazdiy kim edi?

- A)Tarixchi olim B)Hunarmand
- C)Hattot D)Muhrdor

12. Husayn Bayqaro nechanchi yillarda hukmronlik qilgan?

- A)1469-1506-yillarda B)1469-1509-yillarda
- C)1470-1506-yillarda D)1472-1508-yillarda

13. Alisher Navoiy asarlarida qanday g'oyalar ilgari suriladi?

- A)davlatchilik va boshqaruv usullari
- B)inson va uning jamiyatdagi o'rni, yetuk va adolatli jamiyat
- C)komil inson, yaxshi xulq-odob va mukammal ta'lim-tarbiya,
ilg'or umuminsoniy g'oyalar
- D)Barcha javoblar to'g'ri

14. Nutq uslublari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.

- A) So‘zlashuv, ilmiy, badiiy, publitsistik, rasmiy-idoraviy
- B) Ilmiy, badiiy, publitsistik, nutqning ta’sirchanligi
- C) So‘zlashuv, ilmiy, publitsistik, rasmiy-idoraviy
- D) Adabiy, rasmiy, nutq ifodaliligi, publitsistik

15. So‘zlashuv uslubi necha turga bo‘linadi?

- A) 3 ta turga B) 4 ta turga
- C) 6 ta turga D) 2 ta turga

16. So‘zlashuv uslubining o‘ziga xos xususiyalari berilgan qatorni toping.

- A) Nutqning dialogik shakli, ta’sirchanligi
- B) So‘z tartibining erkinligi
- C) To‘liqsiz gaplarning qo‘llanishi
- D) Barcha javoblar to‘g‘ri

17. Quyidagi gap qaysi uslubga tegishli? Quyosh g‘uborsiz ko‘kda porlar edi.

- A) Badiiy uslubga B) Ilmiy uslubga
- C) So‘zlashuv uslubiga D) Rasmiy uslubga

18. Keyingi yillarda havoga chiqarilayotgan va suvga oqizilayotgan chiqindilar miqdori keskin kamaydi. Ushbu gap qaysi uslubga xos?

- A) Badiiy uslubga B) Ilmiy uslubga
- C) So‘zlashuv uslubiga D) Publitsistik uslubga

19. O‘zbek milliy sport turi berilgan qatorni toping.

- A) Kurash B) Taekvando
- C) Sambo D) Boks

20. Fan, texnika va ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan vazifaviy uslub qanday uslub?

- A) rasmiy uslub B) ilmiy uslub
C) soʻzlashuv uslub D) publitsistik uslub

21. Publitsistik uslubning qanday shakllari mavjud?

- A) 2 xil B) 3 xil C) 5 xil D) 7 xil

22. Publitsistik uslubning yozma shakliga mansub boʻlgan qatorni toping.

- A) felyeton va pamfletlar, murojaatnomalar
B) bosh maqolalar, chaqiriqlar, deklaratsiyalar
C) siyosiy sharhlovchi nutqi, notiqning nutqi
D) A va B javoblar

23. Nutq jarayonida ikki va undan ortiq maʼnoda qoʻllaniluvchi soʻzlarga nima deyiladi?

- A) Bir maʼnoli soʻzlar C) koʻp maʼnoli soʻzlar
B) Omonimlar D) sinonimlar

24. Terminlar dastlab necha guruhga ajratiladi?

- A) 2 guruhga B) 3 guruhga C) 4 guruhga D) 5 guruhga

25. Oʻzbek tili leksikasi necha manba asosida boyib, rivojlanib boradi?

- A) 2 xil manba B) 3 xil manba C) 4 xil manba D) 5 xil manba

26. lot. *lexikos* - soʻz, *grapho* - chizmoq, yozmoq soʻzlaridan olingan boʻlib, lugʻat tuzish amaliyoti va nazariyasi bilan shugʻullanuvchi tilshunoslikning boʻlimi qaysi?

- A) Frazologiya B) leksikologiya
C) leksikografiya D) stilistika

27. Tarixan tarkib topgan, qat'iy me'yorlarga bo'ysunuvchi, so'zlashuvchilarning qaysi hududda yashashidan qat'iy nazar barchasi uchun umumiy bo'lgan til nima?

- A)Dialektizm B) adabiy til
C)Milliy til D) umumxalq tili

28. Ma'lum hududda yashovchi kishilar nutqiga xos bo'lgan, adabiy til leksikasiga kirmaydigan so'zlar qanday so'zlar deyiladi ?

- A)Shevaga xos so'zlar B) adabiy til
C)Kasb –hunarga oid so'zlar D) umumiste'moldagi so'zlar

29. Badiiy, ilmiy, metodik asarlarning muallifi, mavzusi, manbasi, unda ko'tarilgan asosiy masalani ko'rsatishga qaratilgan qisqa xabar nima?

- A) tezis B) taqriz C) annotatsiya D) maqola

30. Muloqotning necha turi bor?

- A) 2 turi B) 3 turi C) 4 turi D) 5 turi

3-variant

1. So‘zlashuv uslubi necha turga bo‘linadi?
A)3 ta turga B) 4 ta turga
C)6 ta turga D)2 ta turga

2. So‘zlashuv uslubining o‘ziga xos xususiyalari berilgan qatorni toping.
A)Nutqning dialogik shakli, ta’sirchanligi
B)So‘z tartibining erkinligi
C)To‘liqsiz gaplarning qo‘llanishi
D)Barcha javoblar to‘g‘ri

3. Quyidagi gap qaysi uslubga tegishli? Quyosh g‘uborsiz ko‘kda porlar edi.
A)Badiiy uslubga B)Ilmiy uslubga
C)So‘zlashuv uslubiga D)Rasmiy uslubga

4. Keyingi yillarda havoga chiqarilayotgan va suvga oqizilayotgan chiqindilar miqdori keskin kamaydi. Ushbu gap qaysi uslubga xos?
A) Badiiy uslubga B) Ilmiy uslubga
C) So‘zlashuv uslubiga D) Publitsistik uslubga

5. O‘zbek milliy sport turi berilgan qatorni toping.
A)Kurash B)Taekvando
C)Sambo D)Boks

6. Fan- texnika va ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan vazifaviy uslub qanday uslub?
A)rasmiy uslub B)ilmiy uslub
C) so‘zlashuv uslub D) publitsistik uslub

7. Publitsistik uslubning qanday shakllari mavjud?

A)2 xil B) 3 xil C) 5 xil D)7 xil

8. Publitsistik uslubning yozma shakliga mansub bo‘lgan qatorni toping.

- A)felyeton va pamfletlar, murojaatnomalar
- B)bosh maqolalar, chaqiriqlar, deklaratsiyalar
- C)siyosiy sharhlovchi nutqi, notiqning nutqi
- D)A va B javoblar

9. Nutq jarayonida ikki va undan ortiq ma’noda qo‘llaniluvchi so‘zlarga nima deyiladi?

- A)Bir ma’noli so‘zlar C) ko‘p ma’noli sozlar
- B)Omonimlar D) sinonimlar

10.Terminlarning dastlab necha guruhga ajratiladi?

- A) 2 guruhga B) 3 guruhga C) 4 guruhga D) 5 guruhga

11.O‘zbek tili leksikasi necha manbalar asosida boyib, rivojlanib boradi?

- A)2 xil manba B) 3 xil manba C) 4 xil manba D) 5 xil manba

12.lot. *lexikos* - so‘z, *grapho* - chizmoq, yozmoq so‘zlaridan olingan bo‘lib, lug‘at tuzish amaliyoti va nazariyasi bilan shug‘ullanuvchi tilshunoslikning bo‘limi qaysi?

- A)Frazeologiya B)leksikologiya
- C) leksikografiya D) stilistika

13.Tarixan tarkib topgan, qat’iy me’yorlarga bo‘ysunuvchi, so‘zlashuvchilarning qaysi hududda yashashidan qat’iy nazar barchasi uchun umumiy bo‘lgan til nima?

- A)Dialektizm B) adabiy til
- C)Milliy til D) umumxalq tili

14 Ma'lum hududda yashovchi kishilar nutqiga xos bo'lgan, adabiy til leksikasiga kirmaydigan so'zlar qanday so'zlar deyiladi ?

- A) Shevaga xos so'zlar B) adabiy til
C) Kasb – hunarga oid so'zlar D) umumiste'moldagi so'zlar

15. Badiiy, ilmiy, metodik asarlarning muallifi, mavzusi, manbasi, unda ko'tarilgan asosiy masalani ko'rsatishga qaratilgan qisqa xabar nima?

- A) tezis B) taqriz C) annotatsiya D) maqola

16. Muloqotning necha turi bor?

- A) 2 turi B) 3 turi C) 4 turi D) 5 turi

17. Qaysi gap tarkibida ham sinonim, ham antonim so'zlar qatnashgan?

- a) Osh ko'p-u, lagan yetishmaydi
Farzand umr bog'ida hayotdek aziz, shirin
b) Shoir tinim bilmas ijod davrida
c) Kunduzi bedor, tunlari uyg'oq
d) Yaxshiga aytsang, uqar

18. Qaysi qatorda orfografik jihatdan xato yozilgan so'zlar mavju?

- a) Dastarra, dastmol, inshoat, ishyoqmas, landovur
b) Dollor, ish bay, kinojurnal, oinaijahon, dastgoh
c) Jigar rang, kongress, ahil, avtomat, izhor
d) Yangiyo'l, taassurot, serharakat, grammatika, manba

19. Qaysi qatorda talaffuzi va yozilishi farq qiladigan so'zlar berilgan?

- a) Do'stona, pashsha, taraqqiyot, ballada, shaxta
b) Doira, zabardast, akkordeon, taasurot, apparat
c) Aksiya, bayonnoma, ballon, signal, zaif
d) Uchta, shanba, tugun, telefon, g'alaba

20. Metafora nima

- a)Grekcha so‘z bo‘lib, ko‘chim degan manoni bildiradi
- b)Nutqda obrazlilik,ekspressiv bo‘yoq berish niyatida narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, so‘z yoki iboralarni ko‘chma ma’noda ishlatish metaforadir.
- c)Metafora narsalarning son yoki butun va qismlari orasidagi munosabat nazarda tutiladi.
- d)A va B javoblar to‘g‘ri

21. Nutq uslublari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

- a)So‘zlashuv, metonimiya, ilmiy uslub, troplar
- b)So‘zlashuv, aloqa, xabar va rasmiy uslub
- c) So‘zlashuv, ilmiy, rasmiy, publitsistik, adabiy-badiiy uslub
- d)Barcha javoblar to‘g‘ri.

22.Kishilarning kundalik norasmiy, erkin muomalalari doirasida til birliklarini o‘ziga xos amal qiluvchi qanday uslub sanaladi?

- a)Rasmiy b)ilmiy
- c)publitsistik d) so‘zlashuv

23. Qonun matnlari, farmonlar, buyruqlar, ariza... kabi hujjatlar qaysi uslubda yoziladi?

- a)Badiiy uslubda b)so‘zlashuv uslubda
- c)ilmiy uslubda d) rasmiy uslub

22.Metonimiya nima?

- a)Grekcha so‘z bo‘lib, ko‘chim degan ma’noni bildiruvchi so‘z metonimiya deyiladi.
- b)Grekcha aylana, atrof, boshqacha gapiraman demakdir
- c)Grekcha so‘z bo‘lib, qarama-qarshi degan ma’noni bildiradi
- d)Grekcha so‘z bo‘lib, boshqacha, nom berish degan ma’noni bildiradi

24.Yasovchi qo‘shimchalar bilan yasalgan so‘zlar qatorini belgilang.

- a)Davlatxona, shaharsoz, ziyokorlar b)uzum, osmon, qulupnay
- c)Gullar, saodat, sevinch d)Favqulodda, gigant, sabot

25. "Tarvuzi qo'ltig'idan tushdi" iborasining ma'nosi to'g'ri berilgan qatorni toping.

- a) To'g'ri gapiradigan bo'lmoq
- b) Hafsalasi pir bo'lmoq
- c) Qo'rqmas bo'lmoq
- d) Birovning ustidan kulmoq
- e) Hammasi to'g'ri.

26. Sinonimlar berilgan qatorni belgilang

- a) Kuy, kul, qo'y b) Sabr, soy, roy
- c) keldi-ketdi, oq-qora, toza-iflos
- d) yuz, bashara, chehra

27. Mustaqil so'z turkumlari nechta?

- a) 9ta
- b) 6ta
- c) 5ta
- d) 3ta

28. Fe'l so'z turkumiga oid so'zlarni belgilang.

- a) gazeta, choy
- b) to'lmoq, kulmoq
- c) yuvdi, suzdi, chopdi
- d) daryo, soy, hayot

29. "Davlat tili haqida" gi qonunning nechanchi moddasida "O'zbekiston Respublikasining Davlat tili -o'zbek tilidir" deb yozilgan ?

- a) 1-moddasida
- b) 2-moddasida
- c) 3-moddasida
- d) 4-moddasida

30. Kirill yozuvidagi "O'bek tilining asosiy imlo qoidalari" qachon tasdiqlangan?

- a) 1940 -yil 8-may
- b) 1956 -yil 4- aprel
- c) 1993- yil 2- sentabr
- d) 1994- yil 24- avgust.

“O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fanidan yakuniy nazorat savollari

1 – variant

1. “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” kursining vazifalari nimalardan iborat?
2. Til va ma’naviyat tushunchalariga ta’rif bering.
3. “Men ona tilim bilan farxlanaman” mavzusida matn yarating.

2 – variant

1. “Davlat tili to‘grisida”gi qonun moddalaridan namunalar keltiring.
2. So‘zning necha xil ma’nosi bor? Har biriga misollar keltiring.
3. “Men tanlagan kasb” mavzusida matn yarating va undan bir ma’noli so‘zlarni toping.

3 – variant

1. Tilshunoslikning leksikologiya bo‘limi nimalarni o‘ranadi?
2. Ko‘p ma’noli so‘zlar deganda nimani tushunasiz, misollar keltiring.
3. “Sport – tinchlik elchisi” mavzusida matn yarating va atamalarni toping.

4 – variant

1. Terminlar nima, ularning yasashiga misollar keltiring
2. So‘z yasashning qanday usullarini bilasiz, misollar yozing
3. “O‘zbekiston – jannatmakon o‘lka” mavzusida ijodiy matn yaratib, yasama so‘zlarning ostiga chizing.

5 – variant

1. Matn va uning turlari, dialogik va monologik matnlarga misollar yozing.
2. Texnik va ilmiy matnning bir-biridan farqi nimada? Ularga misollar keltiring.
3. “Biz texnika asrining farzandlarimiz” mavzusida matn yaratib, texnikaga oid atamalarni alohida ustunga joylashtiring.

6 – variant

1. Adabiy nutq nima?

2. Nutq uslublari nima, uslub turlarini yozing.
3. “Bahor – fasllar kelinchagi” mavzusida publitsistik uslubda maqola yarating.

7 – variant

1. So‘zlashuv uslubi va uning boshqa uslublardan farqini tushuntiring, misollar keltiring.
2. Ilmiy uslub nima?
3. So‘zlashuv uslubida dialog yarating

8 – variant

1. Shevaga xos so‘zlar yordamida so‘zlashuv uslubida matn yarating .
2. Rasmiy – idoraviy uslubga ta’rif bering.
3. Ilmiy uslubning qanday turlari bor?

9 – variant

1. “Men ona tilim bilan farxlanaman” mavzusida matn yarating.
2. So‘zning necha xil ma’nosi bor? Har biriga misollar keltiring.
3. Tilshunoslikning leksikologiya bo‘limi nimalarni o‘ranadi?

10 – variant

1. “O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” kursining vazifalari nimalardan iborat?
2. Terminlar nima, ularning yasashiga misollar keltiring
3. So‘z yasashning qanday usullarini bilasiz, misollar yozing

11 – variant

1. Adabiy nutq nima?
2. Nutq uslublari nima, uslub turlarini yozing.
3. “Bahor – fasllar kelinchagi” mavzusida publitsistik uslubda maqola yarating.

12 – variant

1. Matn va uning turlari, dialogik va monologik matnlarga misollar yozing.

2. Texnik va ilmiy matnning bir-biridan farqi nimada? Ularga misollar keltiring.
3. “Biz texnika asrining farzandlarimiz” mavzusida matn yaratib, texnikaga oid atamalarni alohida ustunga joylashtiring.

13 – variant

1. “O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” kursining vazifalari nimalardan iborat?
2. Til va ma’naviyat tushuncha bering.
3. “Men ona tilim bilan farxlanaman” mavzusida matn yarating.

14 – variant

1. So‘zlashuv uslubi va uning boshqa uslublardan farqini tushuntiring.
2. Ilmiy uslub nima?
3. So‘zlashuv uslubida dialog yarating

15 – variant

1. So‘zlashuv uslubi va uning boshqa uslublardan farqini tushuntiring.
2. Texnik va ilmiy matnning bir-biridan farqi nimada? Ularga misollar keltiring.
3. So‘zlashuv uslubida dialog yarating

16 – variant

1. Shevaga xos so‘zlar yordamida so‘zlashuv uslubida matn yarating .
2. Rasmiy – idoraviy uslubga ta’rif bering.
3. Ilmiy uslubning qanday turlari bor?

17 – variant

1. Adabiy nutq nima?
2. Nutq uslublari nima, uslub turlarini yozing.
3. “Bahor – fasllar kelinchagi” mavzusida publitsistik uslubda maqola yarating.

18 – variant

1. So‘zlashuv uslubi va uning boshqa uslublardan farqini tushuntiring, misollar keltiring.
2. Ilmiy uslub nima?
3. So‘zlashuv uslubida dialog yarating

19 – variant

1. “O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” kursining vazifalari nimalardan iborat?
2. Til va ma’naviyat tushunchalariga ta’rif bering.
3. “Men ona tilim bilan farxlanaman” mavzusida matn yarating.

20– variant

1. “Davlat tili to‘grisida”gi qonun moddalaridan namunalar keltiring.
2. So‘zning necha xil ma’nosi bor? Har biriga misollar keltiring.
3. “Men tanlagan kasb” mavzusida matn yarating va undan bir ma’noli so‘zlarni toping.

21 – variant

1. “O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” kursining vazifalari nimalardan iborat?
2. Til va ma’naviyat tushunchalariga ta’rif bering.
3. “Men ona tilim bilan farxlanaman” mavzusida matn yarating.

22– variant

1. “Davlat tili to‘grisida”gi qonun moddalaridan namunalar keltiring.
2. So‘zning necha xil ma’nosi bor? Har biriga misollar keltiring.
3. “Men tanlagan kasb” mavzusida matn yarating va undan bir ma’noli so‘zlarni toping.

23 – variant

1. Tilshunoslikning leksikologiya bo‘limi nimalarni o‘ranadi?
2. Ko‘p ma’noli so‘zlar deganda nimani tushunasiz, misollar keltiring.

3. “Sport – tinchlik elchisi” mavzusida matn yarating va atamalarni toping.

24– variant

1. Terminlar nima, ularning yasashiga misollar keltiring
2. So‘z yasashning qanday usullarini bilasiz, misollar yozing
3. “O‘zbekiston – jannatmakon o‘lka” mavzusida ijodiy matn yaratib, yasama so‘zlarning ostiga chizing.

25 – variant

1. Matn va uning turlari, dialogik va monologik matnlarga misollar yozing.
2. Texnik va ilmiy matnning bir-biridan farqi nimada? Ularga misollar keltiring.
3. “Biz texnika asrining farzandlarimiz” mavzusida matn yaratib, texnikaga oid atamalarni alohida ustunga joylashtiring.

Talabalar bilimini baholash mezonlari

Talabaning amaliy, seminar, labarotoriya mashg'ulotlaridagi, mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi hamda faolligi "5" baholik tizimda baholanib boriladi va nazorat turlarida inobatga olinadi.

Nazorat turi **yozma(og'zaki)** shaklda o'tkazilganda:

- talaba fan (mavzu) bo'yicha mustaqil qaror qabul qilsa, ijodiy fikrlasa, bilimini amalda qo'llay olsa va savol mohiyatini bilib, xulosa chiqarganligi uchun "5" (a'lo) baho;

- talaba fan (mavzu) bo'yicha qisman mustaqil qaror qabul qilsa va ijodiy fikrlasa hamda bilimini amalda qo'llay olsa, berilgan savolning mohiyati haqida tushunchaga ega bo'lsa "4" (yaxshi) baho;

- talaba fan (mavzu) bo'yicha bilimini amalda qisman qo'llay olsa, savol mohiyatini tasavvur qilsa "3" (qoniqarli) baho;

- talaba fan dasturi talablarini o'zlashtirmagan bo'lsa va fan hamda savollar mohiyati haqida tasavvurga ega emas deb topilganda "2" (qoniqarsiz) baholar bilan baholanadilar.

Yakuniy nazorat turi fakultet dekani, o'quv-uslubiy boshqarma bilan kelishgan holda va o'quv ishlari bo'yicha prorektor tomonidan tasdiqlangandan grafik asosida tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotini olib borgan o'qituvchi ishtirokisiz o'tkaziladi.

Yakuniy nazorat shakli fan xususiyati va o'quv auditoriya soatidan kelib chiqib, kafedra tomonidan belgilanadi.

Yakuniy nazorat

"Test" shaklida o'tkazilsa variant 30 ta savoldan iborat bo'lsa quyidagicha baholanadi:

26-30 "5" (a'lo)

21-25 "4" (yaxshi)

17-20 "3" (qoniqarli)

16 va undan kam bo'lsa "2" (qoniqarsiz)

"Yozma" shaklda o'tkazilsa, savollar tarkibi 5 tadan iborat bo'ladi va har bir savol "5" baholi tizimda baholanib o'rta baho hisobga olinadi.

**Talabalar o‘zlashtirishini baholash va HEMIS tizimlarini qiyosiy
taqqoslash JADVALI**

Joriy baholash tizimi	Yevropa kredit transfer tizimi (ECTS — European Credit Transfer System)	O‘zbekiston tizimi (%)
«5»	«A»	90 — 100
«4»	«B»	70 — 89,9
	«C»	
«3»	«D»	60 — 69,9
	«E»	
«2»	«FX»	0 — 59,9
	«F»	

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy adabiyotlar

1. Abdurahmonova M, Fattaxova , Xalmuxammedova U, Inogamova N, Egamberdiyeva N. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). – Toshkent: Mumtoz so'z, 2018.

2. Qo'ng'urov R, Begmatov E, Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat. Darslik. – T: “Barkamol fayz media”, 1992. – 424 bet;

3. Muhiddinova X, Salisheva Z, Po'latova X. O'zbek tili (oliy ta'lim muassasalari rus guruhlar uchun darslik). – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 288

4. Aminov M, Madvaliyev A, Mahkamov N, Mahmudov N. Ish yuritish (amaliy qo'llanma). – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.– 456b.

Qo'shimcha adabiyotlar

5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5850 – son qarori.

6.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'grisida”gi PQ-40 son qarori

7.Husanov.N, Husanova M, Xo'jaqulova., Yusupov E. “Iqtisodiyotda texnik yozuv”. T.:“Fan va texnologiya markazi”, 2012. 152 b.

8. Ahmedova M.X, Gayubova K.A. “O'zbek tili”. T. TATU, Alohachiq”,2019.

9. O'zbek tilining izohli lug'ati (5 jildli). – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005–2008.

10. Sohaviy lug'atlar.Axborot manbalari

11.<http://sahifa.tj/uzbeksko-russkij.aspx>-Uzbeksko-russkiy perevodchik.

12. <http://library.ziyounet.uz/> - ta'lim portali

Internet saytlari:

1. www.prezident.uz

2. www.gov.uz.
3. www.edu.uz.
4. www.ziyonet.uz.
5. www.uza.uz
6. www.lex.uz
7. www.srategy.uz
8. www.google.uz.

O'QUV ADABIYOTINING NASHR RUXSATNOMASI

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligining 20 25 yil "21" Avgust
dagi "316"-sonli buyrug'iga asosan

B.B.SHUKUROVA, N.N.XUDOYOROVA

(muallifning familiyasi, ismi-sharifi)

Qurilish muhandisligi

(ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi))

ning

talabalari (o'quvchilari) uchun tavsiya etilgan

O'ZBEK TILINING SOHADA QO'LLANISHI

(o'quv adabiyotining nomi va turi: darslik, o'quv qo'llanma)

ga

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr
etishga ruxsat berildi.

Vazir



K.Sharipov

№ 686937

**SHUKUROVA BAHOR BOLTAYEVNA
XUDOYOROVA NIGORA NURIDDINOVNA**

O‘ZBEK TILINING SOHADA QO‘LLANISHI

O‘QUV QO‘LLANMA

Muharrir: Eshkaraev S.Ch.

Texnik muharrir: Eshqorayev. S.

Korrektor va dizayner: Ro‘zimurodov. B.

Tasdiqnoma № 255979, 13.04.2024

Bosishga 22.09.2025 da ruxsat berilgan. Format 60x84/16.

**Garnitura Times New Roman. Adadi 50 dona. Buyurtma № 287
“TERMIZ PUBLISHING CENTER” nashriyotida tayyorlandi va
chop etildi.**

**Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Uvaysiy ko‘chasi 8A-uy,
Toshkent sh., "TRASTBANK" XA BANKINING BOSH OFISI,
MFO: 00491, INN: 311209934 H/R: 20208000307031406001
Telefon: +998-88-808-21-07**

ISBN 978-9910-594-00-7



3430



Termiz –“Termiz publishing center”-2025